[IELTS Information for Candidates. — Rasmiy IELTS qo‘llanmasi, 2024-yil nashri. https://www.ielts.org; TOPIK Test Structure and Scoring System. https://www.topik.go.kr]

4.IELTS va TOPIKning electron shalkli. Toshkent Xalqaro universitetida Respublikamizda ilk bor TOPIK IBT imtihonining sinov tarzda o‘tkazilgani koreys tilini o‘rganayotgan yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Bu jarayon universitet va Koreya Ta’lim markazi o‘rtasidagi hamkorlikning izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi. TOPIK IBTning joriy etilishi — xalqaro standartlarga mos, qulay va raqamlashtirilgan test tizimiga o‘tish yo‘lidagi muhim qadamdir. Bu imtihon internetga ulangan kompyuter yoki planshet orqali, belgilangan markazda onlayn tarzda tashkil etilishi bilan TOPIK PBTdan farq qiladi va imtihon jarayonida tezlik, shaffoflik va zamonaviylikni ta’minlaydi [TIU university https://share.google / QdI1QCmJSqULjJpk9].

IELTS ham bundan mustasno emas albatta, IELTS e-TRF — imtihon natijalarini tez va qulay tarzda olish imkonini beradigan zamonaviy yechim. U qog‘oz TRF bilan bir xil huquqiy kuchga ega bo‘lib, arizalar topshirishda, o‘qishga hujjat yuborishda yoki immigratsiya jarayonlarida keng qo‘llanadi. IELTS e-TRF (Electronic Test Report Form) — bu IELTS imtihonining natijalari ko‘rsatib beriladigan Test Hisobot Formasining raqamli versiyasi hisoblanadi. [Idp.https://share.google/ZKXZdlo5Ve62AntYj].

Umuman olganda, mazkur tashabbuslar mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha sharoitlar yanada yaxshilanayotganini, xalqaro standartlarga mos raqamli imtihon tizimlari joriy qilinayotganini hamda xalqaro hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

5. “Ikki olam — bir maqsad” iborasi mazmunan har xil tilda, madaniyatda va tizimda bo‘lishiga qaramay, insoniyatning umumiy orzusi — bilim olish, muloqot qilish va taraqqiyot sari intilishidir. Har ikki test ham insonni muloqot, tafakkur va madaniyat jihatidan boyitadi. Ularning natijasida biz ikki dunyo — Sharq va G‘arb — o‘rtasida bilim ko‘prigini quramiz. Shunday qilib, TOPIK va IELTS insonning til orqali dunyoni anglashga bo‘lgan yagona intilishining ikki yo‘nalishidir. Maqsad esa bitta: o‘z imkoniyatlarini kengaytirish, bilim va madaniyat almashinuvi orqali insoniyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish [Oxford University Press. Mastering English for Global Communication, 2023].

XULOSA. TOPIK ham, IELTS ham — oddiy til imtihoni emas, balki orzular sari eltuvchi yo‘ldir. Har biri o‘z yo‘lida o‘quvchiga yangi eshiklar, yangi imkoniyatlar va yangi hayot sari yo‘l ochadi. Shunday ekan, sizni qaysi til ilhomlantiradi — Seulning iliq jilosimi yoki Londondagi tumanli tongmi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. IELTS Information for Candidates. (2024). Rasmiy IELTS qo‘llanmasi. IELTS.org. [https://www.ielts.org] (https://www.ielts.org)
2. Cambridge University Press. (2023). The Official Cambridge Guide to IELTS. Cambridge University Press.
3. Pearson Education Ltd. (2023). Understanding IELTS Band Scores. London.
4. Kang, H. (2022). Korean Language Proficiency Assessment and its Global Recognition. Seoul National University Press.
5. TOPIK Guide. TOPIK Test Structure and Scoring System. Koreya Milliy Ta’lim Instituti (NIIED) rasmiy ma’lumotlari. [https://www.topik.go.kr] (https://www.topik.go.kr)
6. National Institute for International Education (NIIED). (2024). TOPIK Test Overview and Grading Policy. Seul.
7. National Institute for International Education (NIIED). (2023). TOPIK Guidebook. Seoul.

QALBDAN QALBGA KO‘CHGAN NUR -봉사활동

Murodkulova Sofinabonu Abduvali qizi
2-bosqich talabasi, Filologiya va tillarni o’qitish (koreys tili)
Ilmiy rahbar: Nazarova Shaxlo Baxtiyorovna
Zarmed universiteti, Xorijiy filologiya kafedrasi dotsenti v.v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar volontyorlik nimaligini, uning kelib chiqish tarixi, volonyorlikning sohalari, O‘zbekiston va chet el volontyorligining farqi, volontyorlik yo‘nalishlari haqida atroflicha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: volontyorlik, Klara Barton, Qizil Xoch tashkiloti, volontyorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonun, gumanitar yordam, cher elda volontyorlik.

Kirish: Nima uchun bugungi kunda volontyorlik kerak? U jamiyatga qanday hissa qo‘shadi? degan savolga javob olmiz. U qayerda eshitilmasin, o‘sha yerda zulmat chekinadi va o‘zaro ishonch asosida qurilgan yangi bir yorqin olam shakllanadi. Volontyorlik -봉사활동 bu jismoniy shaxsning o‘z xohish-irodasi bilan, shaxsiy manfatsiz, erkin asosda jamiyat, atrof-muhit yoki alohida shaxslar manfati yo‘lida, shartnomalar asosida yoki shartnomalar tuzmasdan amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali faoliyatdir. Volontyorlik- bu shunchaki harakat emas, balki insonning qalb tubida yashiringan farishtaning uyg‘onishi demakdir. Bu- o‘z xohish-irodasi bilan, hech qanday moddiy manfaat kutmasdan, boshqa bir insonga yordam qo‘lini cho‘zish orqali ichki ezgulikni namoyon etish demakdir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham ko‘ngillilik harakati keng yoyilmoqda. Mamlakatimizda 60 mingdan ziyod fidoyi volontyorlar safi mavjud bo‘lib, ular jamiyat rivoji va insonparvarlik g‘oyalariga ulkan hissa qo‘shmoqdalar. O‘zbekiston hukumati bu ezgu sa’y-harakatlarni yuksak qadrlaydi. Ko‘ngillilarning fidokorona mehnati Prezidentimiz tomonidan yuqori baholanib, 400 nafarga yaqin volontyor “Mehr-saxovat” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangani, bu harakatning naqadar dolzarb va sharafli ekanligidan dalolat beradi.

Volontyorlik ortidan inson hayotida juda ko‘p yutuqlarga erishishi mumkin. Birinchi va eng muhimi bu savob. Savob har bir yordam ortidan olinadigan, insonning ma’naviy olami uchun eng kerakli, qimmatbaho hamda qalbni poklovchi ulug‘ ne’matdir. Ikkinchidan volontyorlik sertifikati mavjud bo‘lgan talabagina chet elda o‘qish yoki ishlash uchun grand eshiklarni ochuvchi muhim omil hisoblanadi. Uchinchidan turli xil insonlar bilan ishlab, muloqot qilib, yangi do’stlar ortirishi yoki volontyorlik orqali kim bilan qanday gaplashish kerakligini o‘rganish ortidan muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Asosiy qism: 1. Volontyorlikning kelib chiqishi. Volontyor -자원봉사자 ko‘ngilli inson hisoblanib bu o‘zining shaxsiy va professional bilim, ko‘nikma, kuch va baxtini bexuda narsalarga emas, jamiyat foydasi uchun harakat qiluvchi jismoniy shaxsdir. O‘zbekistonda bu tushuncha qadimdan “hasharchi” yoki “tashabbuskor” degan nomlar bilan ma’lum bo‘lgan.

Volontyorlik atamasi dastlab 1755-yilda qayt etilgan. Ko‘ngillilik so‘zi o‘sha vaqtda asosan harbiy ma’noda — jamoat xizmati iborasi bilan mos kelgan. Shu sababli “o‘zini harbiy xizmatga taklif qilgan“ ma’nosida bu so‘z birinchi marta 1630-yillarda qayd etilgan.

Amerika XIX-asrda, Buyuk uyg‘onish davrida kam ta’minlanganlar holidan xabar olgan amerikalik ayollar, ko‘ngilli ravishda askarlar uchun materiallar tikishdi. Ular “Jang maydoni farishtasi“ Klara Barton va ko‘ngillilar jamoasi sifatida harbiylarga yordam berishni boshladilar.

Barton 1881-yilda Amerika Qizil Xoch tashkilotiga asos soldi. Bu tashkilot 1889-yilda Jonstaun toshqinidan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatishni o‘z zimmasiga olgan, ofat oqibatlarini bartaraf etish operatsiyasi uchun ko‘ngillilarni safarbar qilishni boshlashadi. Shu tariqa volontyorlik vujudga keladi [https://uz.wikipedia.org/wiki/Volontyor].

2. Volontyorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonun O‘zbekistonda 2019-yil 2-dekabrda Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolandi. Qonunga muvofiq, volontyorlik faoliyati – jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab bepul asosda amalga oshiriladigan, jamoat uchun foydali bo‘lgan ixtiyoriy faoliyat hisoblanadi. 18 yoshga to‘lgan jismoniy shaxslar volontyorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Volontyorlik faoliyatini quyidagicha amalga oshirilishi mumkin		
yakka tartibdagi volontyorlik faoliyati	volontyorlar guruhi tarkibidagi volontyorlik faoliyati	volontyorlik tashkiloti orqali volontyorlik faoliyati

3. Volontyorlik shakillari. Volontyorlik ikki qismga bo’linadi. 1. Volontyorlik ko‘ngilli 자원봉사자. 2. Gumanitar yordam 인도적 지원. Volontyorlikka-자원봉사자 tegishli bo‘ladigan asosiy talablar bu o‘z xohishi va idroki bilan majburiy bo‘lmagan, beminnat yordam faoliyatidir. Bu faoliyat ortidan tog‘ridan-tog‘ri moddiy haq olinmaydi. Faoliyat natijasida jamiyatga yoki ma‘lum bir guruhga foyda keltiradi. Tashkiliy ishlarni rasmiy va norasmiy guruhlarda amalga oshirish mumkin. Gumanitar yordam - bu tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar, iqtisodiy inqiroz yoki boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatida jiddiy jabr ko‘rgan aholining hayotini saqlab qolish, holatini yengillashtirish va inson qadrini oshirish maqsadida ko‘rsatiladigan moddiy, moliyaviy va texnik yordam. Gumanitar yordam ko‘pincha moddiy resurslar (oziq-ovqat, dori-darmon, boshpana) bilan bog‘liq bo‘ladi.

4. O‘zbekiston va chet elda volontyorlikning farqi. O‘zbekistonda volontyorlik-ko‘pincha mahalliy, madaniy, ekologik tadbirlar, ijtimoiy yordam loyihalari, ta’lim sohasidagi tashabbuslar va sport musobaqalarini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirda ishtirok etishdir. Davlat tashkilotlari Yoshlar ishlari agentligi, nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT), mahalliy xayriya jamg‘armalari va ta’lim muassasalaridir. (hali to‘liq shakllanmagan). Ko‘pincha vaqtinchalik loyihalar yoki yirik tadbirlarga jalb qilinadi. Rasmiy tan olinishi va tajribani hujjatlashtirish tizimi rivojlanish bosqichida. Asosan o‘zbek, rus va ingiliz tillarida muloqot qilinadi.

Chet elda volontyorlik- Ekologik muhofaza (tabiat bog‘lari, dengiz hayoti), global sog‘liqni saqlash, gumanitar yordam, xalqaro ta’lim va madaniy almashinuv dasturlari. BMT, Yevropa Ittifoqi EU Aid Volunteers, Peace Corps AQSh, xalqaro NNTlar, yirik almashinuv dasturlari ancha rivojlangan va institutlashgan. Ko‘pincha uzoq muddatli loyihalarga jalb qilinadi. Volontyorlik tajribasi ko‘plab davlatlarda rasmiy ish tajribasi sifatida qabul qilinadi. Ingliz, fransuz, ispan, koreys tillarida muloqot qilishadi. Ko‘pgina xalqaro dasturlarda volontyorlarning yashash joyi, ovqatlanish xarajatlari va hatto yo‘l xarajatlarini ham qisman yoki to‘liq qoplab berishadi. Volontyorlik ishlari chet elda alohida o‘rin tutadi.

5. Volontyorlik yo‘nalishlari. Ekologik volontyorlik 환경 봉사 활동- bu barcha tirik mavjudotlar va butun o‘simlik dunyosi oldidagi ma’suliyatini anglashidir. Ekologik volontyor o‘zining ezgu sa’y-harakatlari bilan tabiatning mo‘jizalarini asrashga, sayyoramizning muvozanatini himoya qilishga hamda kelajak avlodlarga yashil meros qoldirishga intiluvchi jonkuyar qalb sohibidir. Ekologik volontyorlik daraxtlar ekish, tabiatni axlatlardan tozalash, hayvonlarga boshpanalar barpo etish hamda ularga g‘amxo‘rlik qilishdir.

Ta’lim volontyorligi 교육 봉사활동 — bu o‘z bilim, ko‘nikma va tajribasini beminnat baham ko‘rish, kam ta‘minlangan oilalar farzandlariga, mehribonlik uylarida maktab dasturi bo‘yicha qo‘shimcha darslar berish. Kompyuter savodxonligi, dasturlash asoslari kabi zamonaviy ko‘nikmalarni o‘rgatish. Hayotiy ko‘nikmalar, vaqtni boshqarish yoki notiqlik san’ati bo‘yicha mahorat darslari o‘tkazishdir. Ta’lim volontyorlikligi bolaning boshqalar bilan teng ta’lim olishiga muhim rol uynaydi, chunki u bilim olish imkoniyatlari cheklangan qatlamlarga bepul va sifatli ta’lim olishga ko‘maklashadi.

Ijtimoiy ish volontyorligi 사회 복지 봉사자— bu jamiyatdagi eng himoyasiz qatlamlarga bevosita yordam ko‘rsatishga qaratilgan eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Ularning vazifasi yolg‘iz keksalar, kam taminlangan oilalar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning uylariga borish, ularga oziq-ovqat

xarid qilish, dori-darmon olib kelish yoki uy-roʻzgʻor ishlarida yordam berishdir. Giyohvandlik va boshqa salbiy odati bor insonlarni jamiyatga qayta moslashishiga yordam berishadi, shaxsiy tajribalariga asoslanib insonlarni ruhlantirishadi. Hamda zararli odatlarning oldini olish boʻyicha seminarlar va treninglar oʻtkazishadi.

Xulosa: Oʻzbekistonda volontyorlik oʻz jamiyatingizga bevosita yordam berish, muloqot qilish orqali koʻplab doʻstlar ortirish va mamlakat ichidagi tizimlar bilan tanishish uchun ajoyib imkoniyatdir. Volontyorlikning yoʻnalishlari turliligi sababli sizga qaysi turdagi volontyorlik koʻproq mos kelishini bilish uchun, sizni qaysi yoʻnalish va qanday muddatdagi loyihalar qiziqtirayotganini aniqlab olishingiz muhim. Shu bilan birga bu faoliyatni rivojlantirish uchun avvalo volontyorlik haqida keng tushunchaga ega boʻlib soʻngra harakat qilish kerak. Volontyorlik Oʻzbekistonda ham keng yoyilishi bu bizning yutugʻimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekitson Respublikasi konstitutsiyasi - (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayt http://nhrc.uz/oz .
3. https://grantgo.uz/blog/volontyorlik-faoliyati-va-uning-foydalari

HOW TO IMPROVE ENGLISH SPEAKING FLUENCY

Nematova Durdona
Zarmed University student
Scientific advisor: Tuychiyev S.
Teacher at Zarmed University

Abstract: This article presents a condensed synthesis of research on improving English speaking fluency. Fluency is defined as a multidimensional construct involving speed, coherence, accuracy, and prosody. The article integrates findings on linguistic competence, strategic practice, psychological factors, and technological tools. The results suggest that a balanced approach combining task-based practice, pronunciation training, vocabulary development, and the use of AI-driven tools leads to measurable improvements in fluency.

Keywords: English fluency, pronunciation, task-based learning, AI, language strategies

English has become the dominant global language for communication, education, and professional development. As a result, developing speaking fluency is a key goal for second language learners. Fluency is not merely the ability to speak quickly but includes smooth, coherent, and intelligible speech supported by appropriate pronunciation, vocabulary, and grammar.

This tiny research aims to synthesize existing research and propose a structured framework for improving English speaking fluency. It focuses on linguistic foundations, effective learning strategies, psychological barriers, and technological advancements.

This study uses a narrative review methodology, synthesizing findings from quantitative, experimental, and action research studies in second language acquisition. Data sources include peer-reviewed articles, pedagogical reports, and experimental studies focusing on fluency development. Quantitative methods such as questionnaires were used in previous studies to identify learning strategies. Experimental designs examined pronunciation instruction and fluency outcomes, while action research evaluated task-based learning interventions. The synthesis focuses on identifying consistent patterns and effective practices across studies.

Findings indicate that fluency development depends on four main factors:

1. Linguistic Competence: Pronunciation, vocabulary, and grammar form the foundation of fluent speech. Suprasegmental features such as stress and intonation significantly impact intelligibility and perceived fluency.

2. Strategic Practice: Task-Based Language Teaching (TBLT) and communicative activities improve speech rate, reduce pauses, and enhance spontaneous speech production. Regular practice and real-life interaction are essential Chau G., Kennedy, J. E., & Puskas, A.

3. Psycholinguistic Factors: Anxiety and fear of mistakes negatively affect fluency. Confidence-building activities and supportive environments help learners speak more freely.

4. Technology Integration: AI tools and digital platforms provide personalized feedback, pronunciation correction, and interactive speaking opportunities, accelerating learning progress.

The findings highlight that no single method is sufficient to achieve fluency. Instead, a holistic approach is required. Linguistic knowledge must be combined with consistent communicative practice. TBLT is particularly effective because it mirrors real-life communication and emphasizes meaning over form. Thomson and Derwing also observed a shift in research emphasis towards intelligibility and comprehensibility over strict native-like pronunciation targets.

Psychological factors must also be addressed. Reducing anxiety and encouraging self-evaluation can significantly improve learner performance. Additionally, AI technologies offer new opportunities for personalized and accessible language learning, especially in contexts with limited access to native speakers.

The integration of these elements creates a comprehensive framework for sustainable fluency development, Nguyen, T. H.

Conclusion. Improving English speaking fluency requires a multidimensional approach that integrates linguistic skills, strategic practice, psychological readiness, and technological support. Learners benefit most from engaging in meaningful communication, expanding vocabulary, improving pronunciation, and using modern digital tools.

Future research should explore the long-term impact of AI-based learning tools and develop more precise methods for measuring fluency beyond speech rate. Overall, fluency development is a continuous and dynamic process that requires consistent effort and adaptive strategies.

References

1. Chau, G., Kennedy, J. E., & Puskas, A. "Effects of L2 Pronunciation Instruction on Speech Intelligibility and Fluency Among Beginning Adult EFL Learners." CATESOL Journal, vol. 33, no. 1, 2022, pp. 1-20.

2. Derwing, T. M., & Munro, M. J. "Pronunciation for success: The new ABCs of pronunciation instruction." Language Teaching, vol. 48, no. 3, 2015, pp. 396-

3. Nguyen, T. H. Learning Strategies Employed by English Majors at Can Tho University to Enhance English Speaking Skills. Can Tho University, 2020.

INGLIZ TILIGA KIRIB KELGAN YANGI SO‘ZLAR – NEOLOGIZMLAR

Ismatullayeva Dilnura
Zarmed Universiteti Samarqand kampusi talabasi
Ilmiy rahbar: Usmonova K.B.
Zarmed University
Zarmed universiteti, Xorijiy filologiya kafedrasi dotsenti v.v.b.

Anotatsiya: ushbu maqolada ingliz tiliga kirib kelgan yangi so‘zlar, ya’ni neologizmlar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Neologizmlar qanday paydo bo‘lishi, ularning ijtimoiy va madaniy va texnologik omillar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada neologizmlarning til rivojiga ta’siri, ularning kundalik hayotda qo‘llanishi va global kommunikatsiyadagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, kelajakda yangi so‘zlarning paydo bo‘lish ehtimoli va ularning tilga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: neologizm, ingliz tili, yangi so‘zlar, madaniyat, til.

NEW WORDS IN ENGLISH – NEOLOGISM

Annotation: this article provides detailed information about new words in English language, known as neologisms. It analyzes how neologisms appear and their connection with social, cultural, and technological factors. The article also discusses the impact of neologisms on language development, their use in everyday life, and their role in global communication. In addition, it considers the possibility of new words appearing in the future and how they may influence the language.

Keywords: neologism, English language, new words, culture, language

Neologizm, yangi so‘z yoki ibora sifatida tanilgan, tilning rivojlanishi jarayonida paydo bo'lgan terminlardir. Ular ko‘pincha ilmiy, texnologik yoki madaniy o'zgarishlarga javoban shakllanadi. Neologizmlar, tilning dinamik tabiatini namoyish etadi va jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda yangi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ingliz tilida neologizmlar juda keng tarqalgan bo'lib, ular ko‘pincha internet, texnologiya va ijtimoiy hayot bilan bog‘liq sohalarda paydo bo'ladi. Masalan, “blog”, “selfie” va “hashtag” kabi so‘zlar, zamonaviy aloqa vositalarining rivojlanishi natijasida shakllangan.

Neologizm — yangi so‘z yoki ifoda bo'lib, u tilga yangi ma’no yoki tushunchalarni kiritish uchun yaratiladi. Ularning paydo bo‘lishi ko‘pincha ijtimoiy, iqtisodiy yoki texnologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Ingliz tilida neologizmlar tez-tez uchraydi va ular global kommunikatsiyada muhim rol o'ynaydi, chunki ular zamonaviy tendensiyalarni aks ettiradi va madaniy almashuvni kuchaytiradi.

Neologizmlar, yangi so‘zlar yoki ifodalar sifatida, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda paydo bo'ladi. Ular ko‘pincha muayyan ehtiyojlar yoki yangi fenomenlar natijasida yuzaga keladi. Masalan, texnologiyaning rivojlanishi bilan birga, internet va raqamli kommunikatsiya sohalarida yangi terminlar paydo bo'ladi. Bu jarayon ijtimoiy o‘zgarishlar, madaniy almashuv va globalizatsiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Yangi so‘zlar, ko‘pincha, bir madaniyatdan boshqasiga o‘tib, yangi ma'nolar va kontekstlar bilan boyitiladi. Neologizmlarning paydo bo‘lishi, shuningdek, tilning dinamik tabiatini va uning doimiy ravishda o‘zgarib borishini ko'rsatadi. Neologizmlar tilning rivojlanishi jarayonida ijtimoiy va madaniy omillar ta’sirida paydo bo‘ladi.

Zamonaviy texnologiyalar hayotimizning turli jabhalarida, jumladan, til va uning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Texnologik yangiliklar, masalan, internet, mobil aloqa va sun'iy intellekt kabi sohalarda yuzaga kelayotgan innovatsiyalar, yangi tushunchalar va atamalarni talab qiladi. Bu jarayon natijasida neologizmlar paydo bo'ladi, ularning aksariyati zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq. Misol uchun, “blog”, “vlog”, “tarmoq” kabi so‘zlar, texnologiyaning rivojlanishi bilan birga kelib, kundalik hayotimizda keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, internet, mobil aloqa va sun’iy intellekt, yangi terminlar va tushunchalarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Natijada, tilning boyishi va rivojlanishi, zamonaviy hayotning talablariga mos ravishda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy kommunikatsiya muhitida muhim rol o'ynaydi va bu platformalarda yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi jarayoni tezlashadi. Ushbu so‘zlar, nafaqat tilning rivojlanishiga hissa qo'shadi, balki ijtimoiy madaniyat va identitetni ham aks ettiradi. Masalan, “like”, “share” va “tweet” kabi so‘zlar, ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan va ular o‘zbek tiliga kirib kelgan yangi tushunchalarni ifodalaydi. Bu jarayon, tilning dinamikligini va uning ijtimoiy kontekstda qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi. Ushbu yangi atamalar ko‘pincha foydalanuvchilar o‘rtasida tez tarqaladi va ular o‘zaro muloqotda yangiliklarni, hissiyotlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

Neologizmlar madaniyatni ifodalash va o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular yangi g‘oyalar, tushunchalar va ijtimoiy hodisalarni til orqali aks ettiradi. Har bir yangi so‘z yoki ibora, o‘z ichida o‘sha davrning madaniy kontekstini saqlaydi, bu esa tilni zamon bilan birga rivojlantiradi. Masalan, texnologik rivojlanish va globalizatsiya jarayonlari natijasida yuzaga kelgan yangi terminlar, odamlarning hayoti va fikrlaridagi o‘zgarishlarni ifodalaydi. Yana bir tomondan, neologizmlar madaniyatni yangilash va yangicha qarashlarni kiritish orqali, eski an’analarni va qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Shu sababli, til va madaniyat o‘rtasidagi o'zaro bog‘liqlik neologizmlar orqali yanada kuchayadi va madaniyatning dinamikasini ta'minlaydi.

Neologizmlar til rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular yangi tushunchalar va hodisalarni ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy dunyoda texnologik, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar natijasida paydo bo'lgan yangi so‘zlar, tilning dinamikligini oshiradi va uning qoidalarini yangilashga majbur qiladi. Neologizmlar til qoidalariga mos kelishi zarur, chunki ularning qabul qilinishi tilning ichki tuzilishi va qonuniyatlariga bog‘liq. Agar yangi so‘zlar mavjud grammatik va fonetik qoidalar bilan uyg‘unlashmasa, u holda ular tilga kiritilishida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Biroq, to‘g‘ri qo‘llanilganda neologizmlar tilni boyitadi va uning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kelajakda ingliz tilida yangi neologizmlar paydo bo‘lishi ehtimoli yuqori. Bu jarayon asosan texnologik innovatsiyalar, ijtimoiy o‘zgarishlar va global madaniyatning ta’siri bilan bog‘liqdir. Yana bir muhim omil–ijtimoiy tarmoqlar va onlayn kommunikatsiyaning rivojlanishi, bu esa yangi so‘zlar va ifodalarni tezda ommalashtirishga imkon beradi. Shuningdek, ekologik muammolar va barqaror rivojlanish masalalari ham yangi so‘zlar va atamalarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, “ekoturizm” yoki “barqaror moda” kabi so‘zlar kelajakda yanada keng tarqalishi mumkin. Kelajakda ingliz tilida yangi so‘zlar paydo bo'lishi ehtimoli juda yuqori. Bu jarayon texnologik rivojlanish, ijtimoiy o‘zgarishlar va madaniy almashuvlar bilan bog‘liq. Masalan, sun’iy intellekt va raqamli platformalar bilan bog‘liq yangi atamalar, shuningdek, yangi ijtimoiy fenomenlar va tendensiyalarni ifodalovchi so‘zlar paydo bo‘lishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, tilning evolyutsiyasini ta’minlaydi.

REFERENCES

1. Crystal, D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of the English Language.
2. Meyer, C. F. (2009). English Corpus Linguistics: An Introduction.
3. Yule, G. (2014). The Study of Language.
4. Algeo, J. (2010). Fifty Years Among the New Words.
5. Trask, R. L. (2000). The Dictionary of Historical and Comparative Linguistics.
6. Hanks, P. (2008). Lexical Analysis: Norms and Exploitations.
7. OED Online. (2023). Oxford English Dictionary.
8. McArthur, T. (1992). The Oxford Companion to the English Language.

BADIIY MATNDA TIL VA USLUBNING O‘RNI

Rashidova Begoyim
Zarmed Universiteti Samarqand kampusi talabasi
Ilmiy rahbar: Usmonova K.B.
Zarmed universiteti, Xorijiy filologiya kafedrasi dotsenti v.v.b.

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy matnning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan til va muallifning individual ifoda shakli sifatidagi uslubning o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi.Badiiy nutq uslubining o‘ziga xos jihatlari, tilning tasviriylik va estetik ta’sir hosil qilishdagi roli, ilmiy uslub bilan solishtirma tomonlari, va qolaversa, o‘zbek adabiyotidan namunalar bilan yoritilgan. Maqola til va uslubning badiiy matnda o‘zaro chambarchas bog‘liqligini, ularning syujet, obrazlar va o‘quvchi hissiyotlarini shakllantirishdagi muhim bo‘lgan vazifasini ko‘rsatib o‘tadi. Tadqiqot natijalari adabiyotshunoslik va tilshunoslikning dolzarb muammolariga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, badiiy til, badiiy uslub, tasviriylik, estetik ta’sir, muallif nutqi, qahramon nutqi, badiiy vositalar.

THE ROLE OF LANGUAGE AND STYLE IN LITERARY TEXT

Abstract: this article analyzes the role and significance of language, which is the main component of a literary text, and style as the author's individual mode of expression. The specific features of literary speech, the role of language in creating imagery and aesthetic effect, its comparative aspects with scientific style, as well as examples from Uzbek literature are discussed. The article highlights the close interconnection between language and style in a literary text and demonstrates their important role in shaping the plot, characters, and the reader’s emotions. The results of the study contribute to current issues in literary studies and linguistics.

Keywords: literary text, literary language, literary style, imagery, aesthetic effect, author’s speech, character’s speech, stylistic devices.

Badiiy adabiyot tilning eng yuksak ifoda ko‘rinishi hisoblanadi. Til bu yerda nafaqat oddiy aloqa vositasi, balki san’atning asosiy unsuri, stetik qiymat hosil qiluvchi vositaga aylanadi. Uslub esa muallifning dunyoqarashi, fikrlash doirasi, tarzi hamda mahoratini aks ettiruvchi individual yo‘l bo‘lib, matnni noyob va betakror qiladi.

Adabiyotshunoslikda til va uslubning o‘rni V. Vinogradov, B.Yo‘doshev, X.Doniyorov [2;5;6] kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ular badiiy matnni “estetik ta’sir ko‘rsatuvchi, tasviriy va hissiy” deb izohlaydilar. Hozirgi davrda, ayniqsa, o‘zbek adabiyotshunosligida bu mavzu muhim bo‘lib qolmoqda, chunki tilning badiiylashuvi milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir.

Badiiy matnda til avvalo obraz yaratish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Oddiy xalq tilidan farqli ravishda, badiiy til ifodali va poetic xususiyatlarga ega: so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noda emas, balki ko‘chma ma’noda ishlatiladi.

Masalan, leksik birliklar (eski so‘zlar, mahalliy so‘zlar hamda yangi so‘zlar), sinonimlar, antonimlar va o‘xshash talaffuzli so‘zlar uslubiy yuk oladi .

Tilning asosiy vazifalari quyidagilar:

Estetik ta’sir hosil qilish- o‘quvchida his-tuyg‘u uyg‘otish;

Tasviriylik- voqelikni jonli aks ettirish;

Hissiylik- muallif vz qahramonlarning ichki olamini ochish.

Muhabbat Alimovna Hakimova [3] ta’kidlaganidek, badiiy til “umumxalq va adabiy til bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘ziga xos jihatlariga ega bo‘lib , obraz yaratishning asosiy vositasi” hisoblanadi.

Muallif nutqi va qahramon nutqining o‘zaro bog‘liqligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy masalasi bo‘lib, qahramonlar nutqi umumlashtirish va individuallashtirish orqali yuzaga keladi.

Badiiy matnda til syujetni shakllantirish, ziddiyatlarni ochish va kompaziysiyani tuzishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Uslub- bu til vositalarining muayyan tartibda qo‘llanilishi va mallifning shaxsiy ifoda yo‘lidir. Badiiy uslub boshqa funksional uslublardan (ilmiy, rasmiy, publistik) tasviriylik, badiiy vositalar (metafora, epitet, qarama-qarshilik, takror) va sintaktik o‘zgarishlar bilan ajralib turadi. U o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi va tasavvurida alohida olam yaratadi.

O.T.Begimovning [1] qiyosiy tadqiqotiga ko‘ra, badiiy uslubda leksika ko‘chma va obrazli bo‘lsa, morfologiyada fe’llar, sifatlar va sifatdoshlarning keng qo‘llanishi ustunlik qiladi. Sintaksisda esa gap tuzilishining o‘zgarishi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita nutq, murakkab gaplar orqali hissiylik kuchaytiriladi.

Ilmiy uslubdan farqli ravishda, badiiy uslub voqealar tizimga ega, obrazlar (masalan:Abdulla Qodiriynining “O‘tgan kunlar” asaridagi Otabek, Kumush va Zaynab) orqali hayotni tasvirlaydi va estetik ta’sir ko‘rsatadi. Uslub muallifning dunyoarashini ifodalab, asarni yagona qiladi va o‘quvchini ruhiy olamga olib kiradi.

Til va uslub bir-biriga bog‘liq: til uslubning materiali, uslub esa tilning ifoda shaklidir. Badiiy matnda ularning uzviy aloqasi estetik qiymatini belgilaydi. Ilmiy uslubda til aniq, terminlarga boy va shaxsiylikdan xoli bo‘lsa, badiiy uslubda til ifodali hissiy va subyektiv bo‘ladi.

Begimovning fikricha, ikkala uslubda ham umumiy til birliklari mavjud bo‘lsa-da, ularning leksik, grammatik va sintaktik farqlari maqsadni belgilaydi: ilmiy uslub- bilim berish va axborot yetkazish, badiiy uslub- estetik ta’sir va his tuyg‘u uyg‘otishdir.

Po‘latjonova Odina [4] o‘zbek adadiy asarlarida badiiy tilning syujet yaratishidagi ahamiyatini alohida qayd etadi. Natijada, til va uslubning uyg‘unligi badiiy matnni haqiqiy san’at asariga aylantiradi.

O‘zbek adabiyotida amaliy misollar. O‘zbek adabiyotida til va uslubning yorqin namunalarini ko‘plab uchratish mumkin. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida tilning tasviriy qo‘llanishi orqali XIX asr O‘zbekistonning ijtimoiy qarama-qarshiliklari jonli ifodalangan . Muallif nutqi va qahramonlar nutqining uyg‘unligi asarning estetik qiymatini oshiradi.

Alisher Navoiyning “ Xamsa” asarida sha’riy tilning ohangi, qofiya tizimi va badiiy vositalar uslubni shakllantirib, falsafiy chuqurlik bag‘ishlaydi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida (masalan Pirimqul Qodirov, O‘tkir Hoshimov asarlarida) tilning mahalliy so‘zlar va yangi birliklar orqali milliy ruh berilishi uslubning individualligini kuchaytiradi.

Bu misollar til va uslubning badiiy matnda nafaqat ma’no balki estetik va tarbiyaviy vazifa bajarishini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda til va uslubning o‘rni nihoyatda muhimdir:til obraz va hissiyot yaratishning asosiy vositasi bo‘lsa, uslub bu vositani muallifning shaxsiy mahorati bilan boyitadi. Ularning uzvi aloqasi estetik ta’sir, syujet rivoji va o‘quvchining ustunligi tasviriylik va hissiylikda ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiyotida bu tamoyillar milliy adabiy merosni asrash va rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir.Kelajakda til va uslubning raqamli adabiyotdagi o‘rni ham chuqur o‘rganilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begimov O.T.X. “Ilmiy va badiiy uslubga tegishli matnlarning o‘ziga xozs xususiyatlari”- CyberLeninka, 2024
2. Doniyoriov X., Yo‘ldoshev B. “ Adabiy til va badiiy stil”-Toshkent:Fan,1988
3. Hakimova M.A. “ Aabiyotshunoslikda badiiy asar tili va badiiy nutq uslubi”-Oriens.uz,2023
4. Po‘latjonova O “O‘zbek adabiy asarlarida badiiy til o‘rniva ahamiyati” - Universalpublishings,2023
5. Vinogradov V. “ О язык художественной литературой”-M.,1957
6. Yo‘ldoshev B. va boshqa. “ Badiiy asar tili va uslubi masalalari.- Samarqand,2006.

BADIIY MATNDA STILISTIK VOSITALARNING QO‘LLANILISHI VA ULARNING ESTETIK AHAMIYATI

Xursandova Parvina Tugalovna
Zarmed Universiteti Samarqand kampusi talabasi
Ilmiy rahbar: Usmonova K.B.
Zarmed universiteti, Xorijiy filologiya kafedrasi dotsenti v.v.b.

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy matnda stilistik vositalarning qo‘llanishi, ularning badiiy-estetik ahamiyati hamda o‘quvchi ongiga ta’siri tahlil qilinadi. Badiiy adabiyot tilida metafora, epitet, taqqoslash, mubolag‘a kabi tasviriy vositalarning o‘rni muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada badiiy matnni lingvostilistik jihatdan tahlil qilish orqali yozuvchining individual uslubi va til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, stilistika, metafora, epitet, taqqoslash, lingvostilistika, badiiy tasvir vositalari.

THE USE OF STYLISTIC DEVICES IN LITERARY TEXT AND THEIR AESTHETIC SIGNIFICANCE

Abstract: this article analyzes the use of stylistic devices in literary texts, their artistic and aesthetic significance, and their impact on the reader’s perception. In the language of literature, figurative devices such as metaphor, epithet, simile, and hyperbole play an important role. The article examines the writer’s individual style and their mastery in using the expressive potential of language through a linguostylistic analysis of literary texts.

Keywords: literary text, stylistics, metaphor, epithet, simile, linguostylistics, figurative devices.

Badiiy adabiyot insoniyat madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Adabiy asarlar orqali inson ruhiyati, jamiyat hayoti va turli ijtimoiy jarayonlar o‘z ifodasini topadi. Badiiy matnning ta’sirchanligi esa ko‘p jihatdan yozuvchining til imkoniyatlaridan qay darajada samarali foydalanishiga bog‘liq.

Til badiiy asarning asosiy qurilish materiali hisoblanadi. Yozuvchi o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini hamda tasvirlamoqchi bo‘lgan voqelikni aynan til vositalari orqali ifodalaydi. Shu sababli badiiy matnni o‘rganishda stilistik vositalarni tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Stilistika tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo‘lib, u til birliklarining uslubiy xususiyatlarini hamda ularning nutqda qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganadi. Badiiy adabiyotda stilistik vositalarning qo‘llanishi esa matnning estetik qiymatini oshiradi va o‘quvchi ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi badiiy matnda stilistik vositalarning qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish hamda ularning estetik ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Badiiy matn – bu adabiy asarning til orqali ifodalangan shaklidir. Badiiy matn o‘zining obrazliligi, emotsionalligi va estetik ta’sirchanligi bilan boshqa nutq turlaridan farq qiladi.

Badiiy matnda voqelik to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki badiiy tasvir vositalari orqali ifodalanadi. Yozuvchi voqea-hodisalarni tasvirlashda tilning turli imkoniyatlaridan foydalanadi. Bu esa matnning mazmunini yanada boyitadi va o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi [4]

Badiiy matn quyidagi xususiyatlarga ega:

obrazlilik

emotsionallik

individual uslub

estetik ta’sirchanlik

Ushbu xususiyatlar badiiy matnni boshqa ilmiy yoki rasmiy matnlardan farqlab turadi.

Stilistik vositalar va ularning turlari. Stilistik vositalar badiiy matnning ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim til birliklaridir. Ular yordamida yozuvchi voqea-hodisalarni yanada obrazli va ta’sirchan tarzda tasvirlaydi [3]. Stilistik vositalar turli xil bo‘lishi mumkin. Eng keng tarqalganlari quyidagilar:

Metafora – bu bir predmet yoki hodisani boshqa bir predmet yoki hodisa bilan o‘xshashlik asosida ifodalash usulidir. Metafora badiiy matnda obrazlilikni kuchaytiradi va tasvirni yanada jonli qiladi. Masalan: “Hayot – bu uzun yo‘l”. Bu misolda hayot yo‘lga qiyoslangan. Metafora orqali yozuvchi murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli tarzda ifodalashi mumkin.

Epitet – bu predmet yoki hodisaning muhim belgilarini ifodalovchi badiiy aniqlovchidir. Epitet badiiy tasvirni yanada boyitadi va tasvirlangan obyektning xususiyatlarini ochib beradi. Masalan: moviy osmon, oltin kuz, sokin tun. Epitetlar badiiy matnda emotsional rang-baranglikni oshiradi.

Taqqoslash – bu ikki predmet yoki hodisaning o‘xshash tomonlarini ko‘rsatish orqali tasvir yaratish usulidir. Masalan: “U sher kabi jasur edi.” Bu yerda qahramonning jasorati sher bilan taqqoslanmoqda. Taqqoslash badiiy tasvirning aniqligini oshiradi.

Mubolag‘a – bu voqea yoki hodisani bo‘rttirib tasvirlash usulidir. Mubolag‘a orqali yozuvchi tasvirning ta’sirchanligini kuchaytiradi. Masalan: “Ko‘z yoshlaridan daryo oqdi.” Albatta, bu real holat emas, balki tasviriy ifoda.

Stilistik vositalarning estetik ahamiyati

Badiiy matnda stilistik vositalarning qo‘llanishi asarning estetik qiymatini oshiradi. Ular yordamida yozuvchi o‘quvchi tasavvurida jonli obrazlar yaratadi.

Stilistik vositalar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Matnning obrazliligini oshiradi.
2. O‘quvchi tasavvurini boyitadi.
3. Asarning emotsional ta’sirini kuchaytiradi.
4. Muallifning individual uslubini namoyon qiladi.

Shu sababli stilistik vositalar badiiy adabiyotning ajralmas qismi hisoblanadi.

Lingvostilistik tahlil badiiy matnda qo‘llangan til vositalarini ilmiy jihatdan o‘rganish jarayonidir. Bu tahlil yordamida yozuvchining til boyligi va uslubiy mahoratini aniqlash mumkin [5]. *Lingvostilistik tahlil quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:*

matndagi stilistik vositalarni aniqlash;

ularning funksiyasini tahlil qilish;

matn mazmuniga ta’sirini aniqlash;

Bu usul badiiy matnni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda stilistik vositalarning qo‘llanishi asarning estetik qiymatini oshiradi va o‘quvchi ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Metafora, epitet, taqqoslash va mubolag‘a kabi tasviriy vositalar yordamida yozuvchi voqea-hodisalarni yanada obrazli tarzda ifodalaydi.

Shuningdek, lingvostilistik tahlil badiiy matnning til xususiyatlarini chuqur o‘rganishga yordam beradi hamda yozuvchining individual uslubini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977.
2. Leech G., Short M. Style in Fiction. – London: Longman, 2007.
3. Йўлдошев Б. Бадиий матн лингвистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2015.
4. Нурмонов А. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2012.

5. Шомаḱсудов А., Расулов Р. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

Azizjonova Guli Azizjonovna
Zarmed Universiteti Samarqand kampusi talabasi
Ilmiy rahbar: Usmonova K.B.
Zarmed universiteti, Xorijiy filologiya kafedrasi dotsenti v.v.b.

Annotatsiya: bugungi kunda tilshunoslik fanida jadal o‘zgarishlar va yangi tadqiqot yo‘nalishlari kuzatilmoqda. Ushbu tezisda zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolari, jumladan, kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning tilshunoslikka ta’siri, ko‘p tillilik sharoitida tilning o‘rni hamda lingvistik tadqiqotlarning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqsad – tilshunoslikning hozirgi holatini baholash va uning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini belgilash. Unda tilning inson tafakkuridagi o‘rni va madaniy-ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, raqamli tilshunoslik, globallashuv, lingvistik texnologiyalar

MODERN LINGUISTICS: CURRENT CHALLENGES AND FUTURE PROSPECTS

Abstract: nowadays, rapid changes and new research directions are being observed in the field of linguistics. This thesis analyzes the most pressing issues of modern linguistics, including the development of cognitive linguistics, the impact of digital technologies on linguistics, the role of language in a multilingual environment, and the practical significance of linguistic research. The aim is to evaluate the current state of linguistics and identify its future development trends. It also highlights the role of language in human cognition and its essence as a cultural and social phenomenon.

Keywords: linguistics, cognitive linguistics, digital linguistics, globalization, linguistic technologies.

Til insoniyatning eng murakkab va fundamental ixtirolaridan biri bo‘lib, u nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur, madaniyat va ijtimoiy aloqalarning asosini tashkil etadi. XXI asrga kelib, globallashuv, raqamli texnologiyalar va fanlararo integratsiya tilshunoslik oldiga yangi, misli ko‘rilmagan vazifalarni qo‘ymoqda. An’anaviy tilshunoslikka yangi yo‘nalishlar, jumladan, kognitiv, kompyuter va korpus tilshunosligi qo‘shilmoqda. Ushbu tezis zamonaviy tilshunoslikning eng muhim muammolarini ko‘rib chiqish, uning hozirgi rivojlanish bosqichini tahlil qilish va kelajakdagi imkoniyatlarini belgilashni maqsad qilgan.

Kognitiv tilshunoslik tilni inson tafakkuri, idroki va ongining bir qismi sifatida o‘rganuvchi eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biridir. U tilning faqatgina grammatik qoidalar va lug‘at yig‘indisi emas, balki insonning dunyoni qanday tushunishi va tasniflashi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Bu yo‘nalish semantika, pragmatika, metafora va metonimiya kabi hodisalarni chuqur tahlil qilib, tilning kognitiv modellarga asoslanganligini ko‘rsatadi. Psixolingvistika va neyrolingvistika bilan birgalikda kognitiv tilshunoslik tilni o‘rganish jarayonlari, miyadagi til markazlari faoliyati va til buzilishlarining sabablarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa tilni o‘qitish metodikalarini takomillashtirish va nutq terapiyasini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli asr tilshunoslik sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Kompyuter tilshunosligi, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari tilshunoslarga ulkan hajmdagi matn korpuslari bilan ishlash, til hodisalarini miqdoriy tahlil qilish va til modellarini yaratish imkonini bermoqda. Mashina tarjimasi, nutqni aniqlash, matn sintezi va chat-botlar kabi ilovalar tilshunoslik tadqiqotlarining amaliy natijalaridir. Bu soha nafaqat tilning tuzilishi va ishlatilishini chuqurroq tushunishga yordam beradi, balki jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish, jumladan, axborotni qayta ishlash, ta’lim va madaniyat almashinuvini yaxshilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli tilshunoslik, ayniqsa, kam sonli tillarni saqlash va rivojlantirish uchun yangi vositalar taklif etadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslik doimiy ravishda rivojlanib borayotgan, fanlararo yondashuvlarni talab qiladigan murakkab sohadir. Kognitiv tilshunoslik inson tafakkuri va til o‘rtasidagi nozik bog‘liqlikni ochib bersa, raqamli tilshunoslik tilni o‘rganish va undan foydalanishda yangi ufqlarni ochmoqda. Globallashuv sharoitida tillarning o‘zaro ta’siri va ko‘p tillilik muammolari ham dolzarbligicha qolmoqda. Kelajakda tilshunoslik fanining rivojlanishi nafaqat tilning o‘zini chuqurroq tushunishga, balki insoniyatning kommunikativ va kognitiv qobiliyatlarini takomillashtirishga, yangi texnologiyalarni yaratishga va madaniy xilma-xillikni saqlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Langacker, R. W. (2008). Cognitive Grammar: A Basic Introduction. Oxford University Press.
2. Chomsky, N. (1995). The Minimalist Program. MIT Press.
3. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2009). Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition. Prentice Hall.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
5. Karimov, S. (2021). O'zbek Tilshunosligining Zamonaviy Muammolari. Fan nashriyoti.

INTEGRATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES INTO THE LANGUAGE LEARNING PROCESS

Sadullaeva Sarvinoz
1st year student, Faculty of Languages, NSU

Abstract: This article examines the integration of information and communication technologies (ICT) into the language learning process. The study focuses on the role of ICT in improving the effectiveness of language education, increasing student motivation, and supporting independent learning. It also discusses major advantages of ICT, such as access to authentic materials, distance learning opportunities, interactive teaching methods, and the development of communication skills. At the same time, the article identifies several challenges, including inadequate technological infrastructure, insufficient teacher training, and student distraction during lessons. The findings suggest that ICT has become an essential component of modern language education and has strong potential to further transform teaching and learning through emerging technologies such as artificial intelligence and virtual reality.

Keywords: information and communication technologies, language learning, digital education, educational technology, ICT integration, online learning

Аннотация: В данной статье рассматривается интеграция информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в процесс обучения языкам. Основное внимание уделяется роли ИКТ в повышении эффективности языкового образования, усилении мотивации обучающихся и развитии навыков самостоятельного обучения. Также анализируются основные преимущества использования ИКТ, такие как доступ к аутентичным материалам, возможности дистанционного обучения, интерактивные методы преподавания и развитие коммуникативных навыков. Наряду с этим в статье выделяются и некоторые трудности, включая недостаточную техническую инфраструктуру, нехватку подготовки преподавателей и отвлекающие факторы во время занятий. Результаты показывают, что ИКТ стали важной частью современного языкового образования и обладают значительным потенциалом для дальнейшей трансформации процесса обучения благодаря таким новым технологиям, как искусственный интеллект и виртуальная реальность.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, изучение языков, цифровое образование, образовательные технологии, интеграция ИКТ, онлайн-обучение

In the modern world, information and communication technologies (ICT) play an increasingly important role in almost every sphere of life, including education. The rapid development of digital tools has significantly influenced the methods and strategies used in language teaching and learning. Traditional classroom practices are no longer the only means of language instruction, as ICT now provides learners and teachers with access to a wide variety of resources and interactive opportunities.

The integration of ICT into language education has introduced new possibilities for improving the quality of teaching and learning. Through the use of the internet, multimedia tools, online platforms, and communication applications, students can practice listening, speaking, reading, and writing skills more effectively. ICT also enables learners to access authentic materials and communicate in real-life contexts, which contributes to both language proficiency and cultural awareness. **[1;78]**

The purpose of this article is to analyze the role of ICT in language learning, identify its main advantages, discuss the challenges of its integration, and consider future prospects for the development of digital language education.

This article is based on a descriptive and analytical approach. Relevant theoretical literature on ICT in language learning was reviewed in order to examine the educational value of digital technologies. The study draws on the analysis of scholarly works devoted to computer-assisted language learning, modern teaching methods, and the practical application of educational technologies in language classrooms. **[4;145]**

The collected materials were organized into thematic categories, including the role of ICT in language education, its benefits for learners, the challenges of implementation, and possible future developments. This method made it possible to present a structured overview of the issue and identify the main tendencies in the integration of ICT into language learning.

The analysis shows that ICT has a positive impact on language learning in several important ways.

First, ICT improves access to authentic language materials such as videos, podcasts, articles, and online publications. These resources help learners study language in real-life contexts and develop a better understanding of the culture associated with the target language. **[3;46]**

Second, ICT supports distance learning and provides flexible learning opportunities. By using learning management systems, mobile applications, and video conferencing platforms, students can study from different locations and continue learning beyond the traditional classroom.

Third, ICT increases student motivation and engagement. Interactive tasks, multimedia presentations, quizzes, and game-based learning elements make lessons more attractive and enjoyable. As a result, students become more active participants in the learning process. **[2;67]**

Fourth, ICT encourages independent learning. Online dictionaries, educational platforms, and self-study applications allow students to manage their own pace of learning and practice language skills outside the classroom.

Zarmed Universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz tili grammatikasini o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Zamonaviy ta’lim jarayonida an’anaviy metodlar bilan bir qatorda o‘quvchiga yo‘naltirilgan interaktiv yondashuvlar til o‘rganish sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda interaktiv metodlarning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi hamda ularning o‘quvchilarning grammatik va kommunikativ kompetensiyasiga ta’siri tahlil qilinadi. Natijalar interaktiv metodlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishi va grammatik bilimlarni amaliy qo‘llashni kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: grammatika, interaktiv usullar, kommunikativ yondashuv, ta’lim tizimi, an’anaviy metod, nutqiy kompetensiya

Annotation. This article examines the effectiveness of interactive methods in teaching English grammar. In modern education, along with traditional approaches, student-centered interactive techniques play a significant role in improving language learning quality. The study analyzes the theoretical foundations and practical implementation of interactive grammar teaching and its impact on learners’ grammatical and communicative competence. The findings indicate that interactive methods enhance students’ motivation, participation, and ability to apply grammar in real communication.

Key words: grammar, interactive methods, communicative approach, education system, traditional method, speech competence

Grammatika chet tilini, jumladan ingliz tilini o‘rganishda asosiy tarkibiy qism hisoblanadi. Grammatik bilimlarsiz samarali muloqot qilish qiyinlashadi. Til o‘rgatishda grammatika nafaqat qoidalar majmui, balki mazmunli nutqni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi [1].

An’anaviy ta’lim tizimida grammatika asosan qoidalarni tushuntirish va yozma mashqlar orqali o‘qitilgan. Bunday yondashuv nazariy bilim berishga xizmat qilsa-da, o‘quvchilarning og‘zaki nutqida grammatik tuzilmalarni erkin qo‘llashiga har doim ham imkon bermaydi [2].

Shu bois, zamonaviy metodikada interaktiv usullar muhim o‘rin egallamoqda. Interaktiv yondashuv o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘rib, uning mustaqil fikrlashi va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan [3].

Tadqiqotning maqsadi — ingliz tili grammatikasini o‘qitishda interaktiv usullarning samaradorligini aniqlash va ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini tahlil qilishdir.

- Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:
- ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv;
- interaktiv dars metodlarini amaliy qo‘llash;
- taqqoslash va umumlashtirish.

Interaktiv metodlar sifatida juftlikda ishlash (pair work), guruhli ishlar (group work), rolli o‘yinlar (role play), bahs-munozaralar (discussion), o‘yin texnologiyalari va muammoli vaziyatlar qo‘llanildi.

Mazkur metodlar o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti va faol ishtirokini ta’minlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlardan foydalanilgan darslarda:

- o‘quvchilarning nutqiy faolligi oshdi;
- grammatik qoidalarni amaliy qo‘llash ko‘nikmasi mustahkamlandi;
- tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalari rivojlandi;
- darsga qiziqish va motivatsiya kuchaydi.

Juftlik va guruhli ishlarda o‘quvchilar grammatik tuzilmalarni real muloqotda qo‘llash imkoniga ega bo‘ldilar [3]. Rolli o‘yinlar real hayotiy vaziyatlarni modellashtirib, grammatik bilimlarni tabiiy nutq jarayonida qo‘llashga yordam berdi [1].

Natijalar shuni tasdiqladiki, interaktiv yondashuv an’anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq hisoblanadi.

Interaktiv usullar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi [2]. Shu bilan birga, interaktiv metodlarni qo‘llash jarayonida ayrim muammolar kuzatilishi mumkin:

- katta guruhlarda tashkil etish qiyinligi;
- vaqt taqsimotining murakkabligi;
- o‘qituvchining metodik tajribasi yetarli emasligi.

Biroq to‘g‘ri rejalashtirish, dars vaqtini samarali taqsimlash va o‘qituvchilarning malakasini oshirish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin.

Umuman olganda, interaktiv metodlar grammatika o‘qitishda nazariy bilimni amaliy nutq bilan uyg‘unlashtiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

Ingliz tili grammatikasini interaktiv usullar orqali o‘qitish zamonaviy ta’lim talablariga mos keladi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning grammatika bilimlarini mustahkamlab, ularni real muloqotda qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, ular o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va dars jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harmer, J. (2007). How to Teach English (2nd ed.). Longman.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
3. Scrivener, J. (2011). Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching (3rd ed.). Macmillan Education.

O‘ZBEK TILIDAGI INGLIZCHA BORROWINGSLARNING USLUBIY QATLAMGA TA’SIRI: NEYTRAL, NOSTANDART VA KOLLEKVIAL BIRLIKLAR

Abdullayeva Madinaxon Alisher qizi
Farg‘ona davlat universiteti, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan o‘zlashma birliklarning uslubiy qatlamga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda inglizcha borrowingslarning zamonaviy o‘zbek tilidagi funksional xususiyatlari, ayniqsa neytral, nostandart va kollekvial nutqda qo‘llanishi masalalari o‘rganiladi. Tadqiqot materiali sifatida ommaviy axborot vositalari, internet matnlari, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar hamda yoshlar nutqi namunalaridan foydalanildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inglizcha o‘zlashmalar nafaqat o‘zbek tilining lug‘at tarkibini boyitmoqda, balki uning uslubiy tizimida ham yangi qatlamlarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa internet va raqamli kommunikatsiya muhiti inglizcha birliklarning faol qo‘llanishini tezlashtirmoqda. Tadqiqot natijalari inglizcha borrowingslarning o‘zbek tilida turli uslubiy vazifalarni bajarishini va ularning til tizimidagi o‘rni tobora mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma so‘zlar, inglizcha borrowings, uslubiy qatlam, kollekvial nutq, nostandart leksika, internet tili, globallashuv.

Аннотация: В статье рассматривается влияние английских заимствований на стилистические слои узбекского языка. Особое внимание уделяется функционированию английских лексических единиц в нейтральной, нестандартной и разговорной речи. В качестве материала исследования были использованы тексты средств массовой информации, интернет-коммуникации, социальные сети и примеры молодежной речи. Анализ показывает, что английские заимствования не только обогащают лексическую систему узбекского языка, но и способствуют формированию новых стилистических оттенков и функциональных особенностей. Особенно активно такие единицы используются в интернет-дискурсе и разговорной коммуникации, где они выступают маркерами современности, глобальной культуры и коммуникативной эффективности.

Ключевые слова: заимствования, английские заимствования, стилистический слой, разговорная речь, нестандартная лексика, глобализация, интернет-коммуникация.

Kirish. Globallashuv jarayoni zamonaviy jamiyatning barcha sohalariga, jumladan til tizimiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa ingliz tilining xalqaro kommunikatsiya vositasi sifatida keng tarqalishi boshqa tillarning lug‘at tarkibiga inglizcha leksik birliklarning kirib kelishini tezlashtirmoqda. Bu jarayon lingvistik adabiyotlarda til kontaktlari natijasida yuzaga keladigan tabiiy hodisa sifatida izohlanadi. O‘zbek

tili ham dunyo tillari bilan faol aloqada bo‘lganligi sababli turli davrlarda arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan o‘zlashma birliklarni qabul qilgan. Hozirgi davrda esa ingliz tilining ta’siri ayniqsa kuchayib bormoqda. Ingliz tilidan kirib kelayotgan birliklar ko‘pincha yangi ilmiy, texnologik, iqtisodiy yoki madaniy tushunchalarni ifodalash zarurati bilan bog‘liq holda paydo bo‘ladi. Masalan, axborot texnologiyalari, biznes, marketing, media va internet kommunikatsiyasi bilan bog‘liq ko‘plab terminlar ingliz tilidan o‘zlashgan. Bunday birliklar dastlab ma’lum bir professional yoki ilmiy sohada ishlatilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan ular keng omma nutqiga ham kirib bormoqda. Tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘zlashma so‘zlarning til tizimiga kirib kelishi nafaqat leksik boyish jarayoni, balki uslubiy o‘zgarishlarni ham yuzaga keltiradi. Chunki har bir yangi birlik tilning ma’lum bir kommunikativ vazifasini bajaradi va muayyan nutq uslubida faol ishlatiladi. Shu sababli inglizcha borrowingslarning o‘zbek tilidagi uslubiy qatlamlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, onlayn media va raqamli kommunikatsiya vositalari yoshlar nutqida inglizcha birliklarning keng qo‘llanishiga sabab bo‘ldi. Bu jarayon natijasida o‘zbek tilida yangi nostandart va kollekvial birliklar paydo bo‘lmoqda. Masalan, “post qo‘ymoq”, “like bosmoq”, “chatlashmoq”, “trend bo‘lmoq” kabi gibrid shakllar tilning yangi kommunikativ imkoniyatlarini namoyon etadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi inglizcha borrowingslarning o‘zbek tilidagi uslubiy qatlamga ta’sirini tahlil qilish va ularning neytral, nostandart hamda kollekvial nutqda qanday funksiyani bajarishini aniqlashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot davomida zamonaviy tilshunoslikda qo‘llaniladigan bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, deskriptiv metod yordamida o‘zbek tilida ishlatilayotgan inglizcha borrowingslarning umumiy tavsifi berildi va ularning qo‘llanish doirasi aniqlashtirildi. Ushbu metod til birliklarini tabiiy nutq jarayonida kuzatish va ularning funksional xususiyatlarini tasvirlash imkonini beradi. Shuningdek, kontekstual tahlil usuli yordamida inglizcha o‘zlashma birliklarning turli nutq uslublaridagi funksiyasi o‘rganildi. Bu jarayonda so‘zlarning matn ichidagi semantik va stilistik vazifalari aniqlashtirildi. Masalan, ayrim birliklar rasmiy matnlarda termin sifatida ishlatilsa, boshqalari kundalik so‘zlashuv nutqida ekspressiv vosita sifatida namoyon bo‘lishi kuzatildi. Tadqiqot uchun empirik material sifatida O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari matnlari, internet portallari, bloglar, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar hamda yoshlar nutqi namunalaridan foydalanildi. Ayniqsa Telegram, Instagram va boshqa ijtimoiy platformalardagi til birliklari tadqiqot uchun muhim material bo‘lib xizmat qildi. Bundan tashqari, qiyosiy tahlil usuli yordamida inglizcha borrowingslarning o‘zbek tilidagi muqobil birliklar bilan munosabati o‘rganildi. Bu usul orqali o‘zlashma so‘zlarning til tizimida qanchalik mustahkam o‘rnashib borayotgani aniqlashtirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari inglizcha borrowingslar o‘zbek tilining uslubiy tizimida turli funksiyalarni bajarishini ko‘rsatdi. Avvalo, ayrim inglizcha birliklar vaqt o‘tishi bilan tilning neytral qatlamiga kirib bormoqda. Bunday birliklar rasmiy matnlarda, ilmiy ishlarda va kundalik nutqda bir xil darajada ishlatiladi. Masalan, “internet”, “marketing”, “biznes”, “kompyuter”, “online” kabi so‘zlar bugungi kunda o‘zbek tilida keng tarqalgan va deyarli neytral leksika sifatida qabul qilinmoqda. Boshqa tomondan, inglizcha borrowingslarning muhim qismi nostandart leksika sifatida ishlatiladi. Bu turdagi birliklar ko‘pincha yoshlar nutqi va internet kommunikatsiyasida uchraydi. Masalan, “like bosmoq”, “post qo‘ymoq”, “chatlashmoq”, “follow qilmoq” kabi iboralar ingliz va o‘zbek elementlarining kombinatsiyasi asosida hosil bo‘lgan gibrid birliklardir. Bunday birliklar tilning ijodiy rivojlanishini aks ettiradi va zamonaviy kommunikatsiya ehtiyojlarini qondiradi. Kollekvial nutqda esa inglizcha borrowingslar ko‘pincha ekspressiv yoki stilistik effekt yaratish uchun ishlatiladi. Masalan, “deadline”, “trend”, “challenge”, “startup” kabi birliklar ko‘pincha yoshlar nutqida yoki media matnlarida uchraydi. Bu birliklar kommunikativ jarayonda zamonaviylik, global madaniyatga yaqinlik yoki innovatsion fikrlashni ifodalovchi belgi sifatida xizmat qiladi.

Muhokama. Inglizcha borrowingslarning o‘zbek tilidagi faol qo‘llanishi til tizimining tabiiy rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Tarixiy jihatdan qaraganda ham o‘zbek tili turli davrlarda boshqa tillardan ko‘plab o‘zlashma birliklarni qabul qilgan. Masalan, arab va fors tillaridan kirib kelgan ko‘plab so‘zlar bugungi kunda o‘zbek tilining ajralmas qismiga aylangan. Xuddi shunday jarayon hozir ingliz tilining ta’siri bilan ham kuzatilmoqda. Biroq bu jarayonning o‘ziga xos jihati shundaki, inglizcha borrowingslar ko‘pincha texnologiya va raqamli kommunikatsiya bilan bog‘liq holda kirib kelmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali inglizcha birliklar juda tez tarqalmoqda va tilning kundalik nutq qatlamiga kirib bormoqda. Biroq tilshunoslar orasida bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari haqida turli fikrlar mavjud. Bir tomondan, inglizcha borrowingslar yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi va tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan esa, ularning haddan tashqari ko‘payishi milliy tilning o‘ziga xos xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi haqida ham fikrlar

bildiriladi. Shu sababli inglizcha borrowingslarning o‘zbek tilida me’yoriy va stilistik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanishini o‘rganish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari inglizcha borrowingslar zamonaviy o‘zbek tilining uslubiy tizimida muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatdi. Ular tilning lug‘at boyligini kengaytirish bilan birga, uning stilistik qatlamlarida ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Inglizcha o‘zlashmalar o‘zbek tilida turli uslubiy funksiyalarni bajaradi. Ayrim birliklar neytral leksika sifatida ishlatilsa, boshqalari nostandart yoki kollekvial nutqda ekspressiv vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa internet kommunikatsiyasi inglizcha borrowingslarning keng tarqalishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Kelajakda inglizcha o‘zlashmalarning semantik rivojlanishi, grammatik moslashuvi va uslubiy differensiasiyasini chuqurroq o‘rganish zarur. Bunday tadqiqotlar o‘zbek tilining zamonaviy rivojlanish jarayonini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crystal D. English as a Global Language. Cambridge University Press, 2003.
2. Haspelmath M., Tadmor U. Loanwords in the World's Languages. De Gruyter, 2009.
3. Weinreich U. Languages in Contact. New York, 1953.
4. Yule G. The Study of Language. Cambridge University Press, 2010.
5. Mahmudov N. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 2013.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2006.
7. Rasulov R. O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlar masalasi. Toshkent, 2018.

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA SHAXS TASNIFINING SUBSTANSIAL XUSUSIYATLARI

Abdunasimova Noila Mansurovna
Zarmed Universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Mirzayeva Nargiza Sirojidinovna
Zarmed universiteti assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida tilning antropotsentrik paradigmadagi tadqiqida inson bosh omildir. Inson til egasi, til tashuvchi, tildagi shaxs, so‘zlovchi, tinglovchi, adresant, adresat mavqelarida fanning antropologik yo‘sinda rivojlangan sotsiolingvistika, pragmalingvistika, psixolingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, lingvopersonologiya, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, ekolingvistika kabi tarmoqlarda ustuvorlashgan. Inson sotsiallashuvi mahsuli sifatida shaxs tilda “lisoniy shaxs” kategoriyasining ilmiy tadqiqini kuchaytirdi. Zotan, tildagi shaxsning sotsiolingvistik, pragmalingvistik, lingvomadaniy, lingvopersonologik tadqiqida tildagi shaxsning yangi qirralari ochilmoqda. Shaxs kategoriyasining lisoniy, nutqiy, kommunikativ, pragmatik, sotsial, madaniy, uslubiy qirralari lingvistik konsepsiyalar birlashuvidagi tadqiqida yorqin va yaxlit ifodalanadi. Shaxs kategoriyasi leksik, morfologik, sintaktik sath birliklarida aks etadi. Shaxsning so‘z birikmalaridagi ifodasida lisoniy, sintaktik, nominativ, onomastik, sotsial, pragmatik aspektlar birlashuvi substansial, sotsiolingvistik va pragmalingvistik nazariyalar kesishuvida tadqiq etishni taqozo etadi. Dunyo tilshunosligida “shaxs” lingvistik kategoriyasining antropotsentrik, lisoniy tizimdagi in’ikosi sistemaviy, struktural, semantik, diskursiv, derivatsion tadqiqi natijasida tahlil usullari va metodikasi, nazariy asoslari shakllangan. Til fanining nazariy bosqichdan amaliy bosqichga o‘tishi global taraqqiyot va umuminsoniy ehtiyojlar belgilagan ijtimoiy zaruriyatdir. Tilning muloqot, nutqiy vaziyatlar, nutqiy harakatlarda faollashuvini sotsial kontekstda baholash shaxs omili yetakchi bo‘lgan sotsiolingvistik va pragmalingvistik tadqiqotlarni kuchaytirdi. Binobarin, shaxs tavsifining so‘z birikmalarida ifodalanishi substansial, sotsiolingvistik, pragmalingvistik ilmiy asoslar va usullarning integratsiyasida tadqiq etishni taqozo etadi.

Kalit so’zlar: til, shaxs otlari, antropologik usul, sotseolingvistika, substansiya, lingvopragmatika, kishi ismlari

Kirish. Tilshunoslikda “shaxs” asosiy ilmiy tushuncha sifatida tilning barcha vazifalarini amalga oshirish va mavjud imkoniyatlarini nutqda ro‘yobga chiqarishda faol qatnashadi. Lingvistik terminlik maqomi, qamrovi, ixtisoslashuvini terminologik mazmuni va izohlari yanada aniq ko‘rsatadi. Shaxs yakka va birikmali shaklda to‘rt xil terminologik ma’nosi asosida qo‘llanadi: Shaxs. Grammatikadagi uch shaxs: so‘zlovchi, tinglovchi, o‘zga. Shaxs nomlari. Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusini bildiruvchi otlar: Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov. Shaxs otlari. Shaxslarning yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko‘ra nomlanishi:

samarqandlik, hokim, o'qituvchi, duradgor, amma. Amaki, tog'a, jiyan kabi. Shaxs otli birikmalar. Shaxs oti va kishi nomlarining o‘zaro birikishi: zargar Dostonjon, Sirojiddin bog'bon, Abdurahim sartarosh,Anzirat tikuvchi, Salim etikdo'z". Lingvistikada "shaxs" tushunchasi ilmiy paradigmalardan o‘rin olishiga, shaxs (inson) ilmiy tadqiq usuli, mezoni, ilmiy yondashuvlar vektorini belgilovchi lingvistik kategoriyaga aylanishiga zamin yaratdi. Uning lingvistik in'ikos kategoriyasida yetakchiligi "inson – so‘zlovchi shaxs sifatida ham, o‘zi so‘z yuritayotgan olamning bosh ijrochisi sifatida ham tilning markaziy figurasi" ekanligi bilan izohlanadi. Lisoniy faoliyat negizida inson yoki shaxs turgan lingvistik konsepsiya ilmiy asoslari E.Benvenist, V.V.Vinogradov, Y.S.Stepanov, G.A.Zolotovaning ishlarida berilgan. Shaxs o‘zi mansub millat tili, shuningdek, ma'lum madaniy mentallik va voqelikni individual idrok etishining usuli o‘z "tili"ning egasidir. U insonning mental, ichki olami, aqliy saviyasi aks etgan "lisoniy shaxs" ko'rinishida namoyon bo‘ladi. Tilda inson va olam munosabati, lisoniy shaxs ruhiyati, ichki kechinmalari, maqsad va intilishlari, orzu-istaklarini ifodalash vositalari, ularning vazifasi va o‘rnini aniqlash uchun juda muhim hisoblanadi. XXI asrda global taraqqiyot shaxs manfaatdorligiga ustuvorlik berganligi jadal rivojlanayotgan antropotsentrik nazariyalar va tilning antropotsentrik paradigmadagi tadqiqlari misolida ham anglasah mumkin. D.Niyazovaning e'tirofiga ko‘ra, "Dunyo tilshunosligida nutq tuzuvchi va nutqni idrok etuvchi shaxs tushunchasi talqinida yangi nazariy qarashlarning yuzaga kelishi bu muammoni o‘rganuvchi soha – lingvopersonologiyaning shakllanishiga turtki bergan" va "insonga tildan shunchaki foydalanuvchi shaxs sifatida emas, bu jarayonda til orqali o‘z shaxsiy sifatlarini namoyon etuvchi, unga milliy-madaniy, etnik belgilarni singdiruvchi, tilni saqlovchi va kelajak avlodlarga uzatuvchi lisoniy shaxs sifatida qarash lingvopersonologiyaning alohida paradigma sifatida ajralib chiqishiga zamin yaratgan". Hozirgi kunda "lisoniy shaxs" kategorial maqomga ega. Tildagi "shaxs"ni anglatishi pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kommunikativ lingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiyada asosiy termin sifatida qo‘llanilishiga asos bo‘lgan. Lingvistik sohalarda keng qo‘llanayotgan "lisoniy shaxs", "kommunikativ shaxs", "so‘zlovchi", "til shaxsi" singari maxsus leksik birliklar "shaxs" tushunchasini yaxlit ifodalasa ham, terminologik ma'nosi, muayyan semantik xususiyatiga ko‘ra farq qiladi. Ushbu bobning "Shaxs" ma'nosining leksik ifodasi" deb nomlangan ikkinchi bo‘limida o‘zbek tilida "shaxs" ma'nosining lug‘aviy birliklarda ifodalanishi masalasi tahlil qilindi: tilning shaxsni atash vazifasining "shaxs" ma'noli leksik birliklarda namoyon bo‘lishi, "shaxs tavsifi" lug‘aviy mavzuviy to‘dasi va uni tashkil qiluvchi shaxs otlari, shaxsni tavsiflash imkoniyatlari xususida fikr yuritildi.

Tilda shaxsni nomlash, tavsiflash imkoniyatlari, usullari va vositalari bo‘lib, "Shaxs" tushunchasini shaxsni atash vazifasiga xoslangan til birliklari sifatida, birinchi navbatda, shaxs nomlari, ilmiy muomalada keng qo‘llanuvchi shaxs otlari, ya'ni "shaxsni atab, uning ma'lum bir belgi-xususiyatlariga ishora etuvchi so‘zlar" ifodalaydi. O‘zbek tilida shaxs otlari muayyan ot tarkibiga kiruvchi "shaxs nomi" deb atalmish lug‘aviy mavzuviy to‘da sifatida alohida ajratiladi. "Shaxs nomi" mavzuviy to‘dasi yigit, chol, o‘zbek, tojik, cho‘loq, kasal, ota, ona kabi leksemalarni birlashtirishi1 ma'lum. O‘zbek tilida "shaxs" ma'noli leksik birliklar "shaxs tavsifi" lug‘aviy mavzuviy to‘dasi tarkibiga kiradi. Ushbu to‘daning "shaxsni atovchi" elementi sifatida shaxsni nomlash yoki tavsiflash vazifasini bajaradi. "Shaxs" tushunchasi yaxlit shakl va mazmunga ega bo‘lgan "shaxs" semali leksik birliklar shaxs nomlari yoki shaxs otlari deyiladi. Shaxsni atovchi leksik birliklar "shaxs nomi" integral semali mavzuviy to‘da tarkibida oldindan tayyor bo‘ladi. Shaxs nomlari alohida lug‘aviy mavzuviy to‘dani tashkil qilishi va 12 xil lug‘aviy mavzuviy guruhni o‘z ichiga olishi B.Mengliyev, M.Abuzalova , M.Narziyeva qarashlari asosida belgilandi.

Ko‘p hollarda "harakatni bajaruvchi shaxs", ya'ni ismi foillar shaxs otlari bilan chalkashtirib yuboriladi. Chunki "harakat bajaruvchisi" (ish-harakat bajaruvchisi – egani emas,) "shaxs" ma'nosini o‘z ichiga olgani uchun shaxs otlariga o‘xshaydi. Ularning farqli jihatlari lison-nutq qarama-qarshiligida aniqlanib, "shaxs" ma'nosi va tavsifi leksik, morfologik, so‘z yasalishi sathlarida ifodalanishi ilmiy dalillangan. Bu masalaga e'tibor qaratilishiga sabab bo‘lgan ikki asos: 1) "ismi foillarda nutqiy taraqqiyot natijasida ixtisoslashish yuz berib, ular shaxs otlariga qarab rivojlanishi" va shaxs otlari paradigmasidan o‘rin olishi; 2)"shaxs" konsepti bilan assotsiativ bog‘lanuvchi birliklar ichida shaxs otlari va ismi foillar muhim o‘rin tutishi"dir. Shaxs otlari va ismi foillarning aloqadorligi "shaxs" konsepti asosida ilmiy yechimini topadi.

O‘zbek tilshunosligida "shaxs" tushunchasi leksik sathda lug‘aviy birliklar, morfologik sathda ot turkumi doirasida o‘rganilib, sistemaviy, struktural, substansial tadqiq yo‘nalishlarida muayyan natijalarga erishilgan bo‘lishiga qaramay, "shaxs" konsept sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan, lisoniy, konseptual talqini to‘liq shakllanmagan. "Shaxs" tushunchasi kognitiv, umuman, atropolingvistik aspektlarda chuqur va atroflicha tahlil qilinishi zarur.) borki, shaxs otlarining atoqli otlar bilan sintaktik munosabatidan yuzaga keladi. Shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining bu turiga quyidagi hosilalar kiradi: Shokir juvozkash, temirchi Jo‘ra, Miroqil paxtafurush, general Rahimov, Fazliddin me'mor, akademik Abdurahmonov,

Jabbor rais, Hikmat buva, Mengnor momo, Hakima aya, Sobir tog‘a, Ra’no opa, Azamat aka (v.h.). Antroponimlar (aksariyat holda kishi ismi, familiyasini anglatuvchi birliklar)

tobe yoki hokim vaziyatda reallashuvini tasdiqlovchi bu so‘z birikmalari alohida guruhni tashkil etadi. Shunga ko‘ra, bu guruhni shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari sirasida antroponim shakllantiruvchi guruh sifatida ajratish mumkin. Bu guruhga oid so‘z birikmalari ham tilning shaxsni atash va muayyan xususiyatiga ko‘ra tavsiflash vazifasini nutqda ro‘yobga chiqishi bilan amalga oshiradi. Otlarga xos lisoniy imkoniyatlardan biri shaxs otlari va atoqli ot (antroponim)larning sintaktik aloqasi asosida voqelanar ekan, shaxs otlarining atoqli otlarni biriktirish va ularga birikish qobiliyatlarini namoyon etadi.

Boshqacha aytganda, o‘zbek tilida shaxsni tavsiflovchi ot leksemalarning atoqli otlar, ya’ni kishi ismi, ota ismi, familiyasini anglatgan leksemalar bilan tobelanishidan hosil bo‘ladigan hamda kommunikativ maqsad va nutqiy ehtiyojdan paydo bo‘ladigan so‘z birikmalari mavjud. Bunday so‘z birikmalarining tarkibida kishi ismi, ota ismi, familiyasini atovchi leksemalar goh tobe, goh hokim vaziyatda voqelana oladi. Antroponim shakllantiruvchi so‘z birikmalari nutqiy muloqot yoki nutq sharoitida fikr qaratilgan shaxsning boshqalardan farqlanuvchi xususiyatlarini ta’kidlash, o‘ziga xosligini ifodalash, umuman, shaxsni muayyan belgilari asosida atash maqsadida keng iste’molda bo‘ladi. Zero, antroponimlar so‘z birikmalari shaklida shaxsni aniq ifodalaydi. Aslida, Shokir ismli erkak Shokir juvozkash yoki Hakima ismli ayol Hakima aya tarzida qayta nomlangandek tuyuladi. Demak, muayyan ism egasini qanday xususiyatga egaligini ko‘rsatish ko‘p hollarda, kishi ismi uning shaxsi haqida to‘liq tushuncha bera olmaydigan nutqiy vaziyatlarda shaxsni qayta nomlashni taqozo etadi. Mohiyatan qayta nomlashga teng jarayon – nutqda antroponimlar va shaxs otlari birikuvida namoyon bo‘ladi. Aniqroq aytsak, temirchi Jo‘ra, Miroqil paxtafurush, general Rahimov, akademik Abdurahmonov, Jabbor rais, Xolmat buva, Mengnor momo, Sobir tog‘a tipidagi so‘z birikmalarida shaxs haqidagi tushuncha torayib, muayyan ism (familiya) egasi to‘g‘risidagi axborot aniqlashadi.

O‘zbek tili sintaksisining struktural, substansial tadqiqi ilmiy asoslari va tahlil usullari asosida shaxs otlarining o‘zaro va kishi nomlari bilan birikuvlarini umumlashtirgan sintaktik qoliplar keltirib chiqarildi. So‘z birikmasi va gaplarni hosil qiluvchi lisoniy sintaktik qolip mohiyatan riyoziy tenglamaga o‘xshab ketadi va u ikki qismdan iborat: tenglik belgisidan chap tomon va bu belgidan o‘ng

tomon. Masalan, suvchi yigit ва qo‘shni ayol birikmalarida tobe-hokimlik munosabatini yuzaga chiqarayotgan shaxsni kasbi, yoshi, yaqinlik munosabati va jinsiga ko‘ra tavsiflovchi ot leksemalar ham birikadi.

XULOSA

1.Til, inson, jamiyat chambarchas bog‘langan. Inson til mavjudligi va taraqqiyotining bosh omili, shu bois tilni insondan ajratib, o‘rganib bo‘lmaydi. Tildan foydalanuvchi ham, til jamiyati yuksalishini namoyon qiluvchi ham insondir. U so‘zlovchi, tinglovchi, axborotni qabul qiluvchi va yetkazuvchi, umuman, til egasi.

2. Shaxs falsafiy nuqtayi nazardan “inson tushunchasining yuksak ko‘rinishi, oliy maqomi”; ongli faoliyat va munosabatlar subyekti, odam individi; sotsial xususiyatlarning barqaror majmuyidir. “Shaxs”– insonga xos barcha xususiyatlarni qamrab oladigan murakkab, serqatlam tushuncha va ilmiy termin. “Shaxs” fenomenini “individ”, “individuallik” ochib beradi. Uning ko‘pqirraliligi fanlararo maqomi va turli aspektlarda talqin qilinishini belgilaydi. Nutqda “shaxs” tushunchasini ifodalash ehtiyoji “shaxs” ma’noli til birliklarini faollashtiradi. Shaxsni anglatuvchi leksik, morfologik, sintaktik birliklar zaxirasidan nutqiy ehtiyojga muvofiqlari tanlanadi. Tilda shaxsni anglatuvchi birliklar turli sathlar va lisoniy tabiatiga mos paradigmalarda “yashaydi” va shaxsni nomlash, tavsiflash imkoniyatlari, usullari shu vazifaga xoslangan birliklar orqali namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.O.A. Leonovich, In English names world (Astrel, Moscow, 2002)

2. A.A. Zivoglyadov, Semantic-stylistic potential English onomastics (Philol. Science, Moscow, 1987)

3. E.A. Begmatov, Anthroponymics of the Uzbek language (“Fan” publishing house of Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, 2013)

4. L.B. Boyko, Bulletin of the Baltic Federal University named after I. Kant 2, 13-21 (2013)

5. N.V. Usova, Proper name as a phenomenon of linguoculture (Philol. Science, Moscow, 2019)

7. V.V. Krasnyx, Etnophyscolinguistics and linguo culture (The course lecture. ITDGK, Gnozis, Moscow, 2002)

8. S.E. Kenjaeva, Semantic and sociological analysis of Uzbek anthroponyms (Tashkent, 2011)

CURRENT ISSUES IN CONTEMPORARY LINGUISTICS

Mamasharifova Shohina
Student of Zarmed University
Scientific advisor: Jumanova Shohista

ABSTRACT. Language, with its ever-evolving nature and intricate link to human experience, presents a dynamic landscape for both linguists and pedagogists. As technologies transform communication, societies become more diverse, and educational approaches shift, both fields are adapting and facing new challenges. This article explores some of the most significant current issues in linguistics and pedagogy, highlighting their complexities and possible solutions.

KEYWORDS: Linguistics, language change, globalization, digital communication, multilingualism, sociolinguistics, language technology, endangered languages, communication, modern linguistics.

Contemporary linguistics focuses on several important issues such as language change, multilingualism, language technology, and the influence of globalization on communication. One of the major challenges is understanding how digital communication and artificial intelligence affect language structure and usage. Linguists also study language preservation, especially endangered languages, and analyze how social, cultural, and technological factors shape modern communication.

Language plays a crucial role in connecting people across cultures. Globalization has increased the need for effective communication skills, making language learning more important than ever. Languages open access to knowledge, information, and technology, providing individuals with broader opportunities in life.

This study uses qualitative analysis and a review of linguistic literature. Information was collected from academic articles, books, and online linguistic resources. The method focuses on analyzing modern linguistic phenomena such as digital communication, multilingualism, and language change.

The analysis identifies several important issues in contemporary linguistics. First, globalization increases contact between languages and leads to borrowing of new words. Second, digital communication—especially through social media—creates new forms of language such as abbreviations, emojis, and internet slang. Third, many languages are endangered, making language preservation a key concern for linguists.

The challenges faced by linguists and pedagogists are interconnected. Collaboration between these fields is essential for developing effective solutions. Linguistics provides a deeper understanding of language systems, while pedagogy offers insights into practical language use.

The findings show that language is constantly evolving. Technology and globalization play a major role in shaping modern linguistic trends. Linguists must continue studying these changes to better understand communication in different societies. Additionally, protecting endangered languages is necessary to preserve cultural diversity and heritage.

In conclusion, current issues in linguistics and pedagogy present both challenges and opportunities. By adopting innovative approaches and fostering collaboration, linguists and educators can ensure that language remains a powerful tool for communication, understanding, and cultural expression.

Improving communicative competence in language teaching requires a balanced approach that integrates modern technologies with traditional methods. Continuous research, critical thinking, and lifelong learning are essential for addressing the evolving needs of language users.

REFERENCES

1. Chomsky, N. (2002). Syntactic Structures. Berlin: Mouton de Gruyter.
2. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Yule, G. (2010). The Study of Language. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Wardhaugh, R., & Fuller, J. M. (2015). An Introduction to Sociolinguistics. Oxford: Wiley-Blackwell.
5. UNESCO. (2011). Atlas of the World's Languages in Danger. Paris: UNESCO Publishing.

ARCHITECTURAL TERMINOLOGY IN MODERN GERMAN: LINGUISTIC FEATURES AND CHALLENGES IN PROFESSIONAL COMMUNICATION

Nazarboyeva N.L.
Student of Navoi state university

Abstract. The rapid development of architecture and construction technologies has led to the expansion of specialized terminology in many languages, including German. Architectural discourse requires precise vocabulary, structured descriptions, and professional communication skills. This study investigates the linguistic characteristics of modern German architectural terminology and analyzes challenges faced by learners and professionals when using this vocabulary. The research applies descriptive and comparative methods to examine lexical, morphological, and semantic features of architectural terms in German. The findings demonstrate that German architectural terminology is characterized by compound nouns, borrowing from English, and high semantic precision. The study highlights the importance of integrating domain-specific vocabulary into foreign language instruction for architecture students. The results contribute to improving professional communication and linguistic competence in German for architectural purposes.

Аннотация. Быстрое развитие архитектурных и строительных технологий привело к расширению специализированной терминологии во многих языках, включая немецкий. Архитектурный дискурс требует точной лексики, структурированных описаний и навыков профессионального общения. Данное исследование рассматривает лингвистические особенности современной немецкой архитектурной терминологии и анализирует трудности, с которыми сталкиваются учащиеся и специалисты при использовании данной лексики. В исследовании применяются описательный и сравнительный методы для изучения лексических, морфологических и семантических особенностей архитектурных терминов немецкого языка. Результаты показывают, что немецкая архитектурная терминология характеризуется сложными составными существительными, заимствованиями из английского языка и высокой семантической точностью. В работе подчеркивается важность интеграции профессионально-ориентированной терминологии в преподавание иностранного языка для студентов архитектурных специальностей. Полученные результаты способствуют развитию профессиональной коммуникации и формированию лингвистической компетенции в немецком языке для архитектурных целей.

Modern linguistics increasingly focuses on language for specific purposes, especially professional communication in technical fields. Architecture is one such domain where accurate terminology plays a crucial role. German is widely used in engineering, architecture, and construction industries, making it important for students and professionals to understand specialized vocabulary.

Architectural texts in German include complex compound words, technical descriptions, and discipline-specific expressions. These linguistic features often create difficulties for foreign language learners. Therefore, studying German architectural terminology is essential for improving professional communication skills.

The purpose of this study is to analyze linguistic features of architectural terminology in modern German and identify challenges in understanding and using these terms. The research also aims to highlight the role of terminology in professional discourse.

Methodology. This research uses qualitative linguistic analysis of German architectural texts, textbooks, and professional materials. The data includes architectural descriptions, technical documents, and academic sources in German.

The following methods were applied: descriptive linguistic analysis, lexical-semantic analysis, comparative method, terminology classification

The study examines compound nouns, borrowed terms, abbreviations, and semantic structures used in German architectural discourse.

Results. The analysis revealed several important linguistic features of German architectural terminology. First, compound nouns are highly productive in architectural German. Examples include:

Gebäudeplanung (building planning)

Tragwerkskonstruktion (structural construction)

Raumgestaltung (space design)

Bauaufsichtsbehörde (construction supervisory authority)

Second, English borrowings are increasingly common in modern architectural discourse: Design, Layout

Masterplan, Rendering, Smart building

Third, German architectural terms demonstrate high semantic precision. Many terms reflect functional and structural meaning. For example: Grundriss (floor plan), Fassadengestaltung (facade design), Tragende Wand (load-bearing wall)

Additionally, long compound structures create comprehension difficulties for learners. Students often struggle with word segmentation and meaning interpretation.

Discussion. The findings indicate that German architectural terminology reflects both traditional linguistic structures and modern technological influence. Compound nouns provide semantic clarity but increase linguistic complexity. Borrowings from English show globalization in architecture and design communication.

These linguistic characteristics create challenges for students learning German for architectural purposes. Teaching strategies should include terminology analysis, word formation practice, and contextual learning.

Integrating professional vocabulary into language instruction improves students' communicative competence. Visual materials such as architectural drawings also support vocabulary acquisition.

Conclusion. German architectural terminology plays a significant role in professional communication. The study shows that compound nouns, borrowings, and semantic precision characterize modern architectural German. These features both enrich vocabulary and create learning challenges.

The research highlights the importance of teaching domain-specific terminology for architecture students. Developing linguistic competence in professional vocabulary enhances communication and academic success. Future research may focus on comparative analysis of architectural terminology across languages.

REFERENCES

1. Schmitt, R. (2010). Fachsprachen und Fachkommunikation. Berlin: Erich Schmidt Verlag.
2. Roelcke, T. (2014). Fachsprachen. Berlin: Erich Schmidt Verlag.
3. Fluck, H. R. (1996). Fachsprachen: Einführung und Bibliographie. Tübingen: Francke.
4. Hoffmann, L. (1998). Kommunikationsmittel Fachsprache. Berlin: Akademie Verlag.
5. Möhn, D., & Pelka, R. (2013). Fachsprachen: Eine Einführung. Tübingen: Niemeyer.

TEACHING ENGLISH THROUGH METHODS: INTERACTIVE TEACHING METHODS IN ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

Saparova Sarvinoz
Faculty of Philology and Language Teaching, English Language Department
Zarmed University, 1st year
Scientific Supervisor: Shamsiyeva Gulzoda
Teacher, English Language Department, Zarmed University

Abstract. The importance of interactive teaching techniques in English as a Foreign Languages (EFL) classes is examined in this article. It emphasizes how engagement-driven strategies, such role-plays, group projects, and technology-assisted instruction, improve student`s motivation and communication skills. They study highlights the transforming impact of interaction in fostering critical thinking, cultural awareness and language competency. It provides useful insights for educators who want to design dynamic, student-centered learning environments.

Key words: Student engagement, role-play activities, group-based learning, interactive education, communicative skill development.

Introduction: In the rapidly evolving field of language education, traditional teacher-centered approaches are increasingly complemented by interactive teaching methods that place learners at the heart of the learning process. Particularly in English as a Foreign Language(EFL) settings, where exposure to authentic communication is limited, interactive strategies such as group discussions ,problem-solving tasks and digital language tools provide meaningful contexts for practice. These methods foster active engagement, simulate critical thinking and develop practical communication skills that extend beyond the classroom .This paper examines the various interactive teaching approaches in EFL, their theoretical

underpinnings and the pedagogical benefits they bring aiming to offer practical guidance for educators seeking to cultivate motivated ,confident and linguistically competent learners.

In today`s English as a Foreign Language (EFL) classrooms, interactive teaching methods are an effective way to engage students and improve language skills. This study investigated the use of role-playing, small-group projects, peer-led exercises and technology-assisted tasks, such as language learning applications and online collaborative tools, to generate authentic communication situations (Ellis, 2017).These tactics were chosen to actively engage students in practicing English outside of standard lecture-based training. Task-based and collaborative activities enable learners to negotiate meaning and use language purposefully, which is essential for communicative competence development (Ellis, 2017; Nunan,2025). Furthermore, interactive methods help to create a psychologically conducive learning environment. Student`s desire to speak in traditional classrooms is typically limited by their fear of making mistakes. However, interactive exercises accept mistakes as a natural part of the learning process, fostering exploration and risk-taking in language use. As a result students feel more comfortable expressing their thought, asking questions and engaging in discussions, which is critical for improving speaking fluency and communicative competence (Thornbury,2017).

A mixed-methods research design was used to assess the effectiveness of these interactive tactics. Quantitative data were gathered by pre and post-tests that assessed speaking fluency, vocabulary memory and participation. Qualitative data were collected through classroom observations, student reflections and semi-structured interviews with a focus on motivation, confidence and autonomy. Another advantage of interactive teaching approaches in EFL classes is their capacity to accommodate learners` various learning styles and individual variations. Students learn languages at different rates and using diverse tactics; hence, interactive activities like pair work, group discussions and technology-based assignments allow students to participate based on their abilities. This inclusive strategy helps low-proficiency learners while also challenging more advanced students, resulting in balanced classroom interaction and enhanced learner confidence (Brown, 2020).

The result revealed significant improvements in a variety of categories. Students that participated in role-playing and group projects displayed improved speaking accuracy, a greater ability to negotiate meaning and stronger collaboration skills (Thornbury,2017).Technology-supported assignments enabled students to practice independently ,reinforcing vocabulary and grammar while increasing engagement. Reflections and interviews revealed that students felt more comfortable expressing their opinions and appreciated taking an active role in their education. Furthermore, exposure to cultural conversations and realistic materials increased intercultural understanding and students for real-world communication.

(Warschauer and Kern,2000).

Interactive instruction also reshapes the role of the teacher in the EFL classroom. Rather than acting solely as a knowledge provider, the teacher functions as a facilitator, guide and organizer of learning experiences. This shift promotes learner autonomy and responsibility, as students take a more active role in constructing their own knowledge through collaboration and reflection (Harmer,2018;Nunan,2015). Moreover, integrating digital technologies into interactive instruction increases exposure to real language use .Online platforms, language learning apps and collaborative technology allow students to practice English outside of the classroom and interact with real-world information. Such technology-supported engagement not only enhances linguistic accuracy but also develops intercultural awareness, preparing learners for communication in global circumstances. (Warschauer and Kern,2000; Ellis,2017).

The study confirms that interactive teaching methods foster a dynamic and supportive learning environment that meets the needs of modern EFL learners. Therefore, educators are encouraged to incorporate interactive techniques into their teaching practices to promote effective language acquisition and prepare students for real-world communication in English.

Conclusion. Interactive teaching methods play a vital role in enhancing English language learning in EFL classrooms. By emphasizing student engagement through role-plays, group projects, peer-led activities, and technology-assisted tasks, these approaches foster communicative competence, critical thinking, and cultural awareness. Interactive methods create a supportive learning environment where students feel confident to express themselves, take risks, and actively participate in their own learning. Furthermore, they accommodate diverse learning styles, promote collaboration, and encourage learner autonomy.

The study demonstrates that when teachers act as facilitators rather than sole knowledge providers, and integrate interactive strategies effectively, students achieve higher motivation, improved language skills, and greater readiness for real-world communication. Therefore, educators are strongly encouraged

to adopt interactive teaching approaches to cultivate dynamic, student-centered classrooms that prepare learners for success in English communication.

REFERENCES:

1.Brown,H.D.(2020).Teaching by principles: an interactive approach to language Pedagogy(5th ed). Pearson Education.

2.Ellis,R.(2017). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.

3.Harmer,J.(2018). The practice of English language teaching (5th ed). Pearson Education.

4.Nunan,D.(2015). Practical English language teaching. McGraw-Hill Education.

5.Thornbury,S.(2017). How to teach Speaking. Pearson Education .

6.Warschauer,M. and Kern,R.(2000).Network-based language teaching: Consepts and practice. Cambridge University Press.

RAQAMLI MULOQOT TIZIMIDA YANGI SO‘ZLARNING SHAKLLANISHI: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI QIYOSIDA

Normamatova Zebiniso Farxod qizi
Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Khudoykulov Otabek Bohodir o‘gli
Zarmed universiteti, Xorijiy filologiya kafedrasi Assistent o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu tadqiqot raqamli muloqot tizimida yangi so‘zlarning shakllanish jarayonini ingliz va o‘zbek tillari nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi, tilning dinamikasini o'zgartirib, yangi so'zlarni yaratish jarayonini tezlashtirmoqda. Ushbu ishda, yangi so'zlarning kelib chiqishi, ularning semantik va morfologik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Maqsadimiz, ingliz va o‘zbek tillaridagi yangi leksik birliklarni taqqoslash va ularning tilshunoslikdagi ahamiyatini belgilashdir.

Kalit so‘zlar: *raqamli muloqot, yangi so‘zlar, tilshunoslik, taqqoslash.*

Raqamli muloqot tizimlarining jadal rivojlanishi, insonlar o'rtasidagi muloqotni yangi formatda taqdim etadi. Internet va axborot texnologiyalari zamonida, tilning o'zgarishi, yangi so'zlar va iboralar paydo bo'lishi, tilning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqot, raqamli muloqot orqali yangi so'zlarning shakllanishini ingliz va o‘zbek tillari misolida o'rganishga qaratilgan. Maqsadimiz, ushbu jarayonni chuqur tahlil qilish va tilshunoslikda yangi leksik birliklarning rolini aniqlashdir. Shuningdek, yangi so'zlar qanday qilib muloqotda faol qo'llanilayotganini, ularning semantik va morfologik xususiyatlarini o'rganish hamda ikki til o'rtasidagi farqlarni ko'rsatishdir. Tadqiqotda, ingliz va o‘zbek tillaridagi yangi so'zlarning shakllanish jarayonlari, ularning madaniyat va muloqotga ta'siri ham ko'rib chiqiladi.

Yangi so‘zlarning shakllanish jarayoni tilshunoslikda qiziqarli va muhim masalalardan biridir. Raqamli muloqot tizimlari orqali, so'zlar tezkor va dinamik ravishda shakllanmoqda. Ingliz tilida, yangi so'zlar ko'pincha internet madaniyati, texnologiya va ijtimoiy tarmoqlar orqali paydo bo'ladi. Masalan, 'selfie', 'hashtag', va 'viral' kabi so'zlar, raqamli kommunikatsiya orqali keng tarqalgan. O‘zbek tilida esa, yangi so'zlar ko'pincha ingliz tilidan qabul qilinadi yoki o'ziga xos morfologik tuzilmalarga ega bo'ladi. Bunday so'zlar o'zbek tilida qanday kontekstdan kelib chiqishi va ularning qabul qilinishi jarayoni o'rganilishi zarur. Yangi so'zlarning shakllanishi, faqat leksik birliklar emas, balki ularning semantik xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, yangi so'zlar orqali til va madaniyat o'rtasidagi aloqani ko'rish mumkin. Ushbu bo'limda, yangi so'zlarning shakllanish jarayoni, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida yangi so'zlarning paydo bo'lish jarayonlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tilida yangi so'zlar ko'pincha xalqaro kontekstda paydo bo'ladi va barcha tillarga kirib keladi. Bu jarayon, ingliz tilini global til sifatida qabul qilish orqali amalga oshadi. O'zbek tilida esa, yangi so'zlar ko'pincha milliy va madaniy kontekstda shakllanadi. O'zbek tilida yangi so'zlar yaratishda, morfologik o'zgarishlar, so'z birikmalari va sinonimlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu bo'limda ingliz va o‘zbek tillaridagi yangi so'zlar o'rtasidagi farqlar, ularning kelib chiqish manbalari va qabul qilinishi jarayonlari o'rganiladi. Shuningdek, yangi so'zlar orqali tilning rivojlanishini va madaniyatning o'zgarishini ko'rish

imkoniyatini taqdim etamiz. Yangi so'zlarning leksik mazmuni va ularning kommunikativ afzalliklari ham muhokama qilinadi.

Ushbu tadqiqot raqamli muloqot tizimida yangi so‘zlarning shakllanishi va ularning ingliz va o‘zbek tillarida qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli muhit yangi so'zlar yaratish jarayonini tezlashtirmoqda va bu jarayon ikki til o'rtasidagi farqlarni yanada oshirishga olib kelmoqda. Yangi so'zlar, nafaqat tilning rivojlanishiga, balki madaniyat va muloqotga ham ta'sir etadi. Tadqiqot davomida, yangi so'zlarning shakllanishi va qabul qilinishi jarayonlari, shuningdek, ularning tilshunoslikdagi ahamiyati haqida muhim xulosalar chiqarildi. Umuman olganda, raqamli muloqot tizimlari orqali yangi so'zlar, tilning doimiy rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimova, N. Raqamli muloqot va tilshunoslik. Tashkent: O‘zbekiston Madaniyati, 2021.
2. Karimov, A. Yangi so'zlar va ularning semantikasi. Tashkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Jones, M. Language in the Digital Age. London: Routledge, 2019.
4. Qodirov, M. Til va madaniyat o'rtasidagi bog'lanish. Tashkent: O‘zbekiston Noshirlik, 2022.
5. Smith, J. New Words and Communication. New York: Academic Press, 2023.

THE BENEFITS OF LEARNING LANGUAGES

Gulsevar Xushbokova
Student of Zarmed University
Mirzayeva Nargiza Sirojidinovna
Assistant teacher of Zarmed University

ABSTRACT: In the context of an increasingly globalized and interconnected world, the learning of foreign languages has evolved into a widespread and indispensable practice. It is true that language acquisition, like any intellectually demanding endeavor, offers a multitude of substantial benefits. The mastery of additional languages provides individuals with access to diverse opportunities across academic, social, and professional spheres. In particular, multilingualism has been shown to contribute significantly to cognitive development by enhancing memory capacity, analytical thinking, and advanced problem-solving skills. Moreover, language learning plays a pivotal role in fostering academic excellence, broadening social and cultural sensitivity, and promoting intercultural competence. From a professional standpoint, proficiency in foreign languages substantially increases employability and career mobility in an increasingly competitive global labor market. Drawing upon established research findings, this article aims to critically examine and elucidate the principal advantages of language learning in modern society.

Key words: foreign languages, language acquisition, professional spheres, cognitive development, language learning, intercultural competence.

More than half the world’s population is bilingual (Grosjean & Li, 2013;) As Bentz et al. (2018) mention, there are more than 7000 languages around the globe, and a person has several options to learn different languages and select an appropriate language to acquire its benefits. “Learning a new language can be immensely helpful for cognitive health, particularly as we age. This is because language learning engages a wide range of complex cognitive abilities, including memory, attention, and problem-solving, which can help to create and strengthen connections in the brain,” explains Dr. Roy Hamilton, MD, trustee of the McKnight Brain Research Foundation. According to psychotherapist Kristie Tse, LMHC, clinical director and founder of Uncover Mental Health Counseling, “Learning a new language has profound benefits for brain health. It encourages the brain to be flexible and adaptable, as it requires quick thinking and problem-solving skills to comprehend and construct new sentences.” (Kendra Cherry, Learning a New Language is Hard, But Your Brain Will Thank You)

Bilingualism has been associated with various benefits, including enhanced cognitive (e.g., Adesope et al., 2010; Barac et al., 2016., Yurtsevar et al.,2023) and linguistic skills (e.g., Bialystok et al., 2014; Hirosh & Degani, 2018). Building on this, a growing body of research suggests that bilingualism may also facilitate foreign language learning. Several studies reported that Two-language speakers outperform their monolingual peers in acquiring a foreign language across various domains including vocabulary, grammar, and narrative skills (e.g., Hofer & Jessner, 2019; Hopp et al., 2019; Kopeckova, 2018; Maluch et al., 2015, 2016; Maluch & Kempert, 2017; Nguyen & Winsler, 2021; Rauch et al, 2012; Schwarts et al, 2007; Soto –

Corominas et al 2025; Tribushinina and Boz, 2025). A component of literacy common to all languages is the of making meaning from texts. Readers must learn to combine a number of strategies in order to do this: using their knowledge of the world, skimming, making inferences, contextual guessing of words, etc. These skills are common to literacy in all language, and are transferable from one language to another (e.g. Baker 2006)

Languages are a collection of sentences, grammar, vocabulary, and structure. However, learning a second language means controlling the grammar complexity and knowing many words of the language structure (Mohammed & Thabit, 2015). Language learning promotes greater concentration and cognitive control. In a study published in the journal Development Science, researchers found that bilingual children demonstrated better performance on tasks involving attention and cognitive control compared to single-language speakers. Bilingual children showed enhanced abilities in tasks that required resolving conflicting focus-regulatory demands (Bialystok, E., Martin, M., & Viswanathan, M. (2005)).

Language is a vehicle for understanding culture (Byram and Michael., 2014, Ramírez-Esparza et al., 2020). Cultural sensitivity in language learning promotes respect and empathy towards speakers of English as a second or foreign language (Seidhofer, 2011). Global mindset gained traction in education, especially in English-speaking regions, during the 1980s and 1990s. it's not just about languages; it stems from a broader shift in human and social sciences towards acknowledging cultural differences. This shift, often termed the 'cultural turn', highlighted the importance of understanding and appreciating diverse cultures, whether national, ethnic, social, regional, or institutional. Underpinning of cultural awareness lies the idea of reflexivity. This means recognizing how insights into other cultures shape our understanding of ourselves and our identity. In education, cultural awareness finds its place across different subjects like geography, social studies, and history. It's not solely about knowing facts; it's about grasping the significance of cultural differences and historical contexts. (Mateusz Wiacek, Cultural Awareness in Language Learning).

Schools play a pivotal role in promoting students' intercultural awareness and competence, and engagement in global issues (Byram, 1997). Cultural diversity is a defining characteristic of language classrooms, with learners representing a broad spectrum of linguistic and cultural backgrounds (Seidhofer, 2011). Embracing this diversity is crucial for fostering inclusive and effective language learning environments (Gay, 2010).

In today's business landscape, language skills are essential. Being multilingual can set you apart, especially in roles that involve client relations, diplomacy, or international collaboration. Companies are increasingly on the lookout for individuals who can communicate effectively across cultures, as this skill is crucial for building trust and rapport.

Speaking someone's language goes beyond just communication; it shows a level of commitment and empathy that fosters stronger working relationships. This is vital in international projects where understanding cultural context can lead to better teamwork and outcomes. Language learning is a journey that enriches our lives and connects us with the world. Whether for personal growth, career advancement, or simply out of curiosity, each new word and phrase brings us closer to a more connected, empathetic global community. Embracing multilingualism means embracing the richness and diversity of our world—and that's an investment worth making (Dillon Wilkinson, November 3, 2024, How Language Learning Builds Global Connections in Today's World). In our digital age, the ability to connect with people from around the world has never been easier. Social media platforms, online forums, and virtual communities provide opportunities to interact with individuals from different linguistic backgrounds. Learning a foreign language enhances these interactions, allowing for more meaningful and effective communication. It fosters international friendships, professional networks, and collaborative projects, bridging geographical and cultural divides (Wang, 2023).

Language programs can help students become fluent in a new language, especially in today's job market where second-language proficiency is in demand. Whether through a language school or self-directed learning, language programs can serve as a gateway to long-term career satisfaction in the business world.

According to Dr. Tracy Brower in Forbes, around 40 % of multilingual employees said that their foreign language skills helped them find a job more than monolingual speakers.

Many international companies or smaller companies with global clients highly value employees who can facilitate communication with international clients by speaking, reading, or writing another language. Being proficient in one or more foreign languages makes you an asset to a company, especially if that organization has a global reach and wants to pursue business opportunities in other countries.

Speaking more than one language can set you apart from other candidates. Certain positions, such as translators and interpreters, may have their language skills reflected in their compensation – sometimes

resulting in a significant pay raise for employees fluent in high – demand languages. Also, international companies with diverse customers often pay more to employees who can communicate effectively using different languages. According to Workforce Essentials, some bilingual employees earn 5-20 % higher pay than monolingual speakers. (Dr. Karolina Kopczynski. Career Benefits of Learning a Foreign Language for Students. 04/07/2025).

Language instructors in 2023 have a variety of teaching approaches at their disposal to include in their repertoire. Each method has evolved over time, influenced by linguistic theories, pedagogical approaches, cultural events and technological advancements. In the pursuit of effective language instruction, 8 popular methods have emerged over the years, each emphasizing different aspects of language learning and catering to diverse learner needs.

- Communicative language teaching
- The direct method
- Task-Based Language Teaching (TBLT)
- Audio-Lingual Method
- Total Physical Response (TPR)
- Grammar translation method
- Content and Language Integrated Learning (CLIL)
- The Silent Way

Each of the above approaches has its own pros and cons, and no one method is universally regarded as superior to the others in all teaching contexts. Modern language instruction involves an 'eclectic approach', a combination of methods, tailored to learners' proficiency levels, specific learning objectives and cultural backgrounds. Through video communication tools, these methods are being adapted to online teaching settings (Nestor Kiourtzidis, 8 common language teaching methods, November 29. 2023)

Just as everything has its advantages and disadvantages, learning a language also has both benefits and drawbacks. Language learning fatigue strikes when you feel overwhelmed or stuck when learning a language, leading to mental and emotional exhaustion. It can happen when the amount of effort you're putting in and the level of progress you're seeing become unbalanced. Over time this can lead to building listlessness and, eventually, language learning fatigue. This fatigue can manifest in several ways, such as a lack of motivation to continue, frustration with difficult concepts, and a general sense of disinterest (Jonny, How to Overcome Language Fatigue: 5 TIPS). Learning a new language is a significant endeavor that challenges nearly everyone who attempts to do so. Fortunately, there are tools and strategies to speed up the learning process (Elaina Giolando, 5 Tips to Overcome Language Barriers). For optimal language learning, it's important to fuel your body with the right nutrients. Eating a balanced diet rich in fruits, vegetables, proteins, and healthy fats can provide sustained energy throughout the day (Luca Lampariello)

Take Breaks: Pause your learning or speaking sessions regularly to let your brain recharge.

Change Your Approach: Switch between activities – listening, speaking, reading, or writing – to keep it interesting and prevent burnout.

Set Realistic Goals: Break your learning into small, manageable steps and celebrate every little win.

Engage in Relaxing Activities: Meditate, breath, or go for a walk to relieve mental pressure and refresh your mind.

Practice in Low-Stress Settings: Chat with friends, join language exchange groups, or use language apps in a relaxed environment where mistakes are okay. Get Enough Sleep and Exercise: Both are crucial for keeping your brain in top shape for learning. (Anamika Mahajan, Language fatigue is real, October 08. 2024)

CONCLUSION. Learning new things is good for your brain, and experts suggest that learning a new language, in particular, can have numerous important benefits for your cognitive functioning and health. Dr. Hamilton recommends managing your expectations as an adult language learner.

"Language learning is a gradual process," he says, "and embracing mistakes as part of the learning journey and staying motivated through setting achievable goals can make the experience both effective and enjoyable. (Kendra Cherry, MSEd.)

REFERENCES

1. Grosjean, F., & Li, P. (2013). *The Psycholinguistics of Bilingualism*. Oxford: Wiley-Blackwell.

2. Bentz, C., et al. (2018). Language evolution and complexity.

3. Cherry, K. (n.d.). *Learning a New Language Is Hard, But Your Brain Will Thank You*.
4. Adesope, O. O., et al. (2010). Cognitive benefits of bilingualism.
5. Barac, R., et al. (2016). The cognitive development of bilingual children.
6. Yurtsevar, E. (2023). Multilingualism and learning outcomes.
7. Bialystok, E., et al. (2014). Bilingualism and cognitive control.
8. Hirosh, Z., & Degani, T. (2018). Cross-language influence in bilinguals.

KOREYS VA O‘ZBEK NUTQ FAOLIYATLARIDA MAQOLLARNING TUTGAN O‘RNI

Muxiddinova Fariza Nuriddinovna
Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi, 2-kurs talabasi
Ramazonova Mahzuna
Zarmed Universiteti, Assistant-o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys va o’zbek maqollari xalq og’zaki ijodining Paremiologiya sohasi bo’yicha o’rganiladi hamda maqollarning nutq faoliyatidagi tutgan o’rni tahlil qilinadi. Maqollarni o’rganish natijasida esa ikki xalq madaniyatidagi o’xshash va farqli jihatlari o’rganildi.

Kalit so‘zlar: maqol, nutqiy faoliyat, koreys maqollari, o’zbek maqollari, qiyosiy tahlil, ma’no

Abstract. In this article, Korean and Uzbek proverbs within the field of Paremiology and analyzes their role in folk oral literature. As a result of the proverbs, similar and different aspects of the cultures were explored.

Key Words: proverb, speech activity, korean proverb, uzbek proverb, comparative analysis, meaning.

Maqol-bu xalq og’zaki ijodining qanchalik boy tarixga ega ekanligini ko’rsatib turuvchi vosita bo’lib qolmaygina, balki nutq bezagi ham hisoblanadi. Maqollar xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini, qadr-qimmatini va o’ziga xos qarashlarini namoyon etuvchi vosita sanaladi. Barchamizga ma’lumki, maqol bu uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan va ota-bobolarimiz ko’rgan kechirgan voqea hodisalari asosida yuzaga kelgan hamda bu xalq orasida “Otalar so’zi” deya tanilgan.

Paremiologiya- so’zi grekchada “paranomia”-hikmat, va “logos” ta’limot so’zlaridan olingan bo’lib bir tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni o’rganuvchi tilshunoslik sohasi sanaladi.Ya’ni ma’lum bir xalqning turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamiyatda bo’lgan munosabatlarini, kuzatishlarini va tajribalarga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi bo’lim sanaladi. Paremiologiya-bu maqollar, matallar, va hikmatli so’zlarni o’rganuvchi tilshunoslik bo’limi. Paremilogiyada fikr aniq, tugal xulosa, lo’nda hukm tarzida ifodalanadi hamda muayyan fikrni mantiqiy izchilikda yetakchilik qiladi va o’z va ko’chma ma’nolarda qo’llanish xususiyatiga ega.Yevropa tilshunosligida XVIII asrning boshlarida German paremiografi W.Wander Yevropa xalqlariga oid 250,000 dan ortiq bo’lgan maqollarni o’z ichiga olgan 5 ta kitobdan iborat paremiologik lug’atni yaratadi.Bularning ichida eng mashhur tadqiqotchilardan biri A.Taylor o’zining 223 sahifadan iborat “The proverb” asarida maqollarni turlicha tahlil qilgan. Shu bilan birgalikda,V.I.Dal paremiyani “o’qimishlilar so’zi” deb ataydi.Paremalar ko’proq pand-nasihat usulida yozilgan bo’lib qadimda cherkovlarda ishlatiluvchi parema so’zi 1970-yildan boshlab tilshunoslikda “Paremiologiya” termin sifatida kirib keladi.[1,33]. Tarixda biz Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy ijodi bilan tanishar ekanmiz maqol deb atalmish dono va hikmatli so’zlarga duch kelamiz. “Oz-oz o’rganib dono bo’lur, qatra-qatra yig’ilib daryo bo’lur” kabi misollar shular jumlasidandir.

Xalq maqollariga murojaat etganda, ulardagi tarixiylikni hisobga olish lozim. Chunki bugungi kunda nutqimizda ishlatayotgan maqollarning ko’pchiligi o’tmishda yaratilganligi bilan xalq psixologiyasi, dunyoqarashdagi cheklanganliklar va ziddiyatlar aniq ifodasini topgan. Masalan o’zbek xalq maqollaridan biri “Boy boyga boqar, Suv soyga boqar” maqolasi jamiyatninhg qaysi davrida qanday sinf vakillari tomonidan aytilganligini anglash bir qarashda qiyin. Agar maqol mehnatkash xalqning nutqida qo’llangan bo’lsa u shu sinf manfaatlariga xizmat qilishi mumkin. Yoki koreys maqollaridan “*가는 말이 고와야 오는 말도 곱다*” maqolini ko’rib chiqsak maqolning tarjimasi-“boradigan gap chiroyli bo’lsa keladigan gap ham chiroyli bo’ladi”. O’zbekcha muqobil variant esa “Salomga yarasha alik olasan”Agar tarjimadan kelib chiqadigan bo’lsak maqol uzoq o’tmishda yaratilganligiga shubha

yo’q. Chunki unda ishlatilgan “*곱다*“so’zi “chiroyli” Choson davri qo’lyozmalarida ham uchrovchi eski so’z sanaladi. Haqiqatdan ham maqollar turli ijtimoiy-siyosiy mnosabatlarini, xalqning etik va estetik normalarini obyektiv baholaydi. Mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko’raman” deyishi ham fikrlarni tamoman tasdiqlay oladi.

Demak maqollardagi sinfiy funksiya ularning nutqda qo’llanishiga qarab belgilanadi. Ammo maqollar qaysi davrda yaratilishidan qat’iy nazar ular nutqqa qarab faollashishi mumkin. Ijtimoiy hayotdagi o’zgarish bilan shartlangan holda maqollar mazmunidagi turli darajadagi o’zgarishlar-torayish va kengayishlar yuz beradi. Mana shu faktning o‘ziyoq maqolning jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan bevosita bog’lanishda ekanligini ko‘rsatadi.[9] Maqollar tuzilishiga ko’ra bir va bir necha sintaktik butunliklar asosida tashkil topgan. Bir sintaktik maqoldan iborat bo’lgan bir qismli maqollar ko’pincha darak gap yo’sinida bo’ladi. Aynan shu tomonlari bilan koreys va o’zbek maqollari juda o’xshashdir. Masalan: koreyschada *사공이 많으면 배가 산으로 간다*” – o’zbekchada esa muqobil varianti- “Boshqaruvchi ko’p bolsa,kema toqqa ketadi”.Ko’rib chiqganimizdek, o’zbek va koreys xalq maqollari juda ko‘p xususiyatlari bilan folklorning boshqa janrlaridan keskin farqlanib tursalar ham, ko‘pchilikning ijod mahsuli sifatida, anonim yaratilishi, o‘g’zaki holda jonli yashashi, keng variantlashishi va o‘ta ommaviyligi bilan xalq og’zaki ijodining barcha janrlari bilan umumiylik kasb etadi .Qaysi til, qaysi millatning maqollarini jamlasak ham ular o’zaro o’xshashliklar va sezilarli farqlarini ko’rishimiz mumkin. O’xshashlik tomoni shundaki, tarbiya masalasi qaysi din, qaysi millat bo’lishiga qaramasdan juda o’xshash. Masalan: “*시작이 반이다*”- ko’z qo’rqoq qo’l botir, yoki *호랑이도 제 말하면 온다- “* Bo’rini yo’qlasang qulog’i ko’rinadi”, “*티끌 모아 태산*”- “Toma-toma ko’l bo’lur”

O’zbek tilida 4 komponentli maqollar ham uchrab turadi. Biroq koreys maqollarida esa 4 komponentli maqollar kam uchraydi. “Zamon seni o‘qitar, tayoq bilan so‘kitar”. “Sabog'ingni bilmasang, do‘konda bo‘z to‘qitar[10]”

Maqollar shakliga ko’ra nasriy hamda she’riy ko’rinishda bo’ladi. “*가까운 남이 먼 일가보다 낫다*”- Uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi qo’shni yaxshi hamda “*쇠귀에 경 읽기*” -“Eshakning qulog’iga lag’mon osish” kabi maqollar nasriy tuzilishdagi maqollar sanaladi. A.M.Gorkiy xalq maqollarning roliga yuksak baho bergan edi. “Eng ulug’ donolik so’zning soddaligidir”.Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo`ladi[11]. Ko’plab misollar yordamida keltiradigan bo’lsak masalan: o’zbekchada “Yetti o’lchab bir kes” koreyschada esa “*돌다리도 두들겨 보고 건너라*” *yoki* “*믿는 도끼에 발등 찍힌다*”- “Ishonmagin do’stingga somon tiqar po’stingga”

Bugungi kunda bir narsa yoki holat har ikkala tilda ham mavjud bo’lsa, maqol ko’pincha bir xil ma’no anglatadi. “Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga, yaxshi bilan yursang-yetarsan murodga”, “Sabrning tagi-oltin”, “Mehnat- mehnatning tagi rohat” [1:32] , koreys xalq maqollarida“호랑이굴에가야호랑이를잡는다”,“콩심은데콩나고팥심은데팥난 다 ” va shu kabi maqollarlarni misol sifatida keltirish mumkin deb ta’kidlanadi. Shu o’rinda “Koreys va O’zbek maqollarida xalqning o’tmishidan bugungi kunigacha barcha millatga xos urf-odatlar o’z aksini topgan va xalq og’zaki ijodining nodir namunalari sifatida maqollar va vazifani bajarishda yetakchilik qilib, o’zbek va koreys xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o’rganishda bu ikki xalqning maqollari va bu ikki xalqning o’ziga yarasha o’xshash va farqli tomonlarini ko’rsatib bera oladi” deb ta’kidlab o’tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – T.: Mehnat, –2000. – 398 b.
2. Madayev O., Sobitova T. Xalq og’zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010. – 207b
3. Горький М. Материалы и исследования. T., 1934 . – 146c
4. https;//doi.org/10.52.581/zenodo.7315672/7162578
5. https;//scientific-jl.com/
6. https://journal.fdu.uz
7. https;//zenodo.org

[9] Madayev O., Sobitova T. Xalq og’zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010. – 207b

[10] Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – T.: Mehnat, –2000. – 398b.

[11] Горький М. Материалы и исследования. T., 1934 . – 146c

COMPUTATIONAL PHILOLOGY: USING AI TO ANALYZE ANCIENT TEXTS

Xamrokulova Farangiz Jamshedjonovna
Zarmed Universiteti 1 bosqich talabasi
Scientific advisor: Xushvaxtova Dilbar Abdualim qizi
Teacher of Zarmed University

Abstract. This thesis examines how artificial intelligence is transforming the study of ancient and medieval texts. Machine learning, optical character recognition, and large language models are enabling faster decipherment, large-scale corpus analysis, and new cultural interpretations. At the same time, the paper highlights key methodological risks and argues that human scholarly judgment remains irreplaceable.

Introduction. Philology has traditionally been a slow and painstaking discipline, relying on specialist knowledge of dead languages and years of careful manuscript study. The rise of computational philology over the past three decades has begun to change this. Advances in digitization, optical character recognition (OCR), and, most recently, artificial intelligence have made it possible to analyze ancient texts at a scale and speed that was previously unimaginable [2]. The implications for classical studies, Egyptology, medieval history, and related fields are significant.

From Digitization to Deep Analysis. The foundation of computational philology is digitization. Major libraries worldwide — including the British Library and the Vatican Apostolic Library — have made hundreds of thousands of manuscripts available online. However, digitized images still require transcription before analysis. This is handled by handwritten text recognition (HTR) tools such as the Transkribus platform, which uses neural networks to transcribe historical manuscripts with error rates below five percent after training on as few as fifty sample pages [6]. Projects that once required decades of manual work can now be completed in months.

3. Key AI Techniques in Philological Analysis

3.1 Authorship Attribution

Machine learning has given new power to stylometry — the statistical analysis of writing style. By examining vocabulary, syntax, and function word usage, neural networks can attribute disputed ancient texts to known authors with a high degree of confidence. These methods have been applied to disputed speeches in the Demosthenic corpus, authorship questions in the Book of Isaiah, and texts attributed to Plato [5].

3.2 Large Language Models and Ancient Languages

Large language models (LLMs) such as GPT-4 and Claude have shown surprising capability in translating, parsing, and analyzing ancient languages including Classical Greek, Latin, and Sanskrit. A notable example is DeepMind's Ithaca model (2022), trained to restore damaged ancient Greek inscriptions. When used alongside human experts, it raised scholars' restoration accuracy from 25% to 72% [1].

3.3 Intertextuality and Network Analysis. AI tools have also enabled new approaches to studying how ancient authors quote and respond to one another. The Tesserae project uses computational algorithms to detect allusions across the entire surviving Latin corpus, revealing intertextual connections that centuries of traditional scholarship had missed [3].

4. Decipherment of Unknown Scripts. Some of the most dramatic applications of AI concern undeciphered scripts such as Linear A and the Indus Valley script. Using unsupervised machine learning, researchers have identified structural patterns in unknown scripts without prior knowledge of the underlying language [8]. The Voynich Manuscript has attracted similar computational attention; while it remains undeciphered, AI analysis has confirmed that the text has genuine linguistic structure rather than being random.

5. Limitations and Methodological Concerns. Despite these advances, computational philology faces serious limitations. Training data for ancient languages is scarce and biased — the surviving texts represent only a fraction of what was written, shaped by centuries of selective transmission [7]. There is also the problem of algorithmic opacity: when a model like Ithaca suggests a textual restoration, it cannot explain its reasoning in terms that a scholar can evaluate or challenge. This risk of "black-box philology" makes it essential to treat AI as a tool that supports, rather than replaces, human scholarly judgment [9].

6. Conclusion. Computational philology does not replace traditional humanistic scholarship — it extends it. By combining philological expertise with AI tools, scholars can recover knowledge that would otherwise remain out of reach: restoring damaged texts, mapping intertextual networks, and deciphering unknown scripts. The field is still developing, and its full potential depends on close collaboration between

computer scientists and traditional philologists. As Gregory Crane has argued, the goal is not to automate philology, but to augment it [4].

REFERENCES

1. Assael, Y., et al. (2022). Restoring and attributing ancient texts using deep neural networks. Nature, 603, 1–6.
2. Bamman, D., & Smith, N. A. (2012). Extracting two thousand years of Latin from a million book library. Journal on Computing and Cultural Heritage, 5(1), 85–98.
3. Coffee, N., et al. (2013). The Tesserae Project: Intertextual analysis of Latin poetry. Literary and Linguistic Computing, 28(3), 387–397.
4. Crane, G. (2019). Classics and the computer: An end of the history. In A companion to digital humanities (pp. 1–20). Blackwell.
5. Juola, P. (2015). The Rowling case: A proposed standard analytic protocol for authorship questions. Digital Scholarship in the Humanities, 30, 100–113.
6. Kahle, P., et al. (2017). Transkribus: A service platform for transcription, recognition and retrieval of historical documents. IEEE.
7. Most, G. W. (2016). Philology and the history of classical scholarship. In The Oxford handbook of Hellenic studies (pp. 196–207). Oxford University Press.
8. Snyder, B., Barzilay, R., & Knight, K. (2010). A statistical model for lost language decipherment. Proceedings of ACL (pp. 1–9).
9. Underwood, T. (2019). Distant horizons: Digital evidence and literary change. University of Chicago Press.

RUS TILI DARSLARIDA INTERAKTIV O`YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Ziyodulloyeva Mashhurabonu Ilxomjon Qizi
Navoiy Davlat Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus tili darslarida interaktiv o`yin texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va samaradorligi yoritilgan. Muallif o`z ish faoliyatida qo`llagan “Lays chipslari” va “Bilim savatchasi” kabi didaktik o`yinlar misolida o`quvchilarning lug`at boyligini oshirish va darsga bo`lgan qiziqishini shakllantirish usullarini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari o`yinli metodlarning o`quvchilar xotirasi va nutqiy faolligiga ijobiy ta`sirini ko`rsatadi.

Kalit so`zlar: Interaktiv o`yinlar, rus tili, pedagogik texnologiya, lug`at boyligi, samaradorlik.

Аннотатция. В данной статье рассматриваются преимущества и эффективность использования интерактивных игровых технологий на уроках русского языка. Автор анализирует методы пополнения словарного запаса и формирования интереса к уроку на примере дидактических игр, таких как, «Чипсы Lays» (Lays chipslari) и «Корзинка знаний» (Bilim savatchasi) примененных в собственной практике. Результаты исследования демонстрируют положительное влияние игровых методов на память и речевую активность учащихся.

Ключевые слова: Интерактивные игры, русский язык, педагогическая технология, словарный запас, эффективность.

Abstract. The article examines the advantages and effectiveness of using interactive game technologies in Russian language lessons. On the example of such didactic games as "Lays Chips" and "Knowledge bascet", used by the author in their own teaching practice, methods of increasing students` vocabulary and forming interest in the lesson are analyzed. The research results demonstrate a positive impact of game methods on students` memory and speech activity, contributing to a more effective mastery of the material.

Keywords: Interactive games, Russian language, pedagogical technology, vocabulary, efficiency.

Hozirgi kunda zamonaviy ta`lim tizimida an`anaviy dars o’tish usullaridan voz kechib, interaktiv o`yin texnologiyalariga o`tish dolzarb masalalardan biri bo`lib qolmoqda. Olim Yo`ldoshev J.G`. ta`kidlaganidek, zamonaviy darsning asosiy maqsadi – o`quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil izlovchi va ijodiy fikrlovchi shaxsga aylantirishdir.[1] O`yinli darslar nafaqat o`quvchilar, balki o`qituvchilar uchun ham jarayonni qiziqarli bo`lishini ta`minlaydi. O`quvchi darsda zerikib qolmaydi,

balki o`yin orqali yangi mavzuni mukammalroq va osonroq o`zlashtiradi. Bu usul o`quvchilarning darsga bo`lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi va bilim olish samaradorligini oshiradi.

Pedagog A.V. Konishevning fikricha, o`yinli metodlar o`quvchilarning emotsional holatiga ijobiy ta`sir ko`rsatib tildagi to`siqlarni ( ya`ni uyatchanglikni) yengib o`tishga yordam beradi [2]. O`quvchilarning lug`at boyligini oshirish va diqqatni jamlash maqsadida “Lays chipslari” ko`rinishidagi interaktiv o`yin qo`llaniladi. Bunda o`quvchi qadoq ichidan “chips” (rangli qog`ozdan yasalgan) tanlaydi va undagi so`zning tarjimasini tezkorlik bilan aytishi lozim. Bu usul o`quvchida kutilmaganlik effekti orqali xotirani faollashtiradi va so`zlarni o`yin orqali yod olishni ta`minlaydi. Mavzuni mustahkamlash va grammatik ko`nikmalarni rivojlantirish uchun “ Bilim savatchasi” o`yinidan foydalaniladi. O`quvchilar “sabzi “(ichida savollar yozilgan qog`oz) yordamida “quyonchalar`` (bilim savatini) to`ldiradilar. To`g`ri javob berish orqali o`quvchi muammoni hal qilish ya`ni quyonni ovqatlantirish vazifasini bajaradi, bu esa darsda emotsional ijobiy muhitni yaratadi. O`yinli metodlarning eng katta ustunligi — natijaning darhol ko`rinishidir. O`quvchi javob berishi bilan "quyonchani ovqatlantirishi" yoki "chip"ni yutib olishi uning miyasida muvaffaqiyat hissini uyg`otadi. Bu ilmiy pedagogikada "ijobiy mustahkamlash" (positive reinforcement) deb ataladi. Keyingi darslarda o`quvchi o`sha muvaffaqiyatni qayta his qilish uchun yangi so`zlarni o`z ixtiyori bilan yodlay boshlaydi.

Rus tili darslarida didaktik o`yinlardan foydalanish nafaqat til o`rganish, balki nutqiy muloqot madaniyatini ham shakllantiradi[3]. Bunda o`quvchilar o`yin qoidalari orqali jamoada ishlash va fikrni tezkor bayon qilish ko`nikmalarini o`zlashtiradilar. Tadqiqot natijalari shuni ko`rsatadiki, rus tili darslarida interaktiv o`yinlardan foydalanish o`quvchilarning lug`at boyligini o`zlashtirish darajasini 25-30% ga oshirdi. An`anaviy usulda o`quvchilar yangi so`zlarning 50% qismini eslab qolgan bo`lsa, “Lays chipslari” va “Bilim savatchasi” o`yinlaridan so`ng bu ko`rsatkich 80% ni tashkil etdi. Eng muhimi, o`yin jarayoni darsda passiv o`tirgan va uyatchan o`quvchilarning ham faollashishiga, ularda muloqotga kirishish qo`rquvining yo`qolishiga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, rus tili darslarida interaktiv o`yin texnologiyalaridan, xususan, «Lays chipslari» va «Savat va quyonchalar» kabi didaktik o`yinlardan foydalanish ta`lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. O`tkazilgan tadqiqotlar va dars jarayonidagi kuzatuvlar shuni ko`rsatadiki, bunday metodlar quyidagi muhim natijalarni beradi:

Birinchidan, o`quvchilarda chet tilini o`rganishga bo`lgan ichki motivatsiya va qiziqish ortadi. An`anaviy darslarda kuzatiladigan zerikish va mavzudan chalg`ish holatlari o`yin jarayonida deyarli uchramaydi. Har bir o`quvchi o`zini jarayonning faol ishtirokchisi sifatida his qiladi.

Ikkinchidan, o`yinlar orqali o`rganilgan yangi lug`at boyligi (so`zlar) o`quvchilar xotirasida mustahkamroq va uzoq muddatli saqlanib qoladi. Bu "kutilmaganlik effekti" va ijobiy emotsiyalar bilan bog`liq bo`lib, o`quvchi so`zni shunchaki yodlamaydi, balki uni o`yin kontekstida tushunib yetadi.

Uchinchidan, ushbu metodlar o`quvchilar orasidagi psixologik to`siqlarni (uyatchanlik, xato qilishdan qo`rqish) bartaraf etishga yordam beradi. Erkin muloqot muhiti shakllanadi, bu esa rus tilida gapirish ko`nikmalarining tezroq rivojlanishiga zamin yaratadi.

Xulosa o`rnida ta`kidlash joizki, interaktiv o`yinlar nafaqat rus tili, balki boshqa fanlarni o`qitishda ham samarali vosita bo`la oladi. Kelajakda ushbu metodlarni raqamli texnologiyalar bilan boyitish va dars samaradorligini yanada oshirish bo`yicha izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o`sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Yo`ldoshev J.G`., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 132 b.

(O`zbekistonda zamonaviy dars o`tish metodikasi bo`yicha asosiy qo`llanmalardan biri).

2. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.

(Rus tilini o`qitish metodikasi bo`yicha xalqaro darajadagi eng mashhur lug`at-ma`lumotnoma).

3. Конышева А. В. Игровой метод в обучении иностранному языку. – СПб.: Каро, 2008. – 192 с.

(Aynan chet tili darslarida o`yin metodining samaradorligi haqidagi fundamental kitob).

INGLIZ TILI TALAFFUZINI OSON O‘RGATISH USULLARI

Shuxratova Zargina Sherozovna
Zarmed universiteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezis ingliz tili talaffuzini oson va samarali o‘rgatish usullarini tahlil qiladi. Unda fonetik mashqlar, eshitish orqali o‘rganish (listening), takrorlash (shadowing) hamda zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion metodlarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘rganishda talaffuzni rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: talaffuz, fonetika, shadowing, listening, innovatsion metodlar, ingliz tili

Annotation. This thesis analyzes simple and effective methods for teaching English pronunciation. It highlights phonetic exercises, listening-based learning, shadowing techniques, and the use of modern digital tools. The study also emphasizes the importance of innovative approaches in developing learners’ pronunciation skills. The findings contribute to improving pronunciation proficiency and enhancing overall language learning outcomes. These methods provide practical strategies for both teachers and learners in mastering accurate English pronunciation.

Keywords: pronunciation, phonetics, shadowing, listening, innovative methods, English language

Аннотация. Данный тезис анализирует простые и эффективные методы обучения английскому произношению. Рассматриваются фонетические упражнения, обучение через аудирование, метод шэдоуинг и использование современных цифровых технологий. Особое внимание уделяется роли инновационных подходов в формировании произносительных навыков учащихся. Результаты исследования направлены на повышение эффективности изучения английского языка и развитие правильного произношения. Предложенные методы могут быть полезны как преподавателям, так и обучающимся.

Ключевые слова: произношение, фонетика, шэдоуинг, аудирование, инновационные методы, английский язык

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilini mukammal o‘zlashtirish nafaqat grammatik bilimlar, balki to‘g‘ri talaffuz (pronunciation) ko‘nikmalarini ham talab etadi. Ko‘plab o‘rganuvchilar tilni yozma jihatdan yaxshi egallagan bo‘lsalar-da, og‘zaki nutqda talaffuzdagi xatolar sababli muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning to‘liq shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Shu sababli, ingliz tili talaffuzini o‘rgatishda an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, oson, samarali va innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezisda talaffuzni o‘rgatishning sodda, lekin yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan usullari, real hayotiy misollar asosida tahlil qilinadi hamda ularning amaliy qo‘llanish mexanizmlari yoritiladi.

Talaffuzni o‘rgatishda birinchi navbatda fonetik asoslarni tushuntirish zarur. Ingliz tilida mavjud bo‘lgan tovushlar tizimi ko‘plab tillardan farq qiladi, ayniqsa o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan tovushlar o‘rganuvchilar uchun murakkablik tug‘diradi. Masalan, /θ/ (think) va /ð/ (this) tovushlari ko‘pchilik tomonidan /s/ yoki /z/ sifatida noto‘g‘ri talaffuz qilinadi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun o‘quvchilarga artikulyatsion mashqlar, ya’ni til va lablarning joylashuvini ko‘rsatib beruvchi vizual metodlar qo‘llanilishi lozim. Masalan, “think” so‘zini talaffuz qilishda til tishlar orasiga chiqarilishi amaliy tarzda ko‘rsatib beriladi. Bu kabi mashqlarni oynaga qarab bajarish o‘quvchilarga o‘z xatolarini mustaqil aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, minimal juftliklar (minimal pairs) — masalan, “ship” va “sheep”, “bit” va “beat” kabi so‘zlar orqali talaffuzdagi nozik farqlarni anglash va mustahkamlash mumkin [5].

Ikkinchi samarali metod sifatida eshitish orqali o‘rganish (listening-based learning) alohida ahamiyatga ega. Talaffuzni rivojlantirishda tinglash ko‘nikmasi asosiy rol o‘ynaydi, chunki to‘g‘ri

talaffuzni shakllantirish uchun avvalo uni to‘g‘ri eshita olish zarur. Zamonaviy texnologiyalar bu borada keng imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, podkastlar, audiokitoblar va YouTube videolari orqali ona tilida so‘zlashuvchilarning nutqini muntazam tinglash o‘quvchining fonetik sezgirligini oshiradi. Amaliy misol sifatida, o‘quvchiga har kuni 10-15 daqiqa davomida ingliz tilidagi qisqa audio materiallarni tinglash va eshitilgan gaplarni yozib olish topshirig‘i berilishi mumkin. Bu usul “dictation” deb ataladi va u nafaqat talaffuzni, balki eshitish va yozish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar noto‘g‘ri eshitgan joylarini aniqlab, asl variant bilan solishtirish orqali o‘z ustida ishlash imkoniga ega bo‘ladilar[2].

Uchinchi muhim metod — bu shadowing (soya usuli) hisoblanadi. Bu usulda o‘quvchi audio yoki video materialni tinglab, gapiruvchining ortidan deyarli bir vaqtda takrorlaydi. Ushbu metod talaffuzni, intonatsiyani va nutq tezligini tabiiy ravishda shakllantirishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi qisqa dialog yoki film parchasini tanlab, o‘quvchi uni eshitib, darhol ortidan takrorlaydi. Dastlab bu jarayon qiyin bo‘lishi mumkin, ammo muntazam mashq qilish orqali nutq avtomatik tarzda yaxshilanadi. Shadowing usulining afzalligi shundaki, u o‘quvchini passiv tinglovchidan faol nutq ishtirokchisiga aylantiradi. Bu esa o‘z navbatida talaffuzdagi xatolarni kamaytiradi va nutqning ravonligini oshiradi[1].

To‘rtinchi yondashuv sifatida raqamli vositalardan foydalanish alohida e’tiborga loyiq. Bugungi kunda talaffuzni yaxshilash uchun ko‘plab mobil ilovalar va platformalar mavjud. Masalan, talaffuzni tekshiruvchi sun’iy intellekt asosidagi dasturlar o‘quvchining nutqini tahlil qilib, xatolarini aniqlaydi va tuzatish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Amaliy jihatdan, o‘quvchi har kuni yangi so‘zlarni ushbu ilovalar orqali talaffuz qilib, natijalarni monitoring qilishi mumkin. Bundan tashqari, Google Translate kabi vositalarning “audio playback” funksiyasi orqali so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini eshitish mumkin. Bu yondashuv ayniqsa mustaqil o‘rganuvchilar uchun samarali hisoblanadi, chunki u o‘qituvchi ishtirokisiz ham o‘z ustida ishlash imkonini beradi.

Beshinchi metod sifatida intonatsiya va urg‘u (stress) ustida ishlashni ko‘rsatish mumkin. Ko‘pincha o‘quvchilar alohida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilsalar ham, gap darajasida xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Ingliz tilida so‘z urg‘usi va gap intonatsiyasi ma’noni o‘zgartirishi mumkin. Masalan, “I didn’t say he stole the money” gapida urg‘uning qayerga tushishiga qarab ma’no o‘zgaradi. Shu sababli, o‘quvchilarga gaplarni turli intonatsiya bilan talaffuz qilish mashqlari berilishi lozim. Real misol sifatida, dialoglarni rollarga bo‘lib o‘qish, teatr elementlarini qo‘llash yoki audio dramatizatsiya mashqlari juda samarali hisoblanadi. Bu usullar nafaqat talaffuzni, balki nutqning emotsional ifodasini ham rivojlantiradi[6].

Oltinchi muhim yondashuv — bu o‘yin asosidagi o‘rganish (gamification). Talaffuzni o‘rgatishda qiziqarli va interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Masalan, “tongue twisters” (tez aytish mashqlari) orqali murakkab tovushlarni mashq qilish mumkin: “She sells seashells by the seashore” kabi iboralar talaffuzni aniqlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, talaffuz bo‘yicha viktorinalar, jamoaviy musobaqalar yoki rol o‘yinlari orqali o‘quvchilar faol ishtirok etishga jalb qilinadi. Bu usul ayniqsa maktab o‘quvchilari va boshlang‘ich darajadagi o‘rganuvchilar uchun juda samarali bo‘lib, ular uchun o‘rganish jarayonini qiziqarli va stresssiz qiladi [3].

Yettinchi metod sifatida individual yondashuvni ta’kidlash zarur. Har bir o‘quvchining o‘rganish uslubi va tezligi turlicha bo‘lganligi sababli, talaffuzni o‘rgatishda differensial yondashuv talab etiladi. Masalan, ba’zi o‘quvchilar vizual materiallar orqali yaxshiroq o‘rganadilar, boshqalari esa eshitish orqali. Shu bois, o‘qituvchi har bir o‘quvchining kuchli tomonlarini aniqlab, mos metodlarni tanlashi lozim. Amaliy misol sifatida, bir o‘quvchiga video materiallar tavsiya etilsa, boshqasiga audio mashqlar yoki yozma transkripsiya bilan ishlash foydaliroq bo‘lishi mumkin. Bu yondashuv o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi va o‘rganish samaradorligini oshiradi.

Sakkizinchi yondashuv sifatida muntazamlik va tizimlilikni ta’minlash muhimdir. Talaffuzni rivojlantirish bir martalik mashqlar bilan emas, balki doimiy amaliyot orqali amalga oshiriladi. Har kuni kamida 10-20 daqiqa talaffuz ustida ishlash sezilarli natijalarga olib keladi. Masalan, “daily pronunciation routine” ishlab chiqish — ya’ni har kuni yangi 5 ta so‘zni o‘rganish, ularni talaffuz qilish, audio bilan solishtirish va gapda qo‘llash — juda samarali usuldir. Bu jarayon o‘quvchining talaffuz ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich mustahkamlaydi va avtomatlashtiradi [4].

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili talaffuzini oson va samarali o‘rgatish kompleks yondashuvni talab etadi. Fonetik mashqlar, eshitish orqali o‘rganish, shadowing, raqamli vositalar, intonatsiya ustida ishlash, o‘yin asosidagi metodlar va individual yondashuv kabi usullar birgalikda qo‘llanilganda yuqori natijalar beradi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning umumiy kommunikativ kompetensiyasini ham oshiradi. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali ingliz tilini o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 192 b.
2. Jalolov J. J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 256 b.
3. Kelly G. How to Teach Pronunciation. – Harlow: Longman, 2000. – 154 p.
4. Nurmonov A., Mahmudov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 450 b.
5. Roach P. English Phonetics and Phonology: A Practical Course. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 231 p.
6. Saydaliyev S. S. Chet tili o‘qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan, 2004. – 78 b.

INGLIZ TILINI O‘RGANUVCHILARDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA TINGLASHNING ROLI

Xoshimova Musinaoy
Zarmed universiteti, 2-kurs
Ilmiy rahbar: Xudoynazarov Yorqinoy
Ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Tinglash va gapirish ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan til ko‘nikmalaridir.Ko‘plab til o‘rganuvchilar asosan gapirishni mashq qilishga e‘tibor qaratadilar,ammo tinglash ham gapirish qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tinglash orqali o‘rganuvchilar talaffuz,so‘z boyligi va tabiiy nutq uslublari bilan tanishadilar.Ushbu maqolada tinglashning gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishdagi ahamiyati muhokama qilinadi hamda tinglash faoliyatlari talabalarga ingliz tilida samarali muloqot qilishga qanday yordam berishi tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: Tinglash ko‘nikmasi, gapirish ko‘nikmasi, til o‘rganish, muloqot, ingliz tili o‘rganuvchilari.

Ingliz tili dunyoda eng keng tarqalgan tillardan biri hisoblanadi. U ta‘lim , ilm-fan, texnologiya va xalqaro muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab o‘rganuvchilar uchun ingliz tilini o‘rganishdan asosiy maqsad -ravon gapirish va samarali muloqot qilishdir.

Tilning asosiy ko‘nikmalari - tinglash, gapirish, o‘qish va yozish orasida gapirish ko‘pincha eng murakkab ko‘nikma deb hisoblanadi. Biroq gapirish ko‘nikmasi yaxshi tinglash qobiliyatisiz samarali shakllanmaydi.Tinglash o‘rganuvchilarga so‘zlarning qanday talaffuz qilinishini, gaplarning qanday tuzilishini va odamlar real hayotda qanday muloqot qilishini tushunishga yordam beradi. Shu sababli tinglash gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim omil sanaladi.

Tinglash ko‘nikmasining ahamiyati. Tinglash til o‘rganish jarayonida asosiy ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. U og‘zaki nutqni anglashga va bundan tashqari ma‘nosini uqishga ko‘maklashadi. O‘rganuvchilar uzliksiz ingliz tilini tinglaganlarida,ular talaffuz, urg‘u va intonatsiya bilan tanishib boradilar. Bora-bora ular so‘zlarda urg‘u qayerga qo‘yilishini, so‘zlar qanday talaffuz qilinishini va shu bilan birga gapirganda intonatsiya bilan gapirishni o‘rganadilar. Rost(2011) ta'kidlaganidek, tinglash tilni o‘zlashtirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi, chunki u ta‘lim oluvchilarni tabiiy nutq va haqiqiy til namunalariga duchor qiladi. Muntazam tinglash ularga tilni yaxshiroq anglashga yordam beradi. Bundan tashqari, tinglash lug‘at boyligini ham oshiradi.Ingliz tili o‘rganuvchilari yangi so‘zlarni kontekstda ko‘rganlarida, u so‘z qanday gaplarda ishlatilishini va qanday ma‘noni anglatib kelganini osonlikcha eslab qoladilar. Ushbu usul lug‘at kitoblardan quruq so‘zning o‘zini yodlashdan ko‘ra ancha samarali hisoblanadi.

Yangi o‘zbek adabiy tili shakllanishi. XX asr boshlarida o‘zbek tilida yangi bosqich boshlandi. Jadidchilik harakati vakillari tilni soddalashtirish, xalq tiliga yaqinlashtirish va yangi adabiy me’yorlarni yaratishga harakat qildilar. Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lpon kabi ma’rifatparvarlar til rivojiga katta hissa qo‘shdilar.

Bu davrda matbuot rivojlandi, gazeta va jurnallar paydo bo‘ldi. Yozma nutq kengayib, adabiy til me’yorlari mustahkamlandi. O‘zbek tilida ilmiy va badiiy asarlar ko‘paydi. Tilning lug‘at boyligi yangi so‘zlar bilan boyidi.

XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek adabiy tili grammatik jihatdan tartibga solindi. Imlo qoidalari ishlab chiqildi, lug‘atlar yaratildi va ta’lim tizimida o‘zbek tilidan keng foydalanila boshlandi.

Mustaqillik davrida o‘zbek tilining rivoji. 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘zbek tilining jamiyatdagi o‘rni yanada mustahkamlandi. O‘zbek tili davlat tili sifatida qonun bilan belgilandi. Til siyosati asosida o‘zbek tilini rivojlantirish, uning nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Lotin yozuviga o‘tish o‘zbek tilining rivojida muhim qadam bo‘ldi. Bu jarayon tilning xalqaro maydonda qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, internet va ommaviy axborot vositalari til rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Bugungi kunda o‘zbek tili ilm-fan, ta’lim, adabiyot va rasmiy hujjatlarda keng qo‘llanmoqda. Yangi terminlar yaratilmoqda, lug‘at boyligi kengaymoqda. Tilning xalqaro miqyosdagi ahamiyati ham ortib bormoqda.

Xulosa. O‘zbek tili uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan boy va qadimiy tillardan biridir. Qadimgi turkiy til davridan boshlab chig‘atoy tili, eski o‘zbek adabiy tili va yangi o‘zbek adabiy tiligacha bo‘lgan bosqichlar tilning shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Har bir davr o‘ziga xos xususiyatlari bilan til boyligini oshirdi va uning rivojiga xizmat qildi.

Bugungi kunda o‘zbek tili mustaqil davlatning ramzi sifatida jamiyatning barcha sohalarida faol qo‘llanmoqda. Tilni asrab-avaylash, uni yanada rivojlantirish har bir fuqaroning muhim vazifalaridan biridir. O‘zbek tilining kelajagi uning to‘g‘ri qo‘llanishi, ilmiy o‘rganilishi va yosh avlodga puxta o‘rgatilishiga bog‘liq.

REFERENCES

1. Mahmud Koshg‘ariy. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Fan, 1960.
2. Alisher Navoiy. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA PRAGMATIK MA’NO: NUTQ MADANIYATI VA KONTEKST FARQLARI

Muinova Mexribon Suxrobovna
Zarmed Universiteti, Filologiya va tillarni o‘qitish (Ingliz tili)

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tillarida pragmatik ma’no, ya’ni nutqning yashirin qatlamlari, kontekstga bog‘liqligi va nutq madaniyatidagi farqlarni tahlil qiladi. Tadqiqot muloqot jarayonida so‘zdan ko‘ra muhimroq bo‘lgan jihatlar — qanday aytilgani, kimga va qaysi vaziyatda aytilgani kabi omillarga qaratilgan. Maqolada iltimos qilish, rad etish va taklif bildirish kabi nutq aktlari qiyosiy tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida bilvositalik va muloyimlik ustuvor bo‘lsa, ingliz tilida aniqlik va individuallik muhim o‘rin tutadi. Ushbu farqlarni anglash interkultural muloqot samaradorligini oshiradi.

Kalit so‘zlar: pragmatik ma’no, nutq madaniyati, kontekst, bilvosita nutq, muloyimlik strategiyalari, lingvopragmatika, interkultural kommunikatsiya.

Asosiy qism

1. Pragmatik ma’no tushunchasi

Til — bu inson tafakkurining murakkab tizimi bo‘lib, unda har bir so‘z ko‘pincha yashirin ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Pragmatik ma’no nutq jarayonida aynan shu yashirin ma’nolarni ochib berishga xizmat qiladi.

Tilshunos olim Stephen C. Levinson (1983) pragmatikani til va kontekst o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi soha sifatida izohlaydi. Shu nuqtai nazardan, nutqning haqiqiy mazmuni ko‘pincha so‘zlarning lug‘aviy ma’nosidan emas, balki ularning qo‘llanish vaziyatidan kelib chiqadi.

Masalan, ingliz tilidagi “Can you pass the salt?” jumlasi grammatik jihatdan savol bo‘lsa-da, amalda iltimos vazifasini bajaradi (Yule, 1996). O‘zbek tilida esa “Tuzni uzatib yuborsangiz bo‘ladimi?” shakli iltimos bilan birga hurmat ifodasini ham bildiradi.

2. Nutq madaniyatidagi farqlar

Nutq madaniyati jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari va madaniy me’yorlari bilan chambarchas bog‘liq. Penelope Brown va Stephen C. Levinson (1987) ishlab chiqqan muloyimlik nazariyasiga ko‘ra, insonlar muloqot jarayonida bir-birining “ijtimoiy yuzini” saqlashga harakat qiladi.

O‘zbek nutq madaniyatida bu jarayon ayniqsa kuchli namoyon bo‘ladi. Fikrlar ko‘pincha bilvosita, yumshoq shaklda ifodalanadi:

“Yana bir oz o‘ylab ko‘rsak yaxshi bo‘lardi” (rad etish)

“Hozir biroz noqulayroq vaqt edi” (uzr yoki rad)

Ingliz tilida esa nutq ko‘proq to‘g‘ridan-to‘g‘ri va aniq bo‘ladi:

“I’m sorry, I can’t.”

“I disagree.”

Bu farq madaniy qadriyatlar bilan izohlanadi.

3. Kontekst va yashirin ma’no

Kontekst nutqning ajralmas qismi bo‘lib, ma’no shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Herbert Paul Grice (1975) tomonidan ilgari surilgan kooperativ prinsipga ko‘ra, suhbat ishtirokchilari yashirin ma’nolarni tushunishda umumiy qoidalarga amal qiladi.

Masalan, o‘zbek tilidagi “Qiziq gap ekan” iborasi vaziyatga qarab maqtov yoki kinoya bo‘lishi mumkin. Ingliz tilidagi “That’s interesting” iborasi ham shunga o‘xshash tarzda turli ma’nolarni anglatadi.

Shu sababli pragmatik ma’noni tushunish uchun nafaqat tilni, balki kontekstni ham hisobga olish zarur.

4. Iltimos va rad etish strategiyalari

Nutq aktlari nazariyasi John Searle (1969) tomonidan rivojlantirilgan bo‘lib, u har bir nutq biror amalni bajarishini ta’kidlaydi. Bu nazariya J. L. Austin (1962) ishlariga asoslanadi.

O‘zbek tilida iltimos qilish odatda muloyim va bilvosita shaklda amalga oshiriladi:

“Agar iloji bo‘lsa...”

“Sizdan bir iltimos bor edi...”

Ingliz tilida esa standart shakllar keng qo‘llaniladi:

“Could you please...?”

“Would you mind...?”

Rad etishda esa farq yanada aniq:

O‘zbek tilida: “Ko‘rib chiqamiz”, “Keyinroq gaplashamiz”

Ingliz tilida: “No, I can’t”, “That won’t work”

Bu tafovutlar turli madaniyatlarda muloqot strategiyalarining farqlanishini ko‘rsatadi.

5. Interkultural muloqotdagi ahamiyati

Turli madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotda pragmatik farqlar muhim rol o‘ynaydi. Shoshana Blum-Kulka va hamkorlari (1989) tadqiqotlariga ko‘ra, turli tillarda iltimos va uzr kabi nutq aktlari sezilarli darajada farqlanadi.

Agar bu farqlar e’tiborga olinmasa, noto‘g‘ri tushunishlar yuzaga keladi. Masalan, ingliz tilidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad o‘zbek tinglovchi tomonidan qo‘pol deb qabul qilinishi mumkin, o‘zbek tilidagi bilvosita rad esa ingliz tilida gapiruvchi tomonidan tushunilmasligi mumkin.

Shu bois pragmatik kompetensiya interkultural kommunikatsiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida olib borildi. O‘zbek va ingliz tillaridagi nutq namunalarini kuzatish, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va real muloqot jarayonlarini o‘rganish orqali pragmatik farqlar aniqlab olindi.

Tadqiqot mezonlari:

Iltimos, rad etish va taklif nutq aktlari.

Nutqdagi bilvositalik va aniqlik darajasi.

Kontekst va madaniy omillarning ta’siri.

Natijalar va tahlil

1. Nutqdagi asosiy farqlar

O‘zbek tilida muloyimlik va hurmat ustuvor, ingliz tilida esa aniqlik ustunligi kuzatildi.

2. Kontekstning roli

Har ikki tilda ham kontekst ma’no shakllanishida hal qiluvchi omil ekanligi aniqlandi.

3. Pragmatik xatolar

Til o‘rganuvchilar ko‘pincha pragmatik xatolarga yo‘l qo‘yadi, bu esa noto‘g‘ri tushunishga olib keladi.

4. Madaniy ta’sir

Nutq uslubi jamiyatning madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi tasdiqlandi.

Xulosa. Pragmatik ma’no tilning eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, u nutqning haqiqiy mazmunini ochib beradi. O‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi pragmatik farqlarni o‘rganish interkultural muloqotni samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tilni mukammal egallash uchun faqat grammatik bilim yetarli emas — pragmatik kompetensiya ham zarur. Bu esa zamonaviy global jamiyatda samarali kommunikatsiya uchun asosiy omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press.
2. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. (1989). Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies. Norwood, NJ: Ablex Publishing.
3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Cutting, J. (2002). Pragmatics and Discourse: A Resource Book for Students. London: Routledge.
6. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In: Cole, P., & Morgan, J. L. (Eds.), Syntax and Semantics (Vol. 3, pp. 41–58). New York: Academic Press.
7. Kasper, G., & Rose, K. R. (2002). Pragmatic Development in a Second Language. Oxford: Blackwell Publishing.
8. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Thomas, J. (1995). Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics. London: Longman.
11. Trosborg, A. (1995). Interlanguage Pragmatics: Requests, Complaints and Apologies. Berlin: Mouton de Gruyter.
12. Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press.

CURRENT ISSUES OF MODERN LINGUISTICS

Charos Jahonova

Zarmed University, Department of English Philology

Abstract. This study examines the contemporary challenges and evolving trends in modern linguistics. With globalization and technological innovations reshaping communication, linguistics faces new theoretical and practical problems. The research highlights key issues such as the influence of artificial intelligence on language processing, the endangerment of minority languages, sociolinguistic inequalities, and the role of corpus-based studies. Employing qualitative and analytical methods, this paper synthesizes current literature and case studies to provide a comprehensive overview of the field. Findings indicate that while modern linguistics encounters significant obstacles, interdisciplinary approaches and technological integration offer promising solutions. Emphasis is placed on preserving linguistic diversity and promoting adaptive frameworks for language research and education.

Keywords: modern linguistics, artificial intelligence, language loss, sociolinguistics, corpus linguistics, globalization

Introduction. Language is one of the most fundamental human faculties, serving as a primary tool for communication, cultural expression, and cognitive development. Linguistics, the scientific study of language, investigates its structure, function, evolution, and social impact. Over the past century, the field has evolved from focusing solely on phonology, morphology, and syntax to embracing interdisciplinary approaches, including cognitive science, computational modeling, and sociolinguistics.

The modern era has introduced new challenges and opportunities for linguistics. Technological advancements, such as artificial intelligence and natural language processing, have transformed how researchers analyze and interpret language data. Globalization has intensified interactions among diverse language communities, simultaneously facilitating cross-cultural communication and contributing to the endangerment of minority languages. Sociolinguistic factors, including gender, social class, and identity,

further influence language usage and accessibility. This study aims to provide a comprehensive examination of the current issues in modern linguistics, focusing on four central themes:

The influence of technology, particularly AI and NLP, on linguistic research and applications;

The loss and endangerment of minority languages in a globalized context;

Sociolinguistic inequalities, including dialectal variation and language-based discrimination;

Methodological innovations, including corpus-based and data-driven approaches.

By synthesizing recent studies, reports, and theoretical perspectives, this paper seeks to highlight emerging trends, persistent challenges, and potential directions for future research. Understanding these issues is not only essential for academic advancement but also for preserving linguistic diversity and promoting effective communication in a multicultural world.

Methods. To examine contemporary linguistic issues, this study employs a qualitative literature review supplemented by analytical synthesis of empirical findings. The research process involved the following steps:

Literature Selection: Relevant sources were identified using academic databases such as JSTOR, Google Scholar, and Scopus. Priority was given to studies published in the last twenty years to ensure contemporary relevance. Selected works cover technology in linguistics, language endangerment, sociolinguistics, and corpus-based methodologies.

Thematic Categorization: The literature was organized into key thematic areas: technology and linguistics, globalization and language loss, sociolinguistic inequalities, and methodological innovations. Each theme was analyzed to identify trends, recurring challenges, and proposed solutions.

Critical Analysis and Synthesis: Findings from different sources were compared and synthesized to construct an integrated view of current issues. Emphasis was placed on identifying gaps in research and highlighting emerging areas of inquiry.

This methodology allows for a comprehensive examination of both theoretical and practical challenges in modern linguistics while providing a structured framework for discussion. By combining literature review and analytical synthesis, the study captures the multidimensional nature of linguistic research in the 21st century.

Results. The analysis of recent literature reveals several key trends in modern linguistics.First, technological advancements, particularly in artificial intelligence and natural language processing, have significantly enhanced language analysis and communication tools. However, these systems still demonstrate limitations in understanding context and pragmatic meaning.

Second, globalization continues to contribute to the decline of minority languages. Evidence indicates that linguistic diversity is decreasing, with many languages facing endangerment due to the dominance of global languages.

Third, sociolinguistic factors remain influential in shaping language use. Studies confirm that language variation, identity, and inequality affect communication patterns and access to opportunities.

Finally, corpus-based approaches have improved empirical research by enabling large-scale analysis of authentic language data, although challenges in interpretation and contextualization persist.

Discussion. The findings highlight that modern linguistics is characterized by both opportunity and complexity. Technology provides unprecedented analytical tools, but human oversight remains essential. Language loss and sociolinguistic inequalities continue to pose significant challenges, necessitating interdisciplinary collaboration between linguists, educators, policymakers, and technologists.

Emerging fields such as cognitive and computational linguistics offer innovative frameworks for addressing these challenges. Cognitive linguistics investigates conceptual structures and meaning-making, while computational linguistics enables large-scale modeling and predictive analysis. Integrating these approaches allows for more nuanced and practical insights into language phenomena.

Preserving linguistic diversity is paramount. Languages embody cultural heritage, cognitive patterns, and social knowledge that cannot be replicated. Global efforts in documentation, revitalization, and digital archiving are crucial for sustaining the richness of human language. Furthermore, inclusive language policies and awareness of sociolinguistic disparities promote social equity and intercultural understanding.

Conclusion. Modern linguistics faces multifaceted challenges shaped by technological, social, and global pressures. Artificial intelligence, language endangerment, sociolinguistic inequalities, and methodological innovations define the contemporary research landscape. This study emphasizes the importance of integrating traditional analysis with computational tools, adopting interdisciplinary strategies, and prioritizing linguistic diversity. Addressing these challenges enables linguistics to contribute meaningfully to knowledge, education, and cultural preservation, ensuring that human communication remains rich, inclusive, and adaptive in the 21st century.

REFERENCES

1. Abduazizov, A. (2012). Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent.
2. David Crystal – The Cambridge Encyclopedia of Language.
3. Evans, V., & Green, M. (2006). Cognitive Linguistics: An Introduction. Lawrence Erlbaum Associates.
4. Ferdinand de Saussure – Course in General Linguistics.
5. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2021). Speech and Language Processing. Pearson.
6. Noam Chomsky – Aspects of the Theory of Syntax.
7. UNESCO – Atlas of the World's Languages in Danger, 3rd edition, 2010.

ONA TILINING INGLIZ TILI TALAFFUZIGA TA'SIRI: O'ZBEK TALABALARI MISOLIDA

Latifova Nurshoda Dilmurod qizi
Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot o'zbek talabalari ingliz tilini o'rganish jarayonida yuzaga keladigan fonetik interferensiyani aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talaffuzdagi xatolar asosan ona tilining fonetik va artikulyatsion xususiyatlari bilan bog'liq. Maxsus tadqiqot metodikasi orqali /θ/, /ð/ va /w/ kabi tovushlar, shuningdek, so'z ichidagi urg'ular bilan bog'liq xatolar aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'rganuvchilarning ona tilidan keladigan artikulyatsion odatlar ingliz tilidagi talaffuzni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot, shuningdek, talaffuzni o'rgatishda zamonaviy metodikalar - audio-vizual materiallar, interaktiv mashqlar va individual yondashuvlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu natijalar o'zbek tilida ta'lim olayotgan talabalar uchun fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyani oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Fonetik interferensiya, talaffuz, ona til ta'siri, o'zbek talabalari, ingliz tili.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va ta'lim sohalarida yetakchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, ingliz tilini samarali o'zlashtirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Til o'rganishda grammatik va leksik bilimlar bilan bir qatorda, to'g'ri talaffuz ham muhim o'rin tutadi, chunki u nutqning aniqligi va tushunarliligini ta'minlaydi. Ikkinchi tilni o'rganish jarayonida uchraydigan asosiy muammolardan biri - bu o'rganuvchining ona tili ta'siridir. Tilshunoslikda ushbu hodisa fonetik va fonologik interferensiya sifatida izohlanadi. Interferensiya natijasida o'rganuvchilar yangi tilning tovush tizimini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi va ko'pincha o'z ona tilidagi artikulyatsion modellarga tayanadi. O'zbek va ingliz tillari fonetik tizim jihatidan sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, ingliz tilida mavjud bo'lgan interdental frikativ tovushlar (/θ/, /ð/), lab-velyar approximant (/w/) kabi tovushlar o'zbek tilida uchramaydi. Bundan tashqari, ingliz tilidagi urg'u tizimi ham o'zbek tilidan farqli bo'lib, bu holat talaffuzda qo'shimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u o'zbek talabalari tomonidan ingliz tilini o'rganish jarayonida yuzaga keladigan fonetik muammolarni aniqlash va ularni ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari talaffuzni o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi - o'zbek talabalari ingliz tilidagi talaffuz xatolarini aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot o'zbek talabalari ingliz tilidagi talaffuz xatolarini aniqlash va ularni ona tilining fonetik ta'siri bilan bog'lashga qaratilgan.

1. Ishtirokchilar

Tadqiqotda Andijon davlat chet tillari instituti bakalavriyat 2-bosqich talabalari ishtirok etdi.

Umumiy soni: 30 nafar talaba, ingliz tilini o'rta va yuqori darajada o'rganayotganlar.

Ishtirokchilar tasodifiy tanlab olindi, bu tadqiqot natijalarining adolatli va obyektiv bo'lishini ta'minlaydi.

2. Ma'lumot to'plash usullari

Og'zaki testlar: talabalar tanlangan 10 so'z va 5 jumlani talaffuz qildi. Bu testlar talaffuzdagi eng muhim tovushlar va urg'uni aniqlashga xizmat qiladi.

Audio yozuvlar: talabalar nutqlari yozib olindi, talaffuzdagi xatolarni keyinchalik tahlil qilish uchun.

Kuzatuvlar: talabalar artikulyatsion odatlari, urg‘u va intonatsiya xususiyatlari qayd qilindi.

3. Tadqiqot metodlari

Fonetik tahlil: Talaffuzdagi xatolar turkumlash orqali aniqlanadi va ular ona til ta’siri bilan bog‘lanadi.

Chastota hisoblash: Har bir xato qanchalik tez-tez uchraganini ko‘rsatish uchun hisoblandi. Masalan, agar 30 talaba har biri 5 so‘z talaffuz qilsa, jami 150 talaffuz bo‘ladi. Agar /θ/ tovushi 15 marta xato aytilsa, demak bu xato jami talaffuzlarning 10% ini tashkil qiladi.

Nazariy asos: Tadqiqot fonetik interferensiya, artikulyatsion farqlar va prosodiya (urg‘u va intonatsiya) nazariyalariga asoslanadi.

4. Tadqiqot jarayoni

Ishtirokchilar tayyorlandi va test topshiriqlari berildi.

Talabalar talaffuzini yozib olish orqali xatolar aniqlandi.

Xatolar tovushlar va urg‘u bo‘yicha turkumlandi va chastota hisoblandi.

Natijalar ona tilining ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qilindi va talaffuzni yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Qisqacha: ushbu metodologiya tadqiqotning ilmiy asosli, sodda va qayta tekshiriladigan tarzda o‘tkazilishini ta’minlaydi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari o‘zbek talabalari ingliz tilidagi ayrim fonetik birliklarni talaffuz qilishda tizimli va takrorlanuvchi xatolarga yo‘l qo‘yishini ko‘rsatdi. Ushbu xatolar asosan ingliz tilida mavjud, ammo o‘zbek tilida uchramaydigan tovushlar bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Birinchi navbatda, interdental frikativ tovushlar - /θ/ va /ð/ bilan bog‘liq xatolar eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning taxminan 80 foizi /θ/ tovushini /s/ yoki /t/ tovushlari bilan almashtirgan. Masalan, think so‘zi sink yoki tink tarzida talaffuz qilindi. Bu holat mazkur tovushning artikulyatsion jihatdan o‘zbek tilida mavjud emasligi bilan izohlanadi. Shuningdek, /ð/ tovushi ham ko‘plab talabalarda noto‘g‘ri talaffuz qilindi. Ishtirokchilarning 70-75 foizi ushbu tovushni /d/ yoki /z/ tovushlari bilan almashtirdi. Masalan, this so‘zi dis shaklida aytildi. Bu esa tovushni hosil qilishda tilning tishlar orasiga joylashuvi kabi artikulyatsion harakatlarning yetarlicha shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi muhim muammo sifatida /w/ tovushining noto‘g‘ri talaffuzi qayd etildi. O‘zbek tilida ushbu tovushning mavjud emasligi sababli, talabalar uni ko‘pincha /v/ bilan almashtiradi. Masalan, weather so‘zi veder tarzida talaffuz qilindi. Ushbu xato ishtirokchilarning qariyb 65 foizida kuzatildi.

Bundan tashqari, urg‘u (word stress) bilan bog‘liq xatolar ham ancha keng tarqalganligi aniqlandi. Ko‘plab talabalar ingliz tilidagi ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘uni noto‘g‘ri qo‘ydi. Masalan, develop so‘zi DEvelop tarzida talaffuz qilindi, holbuki to‘g‘ri variant deVELOP hisoblanadi. Bu esa ingliz tilidagi urg‘u tizimining o‘zbek tilidan farqli ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek talabalari ingliz tilidagi fonetik tizimni o‘zlashtirishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi va bu qiyinchiliklar asosan ona tili bilan bog‘liq interferensiya natijasidir.

Tadqiqot natijalari o‘zbek tilidan ingliz tiliga o‘tishda yuzaga keladigan fonetik interferensiya jarayonini yaqqol namoyon etdi. Aniqlangan xatolarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu holat nafaqat tovushlarning mavjud yoki mavjud emasligi, balki artikulyatsion baza va fonologik tizimlarning farqi bilan ham bog‘liq. Avvalo, interdental frikativ tovushlarning (/θ/, /ð/) noto‘g‘ri talaffuzi o‘zbek tilida ushbu tovushlarning mavjud emasligi bilan izohlanadi. O‘zbek tilida frikativ tovushlar mavjud bo‘lsa-da, ular tishlar orasida emas, balki boshqa artikulyatsion nuqtalarda hosil qilinadi. Natijada, o‘rganuvchilar yangi tovushni o‘zlashtirish o‘rniga, unga eng yaqin bo‘lgan mavjud tovush bilan almashtirishga moyil bo‘ladi. Bu hodisa lingvistikada “substitutsiya” deb yuritiladi. Ikkinchi jihat sifatida artikulyatsion odatlarning ta’sirini ko‘rsatish mumkin. O‘rganuvchilar yangi tilni o‘rganishda ko‘pincha ona tilida shakllangan artikulyatsion harakatlarga tayanadi. Bu esa yangi tovushlarni to‘g‘ri hosil qilishni qiyinlashtiradi. Masalan, /w/ tovushini talaffuz qilish uchun lablarning yumaloqlanishi talab etiladi, ammo o‘zbek tilida bunday artikulyatsion harakat kam qo‘llaniladi.

Uchinchi muhim jihat - prosodik tizimlar farqidir. Ingliz tilida urg‘u erkin va ma’no farqlash xususiyatiga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida urg‘u ko‘pincha oxirgi bo‘g‘inga tushadi va kamroq fonologik ahamiyatga ega. Shu sababli talabalar ingliz tilida urg‘uni noto‘g‘ri qo‘llaydi. Shuningdek, aniqlangan xatolar o‘qitish metodikasi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ko‘plab hollarda talaffuzga yetarli e’tibor qaratilmaydi va asosiy urg‘u grammatika hamda lug‘atga beriladi. Bu esa fonetik ko‘nikmalarning yetarlicha rivojlanmasligiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, talaffuzni o‘rgatishda zamonaviy yondashuvlardan, xususan, audio-vizual materiallar, fonetik dasturlar va interaktiv mashqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot o‘zbek talabalari ingliz tilini o‘rganish jarayonida talaffuz bilan bog‘liq sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishini va bu qiyinchiliklar asosan ona tilining fonetik va fonologik xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi ayrim tovushlarning, xususan, /θ/, /ð/ va /w/ kabi fonemalarning noto‘g‘ri talaffuz qilinishi keng tarqalgan muammo ekanligini tasdiqladi. Shuningdek, urg‘u tizimidagi farqlar ham o‘rganuvchilarning talaffuzida muhim rol o‘ynashi aniqlandi. O‘zbek tilida urg‘uning nisbatan barqarorligi ingliz tilidagi erkin urg‘u tizimini o‘zlashtirishda qiyinchilik tug‘diradi.

Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, talaffuzdagi xatolarni bartaraf etish uchun an’anaviy o‘qitish usullarini takomillashtirish zarur. Xususan, fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlarni joriy etish, audio-vizual materiallardan samarali foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalar asosida interaktiv o‘qitish metodlarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarning artikulyatsion xususiyatlarini hisobga olish va individual yondashuvni qo‘llash talaffuzni o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada samarali qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili talaffuzini o‘rgatishda ona tilining ta’sirini inobatga olish va unga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari esa mazkur yo‘nalishda keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Celce-Murcia, M., Brinton, D., & Goodwin, J. (2010). Teaching Pronunciation: A Course Book and Reference Guide. Cambridge University Press.
2. Derwing, T. M., & Munro, M. J. (2005). Second language accent and pronunciation teaching: A research-based approach. TESOL Quarterly, 39(3), 379–397.
3. Jenkins, J. (2000). The Phonology of English as an International Language. Oxford University Press.
4. Ladefoged, P., & Johnson, K. (2014). A Course in Phonetics (7th ed.). Cengage Learning.
5. Roach, P. (2009). English Phonetics and Phonology (4th ed.). Cambridge University Press.
6. Axmedov, B. (2018). Ingliz tilini o‘qitishda fonetik interferensiya masalalari. Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti nashriyoti.
7. Yo‘ldoshev, M. (2020). O‘zbek talabalari uchun ingliz tili talaffuzi metodikasi. Toshkent: “Fan va Ta’lim” nashriyoti.
8. G‘aniev, S. (2017). Til o‘rganishda ona til ta’siri: nazariya va amaliyot. Toshkent: “Ilm-Ziyo” nashriyoti.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ДИСКУРСА: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Каюмова Нодира Каримовна

магистрант 1-курса Навоийского государственного университета

Аннотация: В статье рассматриваются процессы трансформации фразеологического состава русского языка в условиях цифровизации коммуникации. Анализируются механизмы обновления фразеологического фонда, включая деривацию, семантическое переосмысление и заимствование. Особое внимание уделяется влиянию интернет-дискурса и медиасреды на формирование новых устойчивых выражений. Делается вывод о высокой динамичности современной фразеологии и её адаптивности к цифровой среде.

Ключевые слова: фразеология, цифровой дискурс, интернет-коммуникация, неологизмы, языковая динамика.

Введение. Современная лингвистика характеризуется усиленным интересом к динамическим процессам в языке, обусловленным глобализацией и цифровизацией коммуникативного пространства. Одной из наиболее чувствительных к изменениям областей является фразеология, отражающая как языковые, так и социокультурные трансформации [4].

Актуальность исследования определяется необходимостью анализа изменений, происходящих во фразеологическом составе русского языка под влиянием цифровой среды. Интернет-коммуникация формирует новые условия функционирования языка, способствуя появлению и закреплению новых устойчивых выражений [6].

Цель исследования — выявить основные тенденции трансформации фразеологического состава русского языка в условиях цифрового дискурса.

Задачи исследования:

- Охарактеризовать интернет-дискурс как среду формирования фразеологии;
- Выявить типы трансформаций фразеологических единиц;
- Определить механизмы формирования новых выражений;
- Оценить влияние цифровой среды на свойства фразеологизмов;
- Объект исследования — фразеологический состав современного русского языка.
- Предмет исследования — процессы его изменения в цифровой коммуникации.

Материалы и методы. Материалом исследования послужили тексты интернет-коммуникации: публикации в социальных сетях, комментарии, блоги, мемы и медиатексты. Отбор единиц осуществлялся по критерию устойчивости и воспроизводимости.

В работе применялись следующие методы:

контекстуальный анализ для выявления значений фразеологизмов;

дискурсивный анализ для определения их функций в коммуникации [7];

сопоставительный метод для сравнения традиционных и новых единиц;

элементы корпусного анализа для оценки частотности.

Результаты.

1. Интернет-дискурс как фактор развития фразеологии

Цифровая коммуникация отличается высокой скоростью, экспрессивностью и неформальностью, что способствует активному формированию новых фразеологических единиц. Интернет-дискурс ускоряет закрепление языковых инноваций и способствует их массовому распространению [6].

Наблюдается стирание границ между устной и письменной речью, что усиливает гибкость и вариативность фразеологических единиц [4].

2. Типы трансформации фразеологических единиц

2.1. Семантическое переосмысление

Традиционные фразеологизмы получают новые значения в цифровом контексте:

«зависнуть» — «перестать отвечать в сети»;

«выйти из игры» — «прекратить онлайн-активность».

Данный процесс связан с развитием метафорического мышления и переносом значений [3].

2.2. Структурная модификация

Фразеологизмы подвергаются сокращению и трансформации:

«держать руку на пульсе» → «держать руку»;

«в топе» как самостоятельная единица.

Подобные изменения отражают тенденцию к экономии языковых средств [4].

2.3. Заимствование и гибридизация

Широкое распространение получают англоязычные заимствования:

«словить хайп»;

«уйти в оффлайн»;

«быть в тренде».

Этот процесс связан с глобализацией и доминированием английского языка в цифровой среде [6].

2.4. Мемоизация

Интернет-мемы становятся источником устойчивых выражений:

«это фиаско»;

«ну такое»;

«я в домике».

Фразеологизация мемов обусловлена их массовой воспроизводимостью [7].

3. Механизмы формирования новых фразеологизмов

В ходе анализа выделены следующие механизмы:

Деривация на основе сленга («залипать», «крашиться»). Калькирование («сломать интернет») [6]. Метафоризация («токсичный человек», «горит дедлайн») [3]. Влияние медиакультуры. Визуальные образы способствуют закреплению выражений [7].

4. Изменение свойств фразеологических единиц

Цифровая среда трансформирует ключевые характеристики фразеологизмов:

устойчивость становится относительной;

вариативность возрастает;

воспроизводимость усиливается за счёт цифровых каналов;

экспрессивность увеличивается [3].

Обсуждение. Результаты исследования показывают, что фразеология в цифровую эпоху приобретает динамический характер. В отличие от традиционного подхода, рассматривающего фразеологизмы как устойчивые единицы, современная языковая практика демонстрирует их гибкость и изменчивость [1].

Интернет выступает не только средой распространения, но и механизмом формирования новых выражений. Значительную роль играет англоязычное влияние, что подтверждает тенденции глобализации языкового пространства [6]. Несмотря на кратковременность многих новых выражений, часть из них закрепляется в языке и становится элементом нормативной системы [5].

Заключение (Conclusion)

В ходе исследования установлено, что фразеологический состав русского языка в условиях цифрового дискурса характеризуется высокой динамичностью и открытостью к изменениям.

Основные выводы:

Интернет-дискурс является ключевым фактором формирования фразеологии.

Происходит активная трансформация традиционных выражений.

Основными механизмами являются заимствование, деривация и семантическое переосмысление.

Устойчивость фразеологизмов снижается, а вариативность возрастает.

Цифровая среда усиливает экспрессивность языка.

Перспективы исследования связаны с дальнейшим корпусным анализом и изучением процессов нормализации цифровой фразеологии.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Crystal D. Language and the Internet. — Cambridge, 2006.
2. Herring S. Computer-Mediated Communication. — Oxford, 2013.
3. Виноградов В. В. Русская фразеология. — М.: Наука, 1977.
4. Земская Е. А. Современный русский язык. — М., 2000.
5. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. — М., 2010.
6. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. — М., 1996.
7. Левонтина И. Б. Русский со словарём. — М., 2016.
8. Телия В. Н. Русская фразеология. — М., 1996.

TIL MANZARASI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI

Bekmurodova Marjona Nortoji qizi

Zarmed universiteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola til manzarasi tushunchasi, uning jamiyatdagi roli va ijtimoiy, madaniy hamda siyosiy ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqot do‘kon peshlavhalari, reklama bannerlari, yo‘l belgilaridagi va davlat belgilaridagi til foydalanishini o‘rganadi. Maqolada til manzarasining jamiyat, madaniy jarayon va til siyosatiga ta’siri misollar bilan ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, til manzarasi jamiyatni va madaniy jarayonlarni tushunishda muhim vositadir.

Kalit so‘zlar: til manzarasi, jamoat yozuvlari, til siyosati, madaniy identitet, globalizatsiya, reklama yozuvlari, ijtimoiy roli, lingvistik manzara.

Asosiy qism

1. Til manzarasi tushunchasi. Til manzarasi (linguistic landscape) jamoat joylaridagi yozuvlar orqali tilning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rolini aks ettiradi. Ushbu tushuncha birinchi marta Landry va Bourhis (1997) tomonidan ilgari surilgan. Shohamy (2006) esa til manzarasining madaniy identitet va global jarayonlarni aks ettirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

2. Jamiyatdagi roli. Til manzarasi jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy holatni aks ettiradi. Masalan, davlat tashkilotlaridagi yozuvlar asosan o‘zbek tilida berilishi davlat tilining ustuvorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, rus va ingliz tilidagi yozuvlar globalizatsiya va tijorat ta’sirini aks ettiradi (Gorter, 2006).

3. Madaniy va global ta’sir. Shahar hududlaridagi ingliz tilidagi yozuvlar, masalan, “Coffee House” va “City Mall”, globalizatsiya va zamonaviylikni aks ettiradi. Rus tilidagi yozuvlar esa tarixiy va madaniy izlarni saqlashga yordam beradi.

4. Inson ongiga ta’siri. Jozibali peshlavhalar va reklama yozuvlari odamlarning qarorlariga ta’sir qiladi, ularni mahsulot yoki xizmatni tanlashga undaydi. Shu tariqa, til manzarasi marketing va kommunikatsiya sohasida ham muhim ahamiyatga ega.

5. O‘zgarish va rivojlanish. Til manzarasi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Yangi texnologiyalar va madaniy ta’sirlar yozuvlarda ishlatiladigan tillar va uslublarni yangilaydi, bu esa jamiyatdagi til siyosati va madaniy jarayonlarning rivojlanishini aks ettiradi (Shohamy, 2006; Gorter, 2006).

Metodologiya. Tadqiqot adabiyotlarni sharhlash va jamoat joylaridagi yozuvlarni kuzatishni birlashtiradi. Ma’lumotlar ilmiy maqolalar, kitoblar va tadqiqotlar tahlil qilinib, til manzarasini o‘rganish uchun eng samarali yondashuvlar aniqlangan. Tadqiqot mezonlari:

Jamoat joylaridagi yozuvlar va ularning ijtimoiy ta’siri.

Davlat va tijorat yozuvlaridagi til siyosati.

Madaniy identitet va globalizatsiya bilan bog‘liq yozuvlar.

Natijalar va tahlil.

1. Jamiyatdagi ko‘rinishi

Jamoat joylarida tilning ko‘rinishi uning nufuzi va ahamiyatini ko‘rsatadi. Davlat tashkilotlaridagi yozuvlar asosan o‘zbek tilida, tijorat sohasidagi yozuvlar esa ingliz yoki rus tilida berilgan.

2. Madaniy va global ta’sir

Shaharlardagi ingliz tilidagi yozuvlar globalizatsiya ta’siri va zamonaviylikni aks ettiradi, rus tilidagi yozuvlar esa tarixiy va madaniy aloqalarni saqlaydi.

3. Inson ongiga ta’siri

Jozibali peshlavhalar odamlarni mahsulot yoki xizmatga jalb qiladi va qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir qiladi.

4. O‘zgarish va rivojlanish

Yangi yozuvlar, tillar va uslublar jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni aks ettiradi va til manzarasining doimiy o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Til manzarasi jamiyatning muhim ko‘zgusi hisoblanadi. U orqali til siyosati, madaniy identitet, global ta’sirlar va ijtimoiy jarayonlarni anglash mumkin. Yozuvlar inson ongiga ta’sir qiladi, e’tiborni jalb qiladi va ijtimoiy xulqni shakllantiradi. Til manzarasini o‘rganish jamiyatni chuqur tushunish va madaniy jarayonlarni baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahrens, W., Embleton, S., & Lapierre, A. (Eds.). (2009). Names in Multi-lingual, Multi-cultural and Multi-ethnic Contact. Mouton de Gruyter.

2. Aiestaran, J., Cenoz, J., & Gorter, D. (2010). Multilingual cityscapes. In Shohamy, E. et al. (Eds.), Linguistic Landscape in the City. Multilingual Matters.

3. Ashirboyeva, C. (2025). The Role of Linguistic Landscapes in Raising Intercultural Awareness among Language Learners. Conference Proceedings.

4. Backhaus, P. (2005). Signs of Multilingualism in Tokyo: A diachronic look at the linguistic landscape. International Journal of the Sociology of Language, 175/176, 103–121.

5. Backhaus, P. (2007). Linguistic Landscapes: A Comparative Study of Urban Multilingualism in Tokyo. Multilingual Matters.

6. Belarbi, K., & Belaid, L. (2025). Multilingual Practices in the Linguistic Landscape: Insights into Linguistic Repertoires and Language Policy. International Journal of Multilingual Education, 26(1), 42–54.

7. Gorter, D. (2006). Linguistic Landscape: A New Approach to Multilingualism. Multilingual Matters.

8. Hasanova, D., & Vokhidova, N. (2025). English in Uzbekistan: language ideologies and teaching practices.

9. Landry, R., & Bourhis, R.Y. (1997). Linguistic landscape and ethnolinguistic vitality. Journal of Language and Social Psychology, 16(1), 23–49.

10. Napu, N. (2024). Linguistic landscapes in multilingual urban settings: insights from translation perspectives. Studies in English Language and Education, 11(1), 530–548.

11. Seargeant, P., & Giaxoglou, K. (2020). Discourse and the Linguistic Landscape. The Cambridge Handbook of Discourse Studies.

12. Shohamy, E., Ben-Rafael, E., & Barni, M. (Eds.). (2010). Linguistic Landscape in the City. Multilingual Matters.

TRENDS AND EFFICIENCY OF IMMERSIVE TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING: A COMPARATIVE REVIEW

Sevinch Isanova
Undergraduate Student, Department of Foreign Philology, Zarmed University
Scientific advisor: Nigina Babadjanova
Assistant teacher, Department of Foreign Philology, Zarmed University

Abstract: Immersive media, specifically Augmented Reality (AR) and Virtual Reality (VR), are transforming educational paradigms due to their unique properties of immersion and interactivity. While extensively applied in STEM fields, their integration into foreign language learning (FLL) remains an evolving area of study. This paper examines current research trends in Uzbekistan and globally, analyzing the impact of game-based learning (GBL) and varying levels of immersion on learner motivation and retention. The findings suggest that while these technologies hold significant potential, empirical results regarding their efficacy are mixed, necessitating further research into pedagogical design tailored to learner needs.

Keywords: augmented reality, virtual reality, foreign language learning, immersive technologies, game-based learning.

1. Introduction. The rapid advancement of computer-generated imagery has introduced Augmented Reality (AR) and Virtual Reality (VR) as potent tools in education. AR overlays digital information onto the physical world, whereas VR provides a fully immersive, 360-degree virtual environment.

Historically, these technologies have been utilized in science and medical training to visualize complex, time-varying objects like anatomy or physics simulations. However, their application in foreign language learning (FLL) is relatively recent. The core challenge in FLL is bridging the gap between theoretical knowledge and practical communication. Immersive technologies offer a solution through simulated role-playing and interactive environments. Despite this potential, there is a noted lack of practical knowledge and theoretical grounding specifically for FLL contexts in regions like Uzbekistan.

2. Methods. This study utilizes a classification framework based on Simon (2008) to analyze existing literature from the past six years. The research categorized technologies into two primary groups:

Augmented Reality (AR): Divided into marker-based (scanning 2D codes) and markerless (image analysis).

Virtual Reality (VR): Divided into low-immersion (desktop-based 3D) and high-immersion (360° headset-based).

The analysis focused on empirical papers that scientifically verify the effectiveness of these tools in FLL, moving beyond mere descriptive practical studies.

3. Results. The review of current research reveals several critical findings:

Technology Efficacy: Studies have produced mixed results. For instance, while some research shows increased engagement, others found that AR-based learning resulted in lower vocabulary retention after one week compared to traditional digital tools like Quizlet.

Game-Based Learning (GBL): A significant trend is the integration of game elements into immersive environments. GBL has been shown to improve learner motivation and interaction.

User Acceptance: Questionnaire data indicates a high degree of "perceived usefulness" and a generally positive attitude toward using VR for language acquisition, despite varying levels of statistical significance in actual learning outcomes.

Table 1: Comparison of Immersive Technology Types in FLL

Technology	Subtype	Primary Use Case in FLL	Hardware Requirement
AR	Marker-based	Vocabulary flashcards, interactive textbooks	Smartphone/Tablet

Technology	Subtype	Primary Use Case in FLL	Hardware Requirement
AR	Markerless	Location-based language games	Mobile GPS/Camera
VR	Low-Immersion	Desktop virtual worlds	Standard PC
VR	High-Immersion	Realistic role-playing simulations	VR Headset (HMD)

4. Discussion. The research indicates that the field is currently hyper-sensitive to pedagogy and game design. A notable gap exists regarding the level of abstraction in language learning; it is currently unclear how AR/VR can support advanced conceptual language acquisition versus basic vocabulary.

Furthermore, the cost and functionality of high-immersion VR headsets have improved, making them more feasible for classroom use. However, technology alone does not guarantee success. As seen in the study by Lee (2022), there were no significant differences in motivation between an AR mobile game group and a traditional print game group, suggesting that the design of the learning environment is more crucial than the technology itself.

5. Conclusion. AR and VR possess the capacity to create highly interactive FLL environments that boost student engagement. To move forward, future research in Uzbekistan and abroad must focus on:

Developing theoretical frameworks that align with recent technological shifts.

Tailoring immersive experiences to the specific proficiency levels and linguistic needs of learners.

Investigating the relationship between immersive presentation methods and long-term learning motivation.

REFERENCES

1. Babin, C., Jamard, R., & Sarango-Lapo, C. P. (2023). Students' acceptance and efficiency of virtual reality in French language learning. International Conference on Technological Ecosystems.
2. Kaplan-Rakowski, R., & Gruber, A. (2019). Low immersion versus high-immersion virtual reality: definitions, classification, and examples. Innovation in Language Learning.
3. Lee, J. (2022). Problem-based gaming via an augmented reality mobile game and a printed game in foreign language education. Education and Information Technologies.
4. Milgram, P. (1994). Augmented reality: A class of displays on the reality-spirituality continuum. Telemanipulator and Telepresence Technologies.
5. Salmi, P., Kaasinen, A., & Kallunki, V. (2024). Towards an open learning environment via augmented reality (AR). Social and Behavioral Sciences.

KOREYSVA O‘ZBEK TILLARIDA KELIN KONSEPTINING LINGVOMADANIY TALQINI

Abduraximova Moxinur

Zarmed Universiteti filologiya va tillarni o‘qitish (koreys)

Ilmiy rahbar: Maxammatova Feruza

Zarmed Universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys va o‘zbek tilida “kelin” konseptining lingvokulturalogik jihatdan tahlil qilinadi. Konsept asosida xalqlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar lingvistik jihatdan kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: kelin, madaniyat, lingvokulturalogiya, sheva, urf- odatlar.

Аннотация: В данной статье проводится анализ понятия «невеста» с лингвокультурной точки зрения в корейском и узбекском языках. На основе этого понятия выявляются лингвистические сходства между народами.

Ключевые слова: невеста, культура, лингвокультурология, диалект, обычаи и традиции.

Abstract: This article analyzes the concept of “bride” from a linguocultural perspective in Korean and Uzbek. Based on the concept, linguistic similarities between the peoples are observed.

Keywords: bride, culture, linguocultural studies, dialect, customs and traditions.

Lingvokulturalogiya-bu til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy o'rganadigan fandir. [1,250]. Har bir xalqning o'ziga xos madaniyati,urf-odatlari va qadriyatlari mavjud. O'zbek va koreys xalqlari ham boy tarixiy merosga ega bo'lib, ularning madaniyati oila, hurmat va an'analarga asoslanadi. Ushbu maqolada o'zbek va koreys madaniyatining asosiy jihatlari yoritiladi. O'zbek madaniyati qadimiy tarixga ega bo'lib, mehmondo'stlik va insoniylik asosiy o'rin tutadi. Mehmondo'stlik-mehmonni hurmat qilish juda muhim. Kattalarga hurmat - salom berish, o'rin berish odatiy hol. Oila qadriyatlari- oila jamiyatning asosi hisoblanadi. Milliy urf-odatlari to'ylar, marosimlar juda boy va rang-barang.

Milliy ta'omlari: osh (palov), somsa, lag'mon; milliy kiyimi: atlas, adras, do'ppi.

Koreys madaniyati ham qadimiy bo'lib, tartib-intizom va hurmatga asoslangan. Kattalarga hurmat, ota-onaga sadoqat muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda yosh va mavqe jihatdan muhim rol o'ynaydi. An'analar-qadimiy urf-odatlar saqlanib qolgan. Milliy ta'omlari: kimchi, bibimbop, teokbokk; milliy kiyimlari: hanbok. O'zbek va koreys madaniyatlari o'ziga xos bo'lsa-da, ularni birlashtiradigan jihatlar ko'p. Maqolamizda shu haqida fikr-mulohaza yuritamiz.

Kelin-bu oila va jamiyatda muhim rolga ega bo'lgan ijtimoyi atama. Kelin nafaqat ikki oilani birlashtiradi, balki ikki xalqni birlashtiruvchi qarindoshlik tushunchasidir. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da kelin leksemasiga quyidagicha izoh berilgan: yangi turmushga chiqqan yoki chiqayotgan qiz.[7, 801] O'zbek milliy madaniyatida yaqinda turmush qurgan qizni kelinchak , yoshi ulg'aygach, kelin termini bilan ifodalanadi. O'zbek tilining etimologik lug'ati u so'z asli qadimgi turkiy tilda boshqa joydan yaqinlashish, tomonga harakatlan— ma'nosini anglatuvchi kel— fe'lidan ot yasovchi —(i)n qo'shimchasi bilan yasalgan deyiladi (Devon. Indeks, 42)

Abdumalikova Gulhayo Shavkat qizi
Fergana state university

Abstract. This thesis explores the crucial role of scientific and technological progress in driving economic development in the modern world. It highlights how innovation, research, and technological advancement contribute to increased productivity, competitiveness, and sustainable growth. The paper also examines the interdependence between science and the economy, emphasizing the importance of investment in human capital and research infrastructure. Furthermore, it provides solutions for enhancing innovation-driven growth and discusses the long-term benefits of a knowledge-based economy.

Keywords: scientific progress, innovation, economic growth, technology, human capital, productivity, investment, knowledge economy, digital transformation

Introduction

In the era of globalization and rapid technological change, scientific progress has become a fundamental pillar of economic development. Countries that prioritize research and innovation tend to achieve higher levels of productivity and competitiveness in the global market. The transition from traditional resource-based economies to knowledge-based economies has further strengthened the importance of science as a key driver of growth.

Scientific advancement not only improves industrial efficiency but also transforms entire sectors such as healthcare, education, agriculture, and information technology. For instance, the rise of digital technologies and artificial intelligence has significantly altered the structure of modern economies, making innovation a central component of development strategies.

Problem Statement

Despite the growing importance of science and innovation, many developing countries face significant challenges in integrating scientific progress into their economic systems. These challenges include limited funding for research and development (R&D), inadequate infrastructure, weak collaboration between academia and industry, and a shortage of skilled professionals.

Additionally, over-reliance on natural resources and traditional industries often hinders economic diversification and reduces long-term growth potential. Without a strong scientific foundation, economies struggle to remain competitive in an increasingly technology-driven world.

Proposed Solutions

To address these issues, governments and institutions must adopt comprehensive strategies that promote scientific and technological development:

- **Increased investment in R&D**: Allocating sufficient financial resources to research institutions and innovation projects.
- **Strengthening education systems**: Enhancing STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) education to develop a skilled workforce.
- **Encouraging public-private partnerships**: Promoting collaboration between universities, research centers, and industries.
- **Supporting startups and innovation ecosystems**: Providing funding, mentorship, and infrastructure for entrepreneurial initiatives.
- **Digital transformation**: Integrating advanced technologies such as artificial intelligence, big data, and automation into various sectors.

Results and discussion

The implementation of science-driven policies leads to numerous positive outcomes. Firstly, it significantly increases productivity by optimizing production processes and reducing costs. Secondly, it enhances the quality and diversity of goods and services, enabling countries to compete more effectively in international markets.

Moreover, scientific progress contributes to job creation, particularly in high-tech industries, thereby reducing unemployment and improving living standards. It also attracts foreign direct investment, as investors are more likely to invest in innovative and technologically advanced economies.

In the long term, a strong emphasis on science fosters sustainable development by promoting efficient resource use and environmentally friendly technologies. Countries that successfully integrate scientific progress into their economies tend to achieve stable and inclusive growth.

Conclusion

In conclusion, scientific progress is a powerful engine of economic development. It drives innovation, enhances productivity, and ensures long-term sustainability. Without continuous investment in science and technology, economies risk stagnation and loss of competitiveness.

Therefore, it is essential for governments, policymakers, and institutions to prioritize scientific development as a strategic objective. By fostering a culture of innovation and supporting research initiatives, countries can build resilient and dynamic economies capable of thriving in the modern world.

References

1. World Bank (2020). World Development Report: Trading for Development in the Age of Global Value Chains.
2. OECD (2019). Innovation and Growth in Knowledge Economies.
3. UNESCO (2021). Science Report: The Race Against Time for Smarter Development.
4. International Monetary Fund (2022). World Economic Outlook.
5. The Wealth of Nations – Adam Smith.
6. The Theory of Economic Development – Joseph Schumpeter.
7. United Nations (2023). Sustainable Development Goals Report.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TIBBIYOT VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASIDAGI ROLI: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLI MODELLAR TAHLILI

Turg‘unboyeva Zilola Baxtiyorjon qizi
Andijon davlat texnika institute

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy tibbiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi amaliy ahamiyati tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida tibbiy diagnostikada SI algoritmlarining aniqlik darajasi, kasalliklarni barvaqt aniqlash tizimlari hamda ekologik monitoringda intellektual datchiklarning o‘rni tahlil qilingan. Maqolada sohalardagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun raqamli yechimlar va "yashil" texnologiyalarni integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar keltirilgan bo‘lib, kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье исследуется практическое значение технологий искусственного интеллекта (ИИ) в сферах современной медицины и охраны окружающей среды. В ходе исследования проанализированы уровень точности алгоритмов ИИ в медицинской диагностике, системы раннего выявления заболеваний и роль интеллектуальных датчиков в экологическом мониторинге. В статье представлены научно обоснованные предложения по внедрению цифровых решений и интеграции «зеленых» технологий для устранения существующих проблем в этих сферах, а также описаны ожидаемые социально-экономические результаты.

Annotation: This article examines the practical significance of artificial intelligence (AI) technologies in the fields of modern medicine and environmental protection. During the study, the accuracy level of AI algorithms in medical diagnostics, early disease detection systems, and the role of intelligent sensors in environmental monitoring were analyzed. The article presents scientifically based proposals for

implementing digital solutions and integrating "green" technologies to eliminate existing problems in these fields, and describes the expected socio-economic results.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, raqamli tibbiyot, ekologik monitoring, Big Data, diagnostika, barqaror rivojlanish, intellektual algoritmlar, O‘zbekiston, neyron tarmoqlari, Smart Health.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, цифровая медицина, экологический мониторинг, Big Data, диагностика, устойчивое развитие, интеллектуальные алгоритмы, Узбекистан, нейронные сети, Smart Health.

Key words: Artificial intelligence, digital medicine, environmental monitoring, Big Data, diagnostics, sustainable development, intelligent algorithms, Uzbekistan, neural networks, Smart Health.

I. KIRISH (INTRODUCTION)

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida sun’iy intellekt (SI) nafaqat ishlab chiqarish, balki hayotiy muhim sohalar bo‘lgan tibbiyot va ekologiyaning ajralmas qismiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasida raqamli sog‘liqni saqlash tizimini yaratish va ekologik barqarorlikni ta’minlash ustuvor vazifalar etib belgilangan. Biroq, ushbu sohalarda SI texnologiyalarini keng ko‘lamda joriy etishda bir qator tizimli muammolar mavjud.

Tibbiyot sohasidagi asosiy muammolar:

- Diagnostik xatoliklar: Shifokorlarning ish hajmi yuqoriligi sababli rentgen, Mrt va KT natijalarini tahlil qilishda kichik detallarning e’tibordan chetda qolishi.
- Barvaqt aniqlash tizimining sustligi: Onkologik va kardiologik kasalliklarni simptomlar paydo bo‘lishidan avval prognoz qilish mexanizmlarining yetishmasligi.

Atrof-muhit muhofazasidagi muammolar:

- Ekologik ma’lumotlarning tarqoqligi: Havoning ifloslanishi va suv resurslari holati haqidagi ma’lumotlarning real vaqt rejimida tahlil qilinmasligi.
- Tabiiy ofatlarni bashorat qilish: Iqlim o‘zgarishlari va favqulodda vaziyatlarni aniq modellashtirish tizimlarining past darajasi.

Ushbu muammolar inson salomatligiga va ekologik xavfsizlikka bevosita tahdid solmoqda. Shu sababli, SI algoritmlarini tibbiyot va atrof-muhitga integratsiya qilish orqali samaradorlikni oshirish strategik ahamiyatga ega.

II. NATIJA VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSION)

Tadqiqot natijasida sun’iy intellektning tibbiyot va ekologiyadagi amaliy samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiqildi:

1. Tibbiyotda SI: Neyron tarmoqlari asosida "Smart Diagnostika".

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chuqur o‘rganish (Deep Learning) algoritmlari tibbiy tasvirlarni shifokorlarga nisbatan 30-40% tezroq va 95% aniqlik bilan tahlil qila oladi.

Taklif: "Qonun-GPT" va shunga o‘xshash intellektual tizimlar asosida tibbiy qarorlarni qo‘llab-quvvatlash platformasini yaratish. Bu tizim bemorning laboratoriya tahlillari va genetik ma’lumotlarini solishtirib, shaxsiy davolash rejasini (Personalized Medicine) taklif qiladi.

2. Atrof-muhit monitoringida "AI-Eco-Guardian" tizimi.

Sanoat hududlarida havoning ifloslanish darajasini nazorat qilish uchun SI va datchiklar integratsiyasini yo‘lga qo‘yish zarur.

Taklif: Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va IIoT datchiklaridan olingan "Big Data" (Katta ma’lumotlar) asosida havo sifatini bashorat qiluvchi milliy platformani yaratish. Algoritmlar havodagi PM2.5 zarralari miqdori oshishini 24 soat avval bashorat qiladi va avtomatik ravishda sanoat korxonalariga filtrlash rejimini yoqish haqida buyruq beradi.

3. Resurslarni tejash va "Yashil" iqtisodiyot.

SI qishloq xo‘jaligida suv va o‘g‘it sarfini optimallashtirish orqali atrof-muhitga kimyoviy yukni kamaytiradi. Intellektual sug‘orish tizimlari tuproq namligini tahlil qilib, suv sarfini 30% gacha tejash imkonini beradi.

Muhokama:

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, SI texnologiyalarini joriy etish sog‘liqni saqlash xarajatlarini 15-20% ga qisqartiradi, chunki kasallikni davolashdan ko‘ra uni barvaqt aniqlash iqtisodiy jihatdan ancha arzondir. Ekologiya sohasida esa bu texnologiyalar tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini 25% ga oshiradi.

III. XULOSA (CONCLUSION)

Sun’iy intellektning tibbiyot va atrof-muhit sohalaridagi amaliy qo‘llanilishi insoniyat hayot sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

Kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar:

- Sog‘liqni saqlashda: Kasalliklarni diagnostika qilish aniqligi 98% gacha ko‘tariladi, bemorlarning hayotini saqlab qolish koeffitsienti ortadi.
- Ekologiyada: Atrof-muhit ifloslanishini real vaqtda nazorat qilish imkoniyati yaratiladi, resurs tejamkorligiga erishiladi.
- Iqtisodiyotda: Raqamli transformatsiya hisobiga budjet mablag‘lari optimallashadi va "Yangi O‘zbekiston"ning innovatsion nufuzi ko‘tariladi.

Ushbu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlar himoyasini ta’minlagan holda milliy SI platformalarini rivojlantirish tavsiya etiladi.

IV. ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

[1] Gulyamov S. S. Raqamli iqtisodiyotda sun’iy intellekt texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2021. – 210 b.

[2] Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Tasvir nashriyoti, 2022. – 416 b.

[3] Davenport T. H. The AI Advantage: Putting the Artificial Intelligence Revolution to Work. – MIT Press, 2018. – 232 p.

[4] Rasulov A. M. Atrof-muhit muhofazasida innovatsion menejment. – Toshkent, 2022. – 180 b.

[5] Yo‘ldoshev N. Q. Sanoat iqtisodiyoti va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2019. – 540 b.

[6] World Health Organization (WHO). Ethics and Governance of Artificial Intelligence for Health. – Geneva, 2021.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Sog‘liqni saqlash va ekologiya statistikasi to‘plami. – 2025.

[8] Topol E. Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again. – Basic Books, 2019.

[9] Bekmurodov A. Sh. O‘zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish strategiyasi. – Toshkent, 2020.

[10] International Energy Agency (IEA). Digitalization and the Environment: Global Report. – 2023.

INNOVATSION IQTISODIYOT YANGI O'ZBEKISTON BARQAROR TARAQQIYOTINING ASOSI

Umirqulov Olmos Sanjar o’g’li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilm-fan yutuqlarining zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Muallif yangi texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy omil ekanligini hayotiy misollar orqali asoslab beradi. Shuningdek, ilmiy innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligiga erishish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Fan taraqqiyoti, innovatsiya, iqtisodiy o'sish, innovatsion iqtisodiyot, yangi O'zbekiston

Kirish. XXI asr iqtisodiyotida fan va texnologiyalar eng muhim ishlab chiqarish omillaridan biriga aylandi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yalpi ichki mahsulotning o'sishi tobora ko'proq tabiiy resurslar yoki arzon ishchi kuchiga emas, balki ilmiy-texnik salohiyat va innovatsiyalarga bog'liq holga kelmoqda. Xususan, Janubiy Koreya, Finlandiya va Isroil kabi mamlakatlar o'zlarining tabiiy resurslarga boy bo'lmaganligiga qaramay, fan va tadqiqot-ishlanmalarga yo'naltirilgan sarmoyalar orqali yuqori darajadagi iqtisodiy o'sishga erishdi[1]. O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda fan va innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi. Biroq ilmiy salohiyatni iqtisodiy samaraga aylantirishda hali yechilmagan muammolar mavjud: tadqiqot natijalari real sektorga yetarlicha tatbiq etilmayapti, ilm-fan va sanoat o'rtasidagi aloqa zaiflashgan, hamda ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilayotgan mablag'lar nisbati past bo'lib qolmoqda. Shu sababli mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda mutaxassis olimlar bu muammolarni teran anglagan holda, ilm-fanga yondashuvni tubdan o'zgartirdilar. 2017-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri, shuningdek Prezidentning 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264-sonli "O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida"gi Farmoni ilmiy muassasalar mustaqilligini kengaytirdi, ularni xo'jalik hisobiga o'tkazdi va xususiy sektor bilan hamkorlikni rag'batlantirdi. Bu qarorlar shunchaki ma'muriy o'zgarish emas - iqtisodiyotning innovatsion asosga o'tishini ta'minlovchi poydevor edi. [2]

Natija va muhokama. Mazkur maqola avvalambor quyidagi uchta shu mavzuga bevosita aloqador bo’lgan uchta savolni o’rganib ularga aniq va tushunarli javoblar taqdim etadi**.**

Fanga ajratilgan investitsiyalar va YaIM o'rtasidagi bog'liqliklar qanday**?** 2022-yilda tasdiqlangan "Yangi O'zbekiston - 2030" strategiyasi esa bu yo'nalishni yanada aniqlashtirdi. Strategiyada YaIMdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) sarflanadigan xarajatlar ulushini 2030-yilga qadar YaIMning 2 foiziga yetkazish maqsadi belgilandi. Bugungi kunda bu ko'rsatkich taxminan 0,13–0,2 foiz atrofida, ya'ni rivojlangan mamlakatlar - Janubiy Koreya (4,5%), Isroil (5,4%), Germaniya (3,1%) - dan ancha pastda turibdi. Aynan shu farq O'zbekiston YaIMining texnologik salohiyati hali to'liq ro'yobga chiqmaganini ko'rsatadi. [3]

Prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni bilan tashkil etilgan "Yosh olimlar" dasturi va ilmiy grantlar tizimi yosh tadqiqotchilarni fanga jalb etdi. Inson kapitaliga sarmoya esa uzoq muddatda YaIMga eng yuqori daromad keltiradigan investitsiya turi hisoblanadi - Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim va ilmga sarflangan 1 dollarga nisbatan uzoq muddatli YaIM o'simi 3-5 dollar oralig'ida bo'ladi. [4]

Innovatsion iqtisodiyotni joriy etgan mamlakatlar qanday modeldan foydalangan? Biz quyida bir necha modullar xususida toxtalib o’tmoqchimiz. Birinchi model - Janubiy Koreya "chaeboli" modeli. Janubiy Koreya 1960-yillarda dunyoning eng qashshoq mamlakatlaridan biri edi -aholi jon boshiga daromad Gana va Nigeriyadan ham past edi. Lekin hukumat bitta strategik qaror qabul qildi: davlat resurslari yirik sanoat konglomeratlarini - Samsung, Hyundai, LG, POSCO kabi kompaniyalarni - sun'iy ravishda kuchaytiradi, ular esa evaziga ilmiy tadqiqotlarga sarmoya kiritadi va texnologiyani o'zlashtiradi. Dastlab bu kompaniyalar chet el texnologiyasini ko'chirdi, keyin uni takomillashtirdi, oxirida esa o'z texnologiyasini yaratdi. Bu jarayon "imitatsiyadan innovatsiyaga" deb ataladi. Davlat esa KAIST (Korea Advanced Institute of Science and Technology) kabi ilmiy universitetlarni barpo etdi - bu universitetlar bevosita sanoat ehtiyojlari uchun mutaxassis tayyorladi. Bugun Samsung yolg'iz o'zi yiliga 20 milliard dollardan ortiq ilmiy tadqiqotlarga sarflaydi - bu O'zbekistonning yillik davlat byudjetiga yaqin raqam. Janubiy Koreya modelining O'zbekiston uchun asosiy sabog'i shuki, davlat kichik va o'rta biznesni emas, balki strategik yirik tarmoqlarni tanlaydi, ularga imtiyoz beradi, lekin evaziga texnologik rivojlanish majburiyatini qo'yadi. [5]

Ikkinchi model - Isroil "startap millat" modeli. Isroil tamomila boshqacha sharoitdan chiqdi. Mamlakat kichik, atrofi dushman, tabiiy resurslari yo'q. Shu sababli Isroil 1990-yillarda "Yozma" dasturini ishga tushirdi - davlat xususiy venchur fondlarining har bir dollariga qo'shimcha bir dollar qo'shdi. Ya'ni agar xususiy investor biror startapga 1 million dollar bersa, davlat ham 1 million dollar qo'shdi - lekin foyda chiqsa, davlat o'z ulushini xususiy investorga arzon narxda qaytarib berdi. Bu mexanizm orqali xususiy kapital ilmiy risklarni o'z zimmasiga olishdan qo'rqmay boshladi. Natijada bugun Tel-Aviv dunyoning uchinchi yirik startap markazi - Silicon Valley va Nyu-York dan keyingi o'rinda. Aholi soni 9 million bo'lgan mamlakat yiliga 8 000 dan ortiq yangi startap ro'yxatdan o'tkazadi. Isroil modelining O'zbekiston uchun ahamiyati shundaki, davlatning roli - pul berish emas, balki xususiy kapitalning ilmiy sohaga kirishiga sharoit yaratish. Risk taqsimlash mexanizmi - bu Isroil tajribasining eng kuchli tomoni. [6]

Uchinchi model - Finlyandiya "kichik mamlakat, katta bilim" modeli. Finlyandiya 5,5 million aholiga ega kichik mamlakat. Lekin ta'lim va ilmga investitsiya qilish borasida dunyoda doimiy ravishda top o'rinlarda turadi. Finlyandiya modeli uchta ustunda qurilgan: sifatli ommaviy ta'lim, universitetlar va sanoatning yaqin hamkorligi, va davlatning uzoq muddatli izchil siyosati. "Nokia fenomeni" - bu tasodif emas. Tampere, Helsinki, Aalto universitetlari Nokia bilan shartnoma asosida tadqiqot olib bordi, talabalar kompaniyada amaliyot o'tadi, professor-o'qituvchilar kompaniya muammolarini hal qildi. Bu aylanma tizim Finlyandiyaning texnologik salohiyatini keskin oshirdi. Finlyandiya modelining sabog'i - universitetni sanoatdan ajratmaslik. Universitet nafaqat bilim beradi, balki iqtisodiyot uchun bevosita yechim ishlab chiqaradi. [7]

Endi O'zbekistonga bu modellarning qaysi birini joriy etish mumkin, degan savol tug'iladi. Aslida mutaxassis olimlar O'zbekistonga hech bir modelni to'liq ko'chirmoqchi emaslar - balki mahalliy sharoitiga

mos keladigan aralash yondashuvlarni izlamoqdalar. Prezidentning 2017-yil PF-5264-sonli Farmoni va "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun islohoti - bu Janubiy Koreya modeliga o'xshash, ya'ni davlat ilmiy muassasalarni mustaqillashtiradi va sanoat bilan bog'laydi. IT Park va texnopark tizimi - bu Isroil va Singapur modeliga yaqin, ya'ni innovatsion muhit yaratib, investitsiyani jalb qilish. "Yoshlar - kelajagimiz" dasturi va KAIST tipidagi Inha universiteti Toshkent filiali - bu Finlyandiya modeliga yaqin, ya'ni sanoat ehtiyoji uchun kadrlar tayyorlash. "Yangi O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan 160 milliard dollarlik YaIM maqsadiga erishish uchun esa Xitoy modelidagi kabi xorijiy investitsiyalar va texnologiyani jalb qilish yo'nalishi ham ishga tushirilmoqda. [8]

O'zbekistonda ilm-fanni iqtisodiy drayverga aylantirishning qanday imkoniyatlari mavjud?

Birinchi va eng katta imkoniyat - xom ashyo iqtisodiyotidan qochish zarurati. O'zbekiston bugun asosan paxta, oltin, uran va tabiiy gaz eksport qiladi. Bu mahsulotlarning narxi xalqaro bozorda o'zgarib turadi va mamlakat uni nazorat qila olmaydi. Lekin bilimga asoslangan mahsulot - dasturiy ta'minot, yangi material, dori-darmon, muhandislik yechimi - bunday xavfga kamroq uchraydi. IT Park tajribasi buni allaqachon isbotladi: 2019-yilda IT eksporti 200 million dollar atrofida edi, 2023-yilda esa 500 million dollarga yaqinlashdi. Bu ikki barovardan ortiq o'sish - va bu faqat bitta soha, faqat bir necha yil ichida. Demak, ilm-fanni iqtisodiyotga ulash ishlaydi - faqat kengaytirish kerak. [9]

Ikkinchi imkoniyat – mehnatga layoqatli aholining ko’pligi, ya’ni O'zbekiston aholisining yarmidan ko'pi 30 yoshdan kichik. Bu qulay demografik ustunlikdir. Bugun Prezidentning "Yoshlar - kelajagimiz" dasturi va "Bir million dasturchi" loyihasi minglab yoshlarni texnik sohalarga jalb qilyapti. Inha universiteti Toshkent filiali, Webster universiteti, Turin Politexnika universiteti Toshkent filiali kabi xorijiy universitetlar esa bevosita sanoat ehtiyojiga yo'naltirilgan mutaxassislar tayyorlamoqda. Agar bu yoshlar o'z bilimini mahalliy iqtisodiyotga tatbiq etsa - startap ochsa, tadqiqot qilsa, innovatsion mahsulot yaratsa - bu O'zbekistonning eng kuchli iqtisodiy drayveriga aylanishi mumkin. [10]

Uchinchi imkoniyat - qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalashtirish. O'zbekiston aholisining katta qismi qishloqda yashaydi va qishloq xo'jaligi YaIMda sezilarli ulush tutadi. Lekin bu soha hali an'anaviy usullar bilan ishlayapti. Precision farming - tuproq tahlili asosida aniq sug'orish va o'g'itlash - texnologiyasi O'zbekiston sharoitida suv sarfini 30–40 foizga kamaytirishi mumkin. Isroil quruq iqlimda aynan shu texnologiya yordamida qishloq xo'jaligi eksportini yillik 3 milliard dollarga yetkazgan.[13] O'zbekiston Fanlar akademiyasining tuproqshunoslik va o'simlikshunoslik institutlari bu yo'nalishda tadqiqotlar olib bormoqda - lekin ularning natijalari hali fermerga yetib bormayapti. Bu bo'shliqni texnologiya transfert tizimi orqali to'ldirish - katta imkoniyat. [11]

Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni aniq ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy o'sish bilan fan va tadqiqotlarga sarflanadigan mablag' o'rtasida juda kuchli bog'liqlik mavjud. YaIMning 3-4 foizini tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltiruvchi mamlakatlar - xususan Janubiy Koreya (4,9%) va Isroil (5,4%) - iqtisodiy o'sish sur'atlarida rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan 1,8-2,4 marta oldinda turibdi. Bu tasodif emas. Bu o'nlab yil davomida izchil olib borilgan ilmiy siyosatning bevosita natijasi. [12]

Janubiy Koreya innovatsion iqtisodiyotda yuqori natijalarga qanday erishdi, degan savol ko'p jihatdan O'zbekiston uchun ham amaliy ahamiyatga ega. 1970-yillarda Janubiy Koreya YaIMining atigi 0,3-0,5 foizini fanga sarflar edi - bu raqam O'zbekistonning bugungi 0,13 foizidan unchalik uzoq emas. Lekin Seul hukumati "Milliy fan va texnologiya rivojlantirish rejasi" doirasida har yili bu ulushni asta-sekin oshirib bordi. Davlat Samsung, Hyundai, LG kabi yirik kompaniyalarni ilmiy tadqiqotlarga sarmoya kiritishga grant va soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirdi. Natijada xususiy sektor bugun Janubiy Koreyaning umumiy ITTKI xarajatlarining 75-80 foizini o'z zimmaciga oladi. Bugungi 4,9 foiz - bu 50 yillik sabr va izchil siyosatning mevasidir.[13] Isroil esa butunlay boshqacha innovastion usullarni qo’lladi. Mamlakat hududan kichik, neft yoki gazi yo'q, tabiiy resurslari deyarli cheklangan. Shu sababli Isroil 1980-yillardan boshlab davlat siyosatining o'zagiga "yagona resurs - insoniy aql" tamoyilini qo'ydi. Yozma dasturi orqali xususiy kompaniyalarning ilmiy xarajatlari 50 foizgacha davlat tomonidan subsidiyalandi. Bugun Isroil aholi boshiga to'g'ri keladigan startaplar va patentlar soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi, YaIM o'sish sur'ati esa o'rtacha 3,5-4,5 foizni tashkil etadi - bu G7 mamlakatlarining ko'pchiligidan yuqori [14]. Finlyandiya tajribasi ham alohida e'tiborga loyiq. 1990-yillar boshida mamlakat og'ir iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi - ishsizlik 20 foizga yetdi, banklar quladi. O'sha qiyin paytda Finlyandiya hukumati YaIMning 3,4 foizini ilmga yo'naltirish to'g'risida jasoratli qaror qabul qildi. Natijalari esa ajib bo'ldi: o'sha paytda oddiy gumushkorlik kompaniyasi bo'lgan Nokia aynan shu investitsiyalar tufayli dunyo telekommunikatsiya gigantiga aylandi, va qaror qabul qilinganidan 15 yil o'tib Finlyandiya YaIMi ikki baravar o'sdi. Xitoy misolini ham chetlab o'tib bo'lmaydi. 2000-yilda Xitoy YaIMining 0,9 foizini ITTKIga sarflar edi. Hukumat "15 yillik fan va texnologiya rivojlantirish dasturi" (2006-2020) qabul qilib, bu ko'rsatkichni 2,5 foizga yetkazdi. Natijada Xitoyning texnologik eksporti 2000-yildagi 47 milliard

dollardan 2022-yilda 900 milliard dollarga - ya'ni 19 baravar - oshdi. Bularning barchasi bitta oddiy haqiqatni ko'rsatadi: fan investitsiyalari va YaIM o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik - bu statistik qonuniyat. [15]

Matematik regresiya tahlili ham bu qonuniyatni raqamlarda tasdiqlaydi. Investitdion iqtisodiyotning 1 foizga o'sishi YaIM o'sishiga 5-7 yillik kechikish bilan o'rtacha 0,34-0,52 foizlik ijobiy hissa qo'shadi. Bu raqamni amalda qanday tushunish kerak? Aytaylik, O'zbekiston ITTKI xarajatlarini YaIMning 0,13 foizidan 1,13 foiziga - ya'ni 1 foiz punktga - oshiradi. Bu sarmoyaning to'liq ta'siri 5-7 yildan keyin seziladi. Va o'sha paytda 160 milliard dollarlik YaIM maqsadi hisobida bu 544-832 million dollar qo'shimcha milliy daromad demak - faqat bitta foizli o'sishdan. O'zbekiston holati esa bu xalqaro manzara bilan solishtirganda sezilarli tafovutni ko'rsatmoqda. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimizda tadqiqot va ishlanmalarga YaIMning atigi 0,13 foizi yo'naltirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich nafaqat rivojlangan mamlakatlardan, balki MDH o'rtacha darajasidan (0,7%) ham past. Bu faqat "pul kam" degan gap emas - muammo tuzilmaviy. O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlarning 85-90 foizi davlat budjetidan moliyalanadi, xususiy sektor esa ilmga deyarli sarmoya kiritmaydi. Xorijda bu nisbat aksincha - xususiy kapital ilmni harakatga keltiruvchi asosiy kuch. Bundan tashqari, mavjud mablag' ham ko'plab mayda loyihalarga tarqalib ketgan, ya'ni strategik to'plash tamoyili yo'q. Jahon bankining 2021-yilgi hisobotida ta'kidlanishicha, O'zbekistondagi ilmiy grantlarning o'rtacha hajmi jiddiy laboratoriya tajribasi o'tkazish uchun ham yetmaydi. Solishtirish uchun: Janubiy Koreyaning yirik ilmiy grantlari o'rtacha 2-5 million dollar atrofida. [16]

Xulosa. Ushbu tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan materiallar shuni ko'rsatadiki, fan va innovatsiyalar bugungi kunda iqtisodiy o'sishning ikkinchi darajali omili emas, balki uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi davlatlarning tajribasi buni aniq isbotlaydi - bu mamlakatlar ilm-fanga qilingan investitsiyalar evaziga qisqa vaqt ichida jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. Xususan, Janubiy Koreya 1960-yillarda agrar davlat bo'lgan bo'lsa, bugun yarim o'tkazgichlar, avtomobilsozlik va elektron sanoatda dunyoning eng raqobatbardosh mamlakatlari qatorida turadi. Buning asosida esa izchil fanda innovastiya siyosati va YaIMning 4-5 foizini ilmiy-tadqiqotlarga yo'naltirish yotadi.

O'zbekiston uchun bu muammo ayniqsa dolzarbdir. Mamlakatimiz hozirda iqtisodiy o'sish sur'atlari yaxshi bo'lsa-da, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarflanayotgan xarajatlar hali ham YaIMning 0,2 foizi atrofida qolmoqda. Bu ko'rsatkich jahon o'rtachasidan - 2,6 foizdan - keskin past. Bunday farq bor ekan, biz xomashyo eksportiga tayanib iqtisodiyotni diversifikatsiya qila olmaymiz va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara olmaymiz. Shu sababli, birinchi va eng muhim qadam sifatida ilmiy-tadqiqot xarajatlarini YaIMning kamida 1 foiziga yetkazish zarur. Bu oddiy raqam emas - bu o'zgarishning boshlanish nuqtasi.

Faqat pul sarflash, albatta, yetarli emas. Mablag' qayerga va qanday sarflanishi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, universitetlar, ilmiy muassasalar va sanoat korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash ikkinchi ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak. Bugungi kunda ko'pgina ilmiy tadqiqotlar laboratoriyada qolib ketmoqda — ular haqiqiy ishlab chiqarishga, haqiqiy mahsulotga aylanmayapti. Buning sababi esa aniq: universitetlar va sanoat o'rtasida ko'prik yo'q. Germaniyada Fraunhofer institutlari, Finlandiyada VTT texnologiya markazi aynan shunday ko'prik vazifasini o'taydi. O'zbekistonda ham shunga o'xshash, ammo o'z sharoitimizga moslashtirilgan hamkorlik mexanizmlari qonuniy asosda, ya'ni institutsional jihatdan mustahkamlanishi lozim.

Umuman olganda, yuqorida sanab o'tilgan to'rtta yo'nalish - moliyaviy resurslarni oshirish, hamkorlik mexanizmlarini o'rnatish, soliq rag'batlarini joriy etish va texnoparklarni kengaytirish alohida-alohida emas, birgalikda, izchil va tizimli ravishda amalga oshirilgandagina haqiqiy natija beradi. Bu bir-ikki yillik ish emas. Ammo bu yo'ldan bormasak, xomashyo iqtisodiyotidan chiqib ketish va yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan tarmoqlarni rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. O'zbekistonning bugungi demografik salohiyati, yoshlar ulushi va geografik o'rni - bularning barchasi qulay imkoniyat. Bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanish esa to'g'ri fan va innovatsiya siyosatiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Axmadaliyeva N. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda inson kapitalining ahamiyati va mamlakat iqtisodiyotidagi o`rni//- Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025-yil, oktabr – ilmiy electron jurnal

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2017 yildagi PF-5264-son “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/docs/-3431985

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/docs/-4545884

4.“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi / O'zbekiston Respublikasi hukumat portal / https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy
5. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94. Oxford University Press, USA.
6.Romer, P. M. (1990). Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 98(5), 71–102. University of Chicago Press, USA.
7.Nelson, R. R., & Winter, S. G. (1982). An Evolutionary Theory of Economic Change. Harvard University Press, Cambridge, USA.
8.O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2022). O'zbekistonda ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat: 2022-yil hisoboti. Innovatsion rivojlanish vazirligi, Toshkent.
9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "Yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash va fan sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-yil. Adolat nashriyoti, Toshkent.
10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "Yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash va fan sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-yil. Adolat nashriyoti, Toshkent.
11.Holmatov, D. X. (2023). O'zbekistonda texnoparklar va innovatsion klasterlar rivojlanishining iqtisodiy samaradorligi. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 2(1), 33–47. IT Park, Toshkent.
12.Freeman, C. (1987). Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. Pinter Publishers, London, UK.
13.Lundvall, B. Å. (1992). National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. Pinter Publishers, London, UK.
14.Yusupov, A. Yu., & Berdiyev, N. T. (2020). O'zbekistonda innovatsion faollikni oshirishning iqtisodiy mexanizmlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3(2), 45–58. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent.
15.Toshmatov, Sh. A., & Nazarov, F. B. (2022). O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy muammolari. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(2), 112–125. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent.
16.Lundvall, B. Å. (1992). National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. Pinter Publishers, London, UK.

RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI TALABALARNING TA’LIM TARAQQIYOTI VA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Abdumuxtorova Zuxraxon Abdurashid qizi
Andijon davlat davlat texnika institute

Zamonaviy globallashuv sharoitida talabalar ta’limi nafaqat bilim berish, balki madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga ham qaratilishi lozim. Raqamli platformalar (virtual almashinuv dasturlari, ijtimoiy tarmoqlar asosidagi o‘quv guruhlari va AI yordamida ishlaydigan xalqaro muloqot vositalari) talabalarning ta’lim taraqqiyotini ta’minlash bilan birga madaniyatlararo muloqotni samarali rivojlantirishning muhim vositasiga aylandi. Ushbu platformalar talabalarga turli mamlakatlar va madaniyatlar vakillari bilan real vaqt rejimida hamkorlik qilish, loyihalar amalga oshirish imkonini beradi [1].

Raqamli muhitda madaniyatlararo muloqotning asosiy afzalligi – u geografik va vaqt chegaralarini bartaraf etadi. Masalan, TEC (Technology, Education and Culture) loyihasi doirasida turli etnik va diniy guruhlar talabalari birgalikda onlayn loyihalarda ishtirok etib, o‘zaro hurmat va hamkorlik ko‘nikmalarini oshirgan. Bu model talabalarning raqamli kompetentsiyasini oshirish bilan birga madaniy xilma-xillikka moslashishni ta’minlaydi (Shonfeld, 2021). Xuddi shunday, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlar asosida tashkil etilgan xalqaro guruhlar orqali talabalar madaniy farqlarni anglab, ingliz tili va boshqa tillar orqali muloqot qilishni o‘rganadilar. Bunday tajribalar talabalarda madaniy shokni oldini olish va kommunikativ xatolarni kamaytirishga yordam beradi[2].

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham madaniyatlararo muloqot kompetentsiyasini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Talabalar chet tillarni o‘rganish jarayonida nafaqat grammatika, balki madaniy me’yorlar va noverbal aloqa qoidalarini ham o‘zlashtirishi kerak. Raqamli platformalar (masalan, PenPal Schools, IDialogue yoki AI asosidagi xalqaro ta’lim platformalari) orqali talabalar xorijiy hamkasblari bilan virtual almashinuvda ishtirok etib, ta’lim sifatini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday platformalar talabalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini 30-40% ga oshiradi va ularni xalqaro mehnat bozoriga tayyorlaydi [3].

O‘zbek olimlarining fikricha, madaniyatlararo muloqotni o‘qitish talabalarda kommunikativ xatolarni oldini olish va madaniy shokdan qochish imkonini beradi. Bu jarayon ingliz tili darslarida til elementlari (leksika, frazeologiya) orqali amalga oshirilganda yanada samarali bo‘ladi [4].

Xulosa qilib aytganda, raqamli platformalar talabalarning ta’lim taraqqiyotini ta’minlash bilan birga madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning eng samarali vositasidir [5]. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida shunday platformalarni joriy etish talabalarni globallashgan dunyoga moslashtiradi va ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Kelajakda AI asosidagi xalqaro ta’lim platformalarini yaratish bu yo‘nalishdagi muhim qadam bo‘ladi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shonfeld, M. (2021). Learning in digital environments: a model for cross-cultural alignments in education. Education and Information Technologies. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC7906085/a0ff57
2. Wu, P.H.N. (2018). Developing Intercultural Competence via Social Media. Intercultural Communication. https://www.immi.se/index.php/intercultural/article/download/Wu-2018-1/804/4001139773
3. Fernández Gutiérrez, B. (2022). Preparing Students for Successful Online Intercultural Exchange. Journal of International Students. https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1363795.pdfb8f42d
4. Salamova, N.A. (2024). Talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligi. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarning-madaniyatlararo-muloqot-kompetentligicbc247
5. Olimjonova, K.U. (2023). Madaniyatlararo muloqotning talabalarga o‘rgatilish ahamiyati. Yangi O‘zbekiston talabalari axborotnomasi. https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/download/14039/9786312533
6. Cui, M. (2024). Research on Cross-cultural Education Communication Platform Based on Artificial Intelligence. Atlantis Press. https://www.atlantis-press.com/proceedings/itei-24/1260047210cb532

SUN’IY INTELLEKTNING IQTISODIY BARQAROR O’SISHIGA TA’SIRI VA SOHALAR KESIMIDA QO’LLANILISHI IMKONIYATLARI

Rashidova Zarnigor Azizovna
Zarmed Universiteti Samarqand Kampusi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellektning iqtisodiy barqaror o’sishga ta’siri hamda uning turli sohalarda qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, moliya, sog‘liqni saqlash, ta’lim va qishloq xo‘jaligi kabi yo‘nalishlarda samaradorlikni oshirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, boshqaruv tizimlarini takomillashtirish va iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada ushbu texnologiyaning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga, raqamli transformatsiyaga va uzoq muddatli barqaror o‘sishga qo‘shadigan hissasi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so’zlar:Sun’iy intellekt, iqtisodiy barqaror o’sish, raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar, avtomatlashtirish, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligi, biznes jarayonlari, tahliliy tizimlar, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy islohotlar.

Tadqiqotlar va odamlar intellektual deb hisoblagan.xatti-harakatlarni aniqlaydigan mashinalarni yaratilishini biz sun'iy intellekt deb ataymiz. Eng keng tarqalgan va zamonaviy mashinalar - kompyuter texnikasi va aloqa vositalari hisoblanadi, shuning uchun ham SI yo'nalishi kompyuterlar va hisoblash

tizimlari sohasiga tegishli hisoblanadi. Intellekt atamasi lotincha intellektus so' zidan olingan bo'lib - bu aql, idrok, ong tushunchalarini anglatadi; insonning fikrlash gobilyati.Shunga ko'ra, sun'iy intellekt (artificial intelligence) - inson intellektining alohida funksiyalarini bajarishni ta'minlovchi avtomatik tizim sifatida araladi, masalan, oldindan to'plangan tajribalarga asoslangan bilimlar va tashqi ta' sirlarni ratsional tahlil qilish asosida optimal tanlash va qaror qabul qilish.

Sun'iy intellekt qo'llanilishi strukturasi. Bu struktura uchta hisoblash vositalari majmuasidan tashkil topgan. Birinchi majmua masalani samarali yechish nuqtayi nazaridan loyihalangan dasturni bajaruvchi vositalar majmuidan tashkil topgan, ba'zi hollarda muammoli yo'nalishga ega. Ikkinchi majmua - keng doiradagi foydalanuvchilar talablariga tez moslashuvchi strukturaga ega bo'lgan intellektli interfeys vositalari majmui. Uchinchi vositalar majmui birinchi ikki majmuaning o' zaro alogasini ta'minlaydigan bilimlar bazasi hisoblanadi. Bajaruvchi tizim shakllangan dasturni bajarishni ta'minlaydigan barcha vositalar majmuini birlashtiradi. Intellektli interfeys - dasturiy va qurilmaviy, vositalar tizimi bo'lib, foydalanuvchilar uchun ularning kasbiy faoliyatida vujudga keladigan masalalarni hal qilishda kompyuterni qo'llashni ta'minlaydi. Bilimlar bazasi - boshqa komponentalarga nisbatan markaziy o'ninini egallaydi. Chunki bilimlar bazasi orqali masalani yechishda ishtirok etadigan hisoblash tizimlari vositalarining birlashuvi aralga oshiriladi.

- **Ustunliklari:**
- Ijod qiluvchi.
- Moslashuvchan.
- Hissiy idrokdan foydalanadi.
- Har tomonlama.
- Keng qamrovli bilimdan foydalanadi.
- **Kamchiliklari:**
- Sun'iy oldindan dasturlashtirilgan.
- Aytib turish kerak.
- Belgili idrokdan foydalanadi.
- Tor yo' nalishli.
- Maxsus bilimdan foydalanadi.

Sun'iy intellekt rivojlanish tarixi haqida qisqacha. XX asrning 90- yillarida bir qancha fa`n sohalari bo'yicha maxsus dasturlarini yaratish uchun katta hajmli yuqori sifatli maxsus bilimlarini qo'llanishi bilan xarakterlanadi. XX asring 90-yillari boshlarida butunlay yangi konsepsiya qabul qilindi. Intellektual dasturni tuzish uchun, izlanish fa`n sohasining yugori sifatli maxsus bilimlari bilan ta'minlash kerak. Shuning uchun loyihalashtirilayotgan **SI-** tizimi yuqori bosqisdagi bilimlar bazasiga ega bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtda eng ko'p tarqalgan konsepsiya bu ekspert tizimlarini **(ET)** loyihalashtirishdir.

SI -sohasidagi tadqiqotlarning boshlanishini (50-yillar oxiri) Nyuell, Sayman va shoulaming turli xil masalalarni yechish jarayonlarini tadqiq etish ishlari bilan bog'lashadi. Ular ishining natijasi mulohazalar hisobidagi teoremalarni isbotlashga mo'ljallangan «MANTIQCHI-NAZARIYOTCHI» va «UMUMIY MASALA YECHUVCHI» dasturlari bo'ldi.

Sun`iy intelektning iqtisodiyotda qo`llanilishidagi natijalar

- Xarajatlar qisqaradi
- Daromat oshadi
- Risklar kamayadi
- Resurslardan samarali foydalanadi
- Nosozliklarni oldindan aniqlash imkoniyati mavjud bo`ladi
- Tezroq ishlash
- Kamroq xato qilish
- Ko`proq maxsulot ishlab chiqarish
- Zavodlar raqobatlashishi
- Banklar avtomatik tizmlanishi
- Mijojlar bilan ishlash osonlashadi
- Nosozliklar oldini olinadi

- ❖ Vaqt tejaladi
- ❖ Resuslardan samarali foydalaniladi
- ❖ Nosozlik oldini aniqlash
- ❖ Aqilli robotlar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish
- ❖ Ekologik muammolarni bartaraf etish
- ❖ Fribgarlikni aniqlash
- ❖ Savdo operatsiyalarini avtomatlashtirish
- ❖ Katta hajmdagi malumotlarni tez tahlil qilib aniq prognoz beradi
- ❖ Ishchi kuchi xarajatlari kamayadi
- ❖ Energiya samarodadorlialigi ko`payadi



Mazkur diagrammada sun'iy intellektning iqtisodiyotdagi qo'llanilishi natijalari foizlar kesimida tasniflangan bo'lib, u sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlikka qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Diagrammadagi natijalar quyidagi ustuvor yo'nalishlarga ajratiladi:

1. Avtomatlashtirish – 35%, Sun'iy intellektning iqtisodiyotdagi eng katta ta'siri avtomatlashtirish orqali namoyon bo'ladi. Bu yo'nalishda SI yordamida: ishlab chiqarish jarayonlari tezlashadi; inson omiliga bog'liq xatolar kamayadi; ish unumdorligi oshadi; vaqt va mehnat resurslari tejaladi.

Tahlil: Avtomatlashtirish korxona va tashkilotlarda operatsion samaradorlikni oshiruvchi eng muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa sanoat, logistika, bank va xizmat ko'rsatish sohalarida uning hissasi yuqori.

2. Xarajatlarni kamaytirish – 25%, Ikkinchi o'rinda xarajatlarni kamaytirish turadi. Sun'iy intellekt quyidagilar orqali iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlaydi: ortiqcha resurs sarfini kamaytiradi; energiya va vaqt yo'qotishlarini qisqartiradi; ishchi kuchi bilan bog'liq ayrim xarajatlarni optimallashtiradi; biznes jarayonlarni samaraliroq tashkil etadi.

Tahlil: Bu ko'rsatkich SI texnologiyalarining korxonalarda iqtisodiy samaradorlik va rentabellikni oshirishdagi ahamiyati katta ekanini anglatadi.

3. Marketing va mijozlarni tahlil qilish – 18%, Sun’iy intellektning yana bir muhim qo‘llanilish sohasi bu marketing va iste’molchilar xatti-harakatini tahlil qilishdir.Bu yo‘nalishda SI: mijozlarning ehtiyojlarini aniqlaydi; shaxsiylashtirilgan takliflar yaratadi; bozordagi talabni oldindan baholaydi; reklama samaradorligini oshiradi.

Tahlil: Mazkur natija sun’iy intellektning savdo, elektron tijorat va xizmat ko‘rsatish sohalarida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

4. Qaror qabul qilishni yaxshilash – 12%, Sun’iy intellekt iqtisodiy boshqaruvda ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Buning natijasida: tahliliy xulosalar aniqroq bo‘ladi risklarni oldindan baholash osonlashadi; strategik rejalashtirish kuchayadi; boshqaruv sifati oshadi.

Tahlil:Bu ko‘rsatkich SI ning boshqaruv va menejment tizimlarida yordamchi vosita sifatidagi rolini aks ettiradi.

5. Innovatsiyalar va yangi mahsulotlar – 10%, Sun’iy intellekt yangi g‘oyalar, xizmatlar va mahsulotlar yaratishda ham muhim rol o‘ynaydi. U orqali:yangi biznes modellari paydo bo‘ladi; innovatsion mahsulotlar ishlab chiqiladi; bozorda yangi imkoniyatlar yaratiladi; ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashadi.

Tahlil: Ushbu ko‘rsatkich nisbatan pastroq bo‘lsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy o‘sishning strategik drayveri hisoblanadi.

Ijobiy	Salbiy	Natijalar
Yangi kasblaring yaratilishi	Ko`proq oddiy ishlar kamayadi	Zavodlarda robotlar odam o`rnini egallamoqda shu bilan birga keng tarmoqli turli sohalarda ham turli xil robotlar yaratilinmoqda
Ishlab chiqarish tezligi va aniqligi oshadi	Ishchilar soni kamayadi	Amazon omborlarida robotlar ishlash jaroyonlarini tezlashtirgan
Ko`plab kompaniyalar xarajatni kamaytiradi	Dastlabki texnalogiyalar qimmatlashadi	AL yoki SI tizimi uzoq muddat ishlanishda juda ham arzon hisoblanadi
Yanada yaxshiroq hamda samali yangidan-yangi bizneslar va startaplar paydo buladi	Bozorlar monopoliyalashishi kutilmoqda	Google, Tesle AL orqali kundan-kunga o`sib rivojlanib bormoqda
Malumotlarga asoslangan aniq va shu bilan birga faktlar bilan qarorlar qabul qilish tezlashdi	Algoritmik qatolar xafi noto`ri ishlashiga olib borishi mumkin	Banklar kreditni Al orqali baxolaydi va ko`pincha to`g`ri va xatolarsiz bo`ladi
Yuqori ma`lumotli,tajribali va o`z ishining ustasi bo`lga ishchilar daromadi oshadi	Past malakali ishchilar daromadi yuqoladi	IT sohasida oyliklar yuqori bo`ladi va bir xillikka asoslanmaydigan tajribalar paydo bo`ladi
Raqobatdordoshlik oshadi demak, yaxshi,yaxshiroq va eng yaxshisi bo`ladi	Rivojlanmayotgan davlatlar ortda qolib yo`qolish arafasida bulishi	AQSH va Xitoy AL bo`yicha yetakchi hisoblanadi
Yetkazib berish tizimi optimmalashadi yanada aniq,tez va oson bo`ladi	Tizmning ishdan chiqishi katta-katta zararlarni olib keladi	AL orqali mashrutlar qisqaradi umuman yuq bo`lishi ham mumkin
Firibgarlikni aniqlash osonlashadi shu bilan birga kamayadi ham	Yangi turdagi kibr xavflar,ma`lumotlar oson va tez o`zgarishi yoki yo`qollishi bo`ladi	Banklarda fraunt detekshin tizmlari ishga tushiriladi
24/7 insonlardan tezoq ishlaydi va xatolar soni kamayadi	Inson nazorati kamayishi mumkin chunki SI ga bog`lanib	Chat botlar doimiy xizmat ko`rsatadi

	yoki ishonib qolish ehtimoli juda yuqori	

Xulosa. Shuni ma’lum qilmanki, bu yozgan maqolamda Sun’iy intellekt bugungi iqtisodiy barqaror o’sishni ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.Sun’iy intellektni turli sohlarda ishlatish mumkin jumladan iqtisodiyot o’sishida ham. Ayniqsa, avtomatlashtirish, marketing tahlili, qaror qabul qilish jarayonlari va innovatsion mahsulotlar yaratishda sun’iy intellektning roli tobora ortib bormoqda.Olib brogan tajriblarimiz shuni ko’rsatdiki, sun’iy intellekt iqtisodiyotning nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. U korxona va tashkilotlarga bozor talablariga tez moslashish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosida yaratilayotgan yangi yechimlar iqtisodiyotda innovatsion muhit shakllanishiga ham zamin yaratadi.Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada keng joriy qilish va ularni ta’limga, tibbiyotga, iqtisodiy-sanoatga va turli sohalarda xizmat ko’rsatishga kengroq ishlatishni iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o’rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sun’iy intellekt, Xo’jaqulov T.A. Malikova N.T. Toshkent,2020.

2.Sun’iy intelekt asoslari Jizzax politexnika Instituti Eshonqulov Sherzod Ummatovich,Qarshiboyev Nizomiddin Abdumalik o’g’li,Jizzax 2022.

3.Sun’iy intellekt asoslari ,SKomolov, Sh. Raxmatov, Innpolis University

2. AI Superpowers / Lee K.-F. AI Superpowers: China, Silicon Valley, and the New World Order. — Boston, MA: Houghton Mifflin Harcourt, 2018.

3. Competing in the Age of AI / Iansiti M., Lakhani K. R. Competing in the Age of AI: Strategy and Leadership When Algorithms and Networks Run the World. — Boston, MA: Harvard Business Review Press, 2020.

4. Prediction Machines / Agrawal A., Gans J., Goldfarb A. Prediction Machines: The Simple Economics of Artificial Intelligence. — Boston, MA: Harvard Business Review Press, 2018.

5. Artificial Intelligence Basics / Taulli T. Artificial Intelligence Basics: A Non-Technical Introduction. — Berkeley, CA: Apress, 2019.

6. Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans / Mitchell M. Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans. — New York, NY: Farrar, Straus and Giroux, 2019

7.Race Against the Machine / Brynjolfsson E., McAfee A. Race Against the Machine. — Lexington, MA: Digital Frontier Press, 2011.

TALABALARDA AQLIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH - DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Hamidova Marjona Hayot qizi
Ilmiy rahbar: Amonova Nargiza Muxtarovna
Buxoro davlat tibbiyot institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi ta’lim tizimi islohotlarini amalga oshirish va rivojlantirish jarayonida talabalarda aqliy kompetentlikni rivojlantirishning mohiyati, kompetentlik sifatlari, talabalarning aqliy kompetentligi masalalari mazmun-mohiyati atroflicha ochib berilgan.

Tayanch so‘z va tushunchalar: kompetentlik, aqliy kompetentlik, kompetentlik sifatlari, tizim, islohot, o‘z-o‘zini baholash, kreativ fikrlash.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim pedagogining vazifasi o‘qitish jarayonida talabalarda faqat reproduktiv fikrlashni emas, balki kompetentligini ham shakllantiradigan yo‘sinda tashkil qilishdir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev respublikamiz o‘qituvchi va murabbiylariga yo‘llagan bayram tabrigida: «... o‘quv-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim va axborot texnologiyalarini, yangi o‘quv metodikalarini joriy etish bo‘yicha hali oldimizda ko‘plab dolzarb vazifalar turganini yaxshi anglaymiz va ularning yechimi ustida doimiy ish olib boramiz»[12], deya ta’kidlagan.

[12] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ўқитувчи ва мураббийларига йўллаган байрам табриги. // «Халқ сўзи» газетаси, 2017 йил 30 октябрь.

Oliy ta’limda ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan aqliy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur? Ayni o‘rinda shunga o‘xshash g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarni, xalqning tarixiy tajribasini madaniy va fan bobidagi ko‘p asrlik an’analarini inobatga olib, jamiyatning istiqboldagi rivojlanish marralarini hisobga olgan holda yurgiziladi. Ta’lim-tarbiya natijasida mamlakatimizda aqliy, intelektual jihatdan boy ma’naviy barkamol shaxslarni shakllantirish amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunini 5-moddasida “Tegishli ma’lumoti, kasb-tayyorgarligi bor va yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega” deb e’tirof etilgan. XXI asrda o‘qituvchidan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab etiladi.

Asosiy qism. Talabalarning aqliy kompetentligini shakllantirish muammosini o‘rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag‘ishlangan, biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayapti, bu esa uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida alohida ahamiyatga egaligidan va uning dolzarbligidan guvohlik beradi.V.A.Slastenin nuqtayi nazariga muvofiq talabalarda kompetentlik strukturasini tadqiq qilish uning tayyorgarlik darajasiga hozirda modernizatsiya qilinayotgan va uzluksiz pedagogik ta’lim konsepsiyasi amalga oshirilayotgan sharoitlarda oliy ta’limi tizimi tomonidan qo‘yilayotgan talablarni aniqlashni nazarda tutadi [2].

Psixologlar L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, P.Y.Golperin ishlariga tayanadigan faoliyatli yondashuvni izchil amalga oshirilishi oliy ta’lim muassasasida o‘qitish maqsadi sifatida o‘qitish subyektida ma’lum faoliyatni bajarishda kasbiy tayyorgarlikni tarbiyalashni ko‘zda tutadi. U holda oliy talim muassasalarida o‘qitishning asosiy natijasi talabalarda kasbiy vazifalarni amalga oshirish, faoliyat masalalarini hal etish bilimlarini shakllantirishdan iborat bo‘ladi[3].

Shu bilan birga, shuni ham qayd etish kerakki, talabalarning aqliy kompetentligini tarbiyalash masalalari tadqiqot obyekti sifatida quyidagi olimlar tomonidan didaktik (M.Ochilov), psixologik-pedagogik (E.G‘oziyev), umumpedagogik (N.N.Azizxodjayeva, O.A.Abdullina), innovatsion (R.A.Mavlonova, V.A.Slastenin), ijodiy (V.A.Kan-Kalik) tayyorlashning ahamiyati va vazifalari o‘rganilgan [4].

Pedagogikada kompetent yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta’lim jarayonlarida mavjud bo‘lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan edi. «Mahorat», «malaka», «salohiyat» masalalari, faoliyat, shu bilan birgalikda, bir qator faoliyatlarning birikuvi M.N.Skatkin, I.Y.Lerner, V.V.Krayevskiy, G.P.SHedrovidskiy, V.V.Davidov va boshqa pedagogika sohasining olimlari ilmiy asarlari asosini tashkil etgan. N.V.Kuzmina, A.K.Markova, E.F.Zeyer, V.A.Slastenin, T.F.Loshakova o‘qituvchining «kasbiy kompetentlik» haqida ko‘plab ishlarni amalga oshirganlar [5].

B.A.Nazarova o‘zining ilmiy ishida D.Dyui, U.Uoller, M.Mid, K.Yung, P.Sorokin, F.Znanetskiylarning falsafasida kompetentlik tushunchasiga shunday ta’rif berganliklarini ta’kidlaydi: «Bu muhitga o‘rganish vositasi, chunki kasb odamni unga to‘g‘rilaydi, odamning qiziqishlarini aniqlaydi, bitta kasbda ishlagan odamlarning qiziqishlarini jamlaydi» [6].

I.V.Grishina kompetensiya shaxsning o‘z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta’riflaydi [8]:

- ushbu faoliyatga bo‘lgan munosabati, unga zarurat va qiziqishi, intilishlari, qadriyatlari, faoliyatdan maqsadi, o‘zining ijtimoiy o‘rnini tasavvur qilishi;
- o‘zining shaxsiy o‘ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeiga, kasbiy bilim, mahorat va ko‘nikmalari, kasbiga xos boshqa xususiyatlariga baho berish;
- shu asosda o‘zini kasbiy jihatdan shakllanishini va o‘sishini boshqara bilishi.

Psixologiyada I.N.Shpilriyen, S.G.Gellershteyn, YE.A.Klimov, V.D.Shadrikov, K.K.Platonov, N.V.Kuzmina fikrlariga ko‘ra hayotda yuz beradigan turli vaziyatlarni, muammolarni yechishga yordam beradigan fazilatlar, qobiliyatlar aqliy kompetentlik deb tushuntiriladi[7].

A.R.Xodjaboyevning fikricha, kompetent nuqtayi nazaridan yondashish ta’limning yangi sifatiga erishish usuli hisoblanadi. Albatta, bunday qarash tasodifiy yuzaga kelmagan, olimning ta’kidlashicha, bu yerda gap insonning ma’rifatliligini o‘lchashning yangi birligi haqida gap ketmoqda, chunki bugungi kunda bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim sifati darajasini to‘liq o‘lchash, uni aniqlash imkonini bermaydi .

N.Muslimovning ta’kidlashicha, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi ta’lim faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Birgalikda o‘quv faoliyati tugallangan shaklda darhol va doimiy ravishda berilmaydi va uning mazmuni faqat olingan bilimlar

mazmuni bilan chegaralanib qolmaydi, bu shaxsni shakllantirish chegaralarini kengaytirishni anglatadi. Bu bilim va tajribani ularni avlod, ishlab chiqarish, o‘zgartirish bilan uzatishning kombinatsiyasi. Talaba shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish jarayonida uning mazmuniga, vositalari va turli usullarining qanday tuzilganligiga alohida e’tibor qaratish kerak, sababi ular talabaga ta’lim olish jarayonida o‘quv materiali, uning turlari va shakllarini tanlash qobiliyatini ko‘rsatishga imkon beradi [8].

Kompetentlik - bu qaysidir kasbda bor bo‘lgan standartga rioya qilish. A.P.Akimova kompetentlikni shunday ta’riflaydi: «O‘z faoliyatida kerak bo‘lgan yangiliklarning, bilimlarning, qobiliyatlarning yig‘indisi va atrof muhit bilan o‘zaro to‘g‘ri kelishi».

Tahlil va natijalar. Kompetensiya va “kompetentlik” atamalari o‘zakdosh bo‘lib, ular G‘arb ilmiy adabiyotida 60 yillarning oxiri, 70 yillarda paydo bo‘ldi. “Kompetensiya ” atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90 yillaridan e’tiboran ishlatila boshlagan. “Kompetensiya” atamasi “pedagogik madaniyat”, “kasbiy layoqatlilik”, “kvalifikatsiya” atamalari bilan ma’nodosh hisoblanib kelindi. “Kompetensiya” – muayyan muammo va masala, xodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo‘lishni o‘zida ifoda etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda kompetensiya pedagogik xodisa sifatida XX asrning 70 yillaridan e’tiboran tadqiq etila boshlandi. Amerika tadqiqotchilari: Dj Raven, L. Stross,Dj.Morenolar fikricha, kompetentlik – “ shaxsning ixtisosligi bo‘yicha aniq faoliyatni bajarishda zarur bo‘ladigan qobilyatlar majmui, malakalarning namoyon bo‘lishi, mas’uliyat hissining mujassamlashuvi natijasida paydo bo‘ladigan tafakkur turi ” deb tavsifladilar. Rus olimlari: S.T. Vershlovskiy i Y.N. Kulutkin kompetentlikni shaxs tavsifi bo‘yicha o‘rgangan bo‘lsalar, V.Y.Krichevskiy, A.V.Xutorskiy – shaxs faoliyatidagi maqsadlarni amalga oshirish ko‘rsatkichlarini tadbiq etadilar.

Rus olimlari L.N.Zaxarova, V.V.Sokolova, V.M.Sokolovlarning fikricha kasbiy kompetensiya ostida amaliy masalalarni samarali yechish qobiliyatini tushunish rivojlanayotgan shaxsni ijtimoiylashtirish, ichki sharoitlarni ta’minlash, rivojlanishi tufayli shaxsning jamiyatga faol qo‘shilishi qadriyat yo‘nalishlari, tabiat, jamiyat, ma’naviy yo‘nalish odamlar tajribasi, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish ijtimoiy jihatdan kerakli yoki hech bo‘lmaganda maqbul bo‘lgan faoliyat o‘zini anglash tavsiya etiladi[9].

I.A. Kolesnikova fikricha, dastlabki ko‘rsatkich kasbiy kompetensiya bu "insonga bo‘lgan munosabat, o‘qituvchining ishi - bu “shaxs – shaxs” tizimidagi faoliyat. Aynan shuning uchun shaxsiy-gumanistik yo‘nalish kabi tarkibiy qism, bugungi kunda kasbiy kompetensiya tarkibida integrativ ko‘rsatkich sifatida taqdim etilgan kasbiy va shaxsiy xususiyatlardir. Haqiqiy kasbiy ta’lim sohasi ham muntazam ravishda idrok etish qobiliyati bilan ajralib turadi pedagogik jarayon va unda muntazam ravishda harakat qilish natijasida kasbiy kompetensiya shakillanib rivojlanib boradi [10].

Kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o‘rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to‘la ochiladi, u quyidagi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari to‘plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida.

«Kompetentlik» – tushunchasi esa, shaxsning doimo o‘sib boruvchi tasnifi bo‘lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o‘z bilimi, o‘quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi. «Kompetentlik» atamasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Bu tushuncha noan’anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o‘zini qanday tutish, muloqotga kirishish, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to‘g‘risida nazariy bilimlar zarurligini ko‘rsatadi.

Inglizcha «competence» tushunchasining lug‘aviy ma’nosi «qobiliyat» demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi. G‘arb mamlakatlarida shakllangan an’anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentlik, ta’lim tizimi esa – bilim, ko‘nikma va malakalar darajasi bilan o‘lchanadi.

Xorijiy mamlakatlarda an’anaga muvofiq ishchining bilim va malakalarining o‘ziga xos-xususiyati hisoblangan mutaxassislik (malakaviy) standartlari ishlab chiqiladi. Ushbu standart natijanigina (nimaga erishilishi kerak) qayd etadi. Kompetensiya o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan

foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Xulosa. Talabalarning aqliy kompetentligini shakllantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni berish mumkin bo‘ladi:

– o‘zlashtirilgan ijtimoiy tajribalarni qayta ishlash, izlanuvchanlik va ijodkorlik faoliyatlarida namoyon bo‘ladigan aniq ifodalangan yo‘naltirilganlik, bilimlarni egallash faolligi;

– kasbiy faoliyatda ko‘p uchraydigan har qanday nostandart vaziyatlarda mustaqil ravishda qaror qabul qila olishga, shuningdek, yaxlit jarayonning barcha voqea va hodisalari, dalillarini tahlil qila bilishga asos yaratadigan ilmiy tafakkurni rivojlantirish;

– milliy va jahon madaniyatini egallaganlik, ta’lim olish jarayonini anglaganlik, o‘zining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish, o‘z o‘zini rivojlantirishga yo‘nalganlik, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish kabi keng doirani o‘z ichiga olgan mustaqil ta’limni tashkil etish;

– talabalarni aqliy faoliyatga tayyorlashni individuallashtirish orqali aqliy va amaliy faoliyatida o‘zining individual uslublariga ega bo‘lish imkonini beradigan ta’limni tashkil etish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O‘zbekiston», 2017.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. –R. 4.
3. Ishmuhamedov R., Mirsoliyeva M., O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. -60-b.
4. Zeyer E.F., Shaxmatova N. Lichnostyu oriyentirovanniye texnologii pofessionalnogo razvitiya spetsialista. – Yekaterinburg, 1999.
5. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: «Znaniye», 1996.
6. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. /Monografiya. – T.: «Fan», 2004.
7. Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: «Iqtisodiyot», 2012.
8. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B., Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Sano standart», 2015.
9. Ivanov D.I. Kompetentnosti i kompetentnostniy podxod v sovremennom obrazovanii/ D.I. Ivanov // Vospitaniye. Obrazovaniye. Pedagogika. -2007.-№6(12).
10. Samiyeva S. Инновационное развитие проектных навыков учащихся на основе креативного подхода //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.

ПРОЕКТНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ИНСТРУМЕНТ ДЛЯ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Князева Анастасия Игоревна
Научный руководитель: доктор культурологии, профессор
Григорьева Елена Ивановна
Московский государственный институт культуры

Аннотация. В статье рассматривается проектная деятельность как эффективный педагогический инструмент для развития самостоятельности и критического мышления студентов высшей школы.

Анализируются теоретические подходы к определению ключевых компетенций и этапы проектной работы, способствующее активизации субъективной позиции обучающихся. Автор приходит к выводу, что системное использование проектной деятельности позволяет преодолеть ограничения традиционной «знаниевой» парадигмы и обеспечить развитие у студентов универсальных компетенций, необходимых для успешной профессиональной деятельности в условиях неопределённости.

Ключевые слова: проектная деятельность, самостоятельной студентов, критическое мышление, компетентностный подход, тьюторское сопровождение, рефлексия, высшее образование, метод проектов, субъектная позиция, универсальная компетенция.

Введение. Современная система высшего образования находится в состоянии перманентной трансформации. Если ещё несколько десятилетий назад основной целью вуза была трансляция суммы знаний от преподавателя к студенту, то сегодня на первый план выходит компетентностный подход. Работодатели и общество в целом ожидают от выпускника не столько энциклопедичности, сколько способностей действовать в условиях неопределённости, самостоятельно принимать решения и нести за них ответственность.

В Федеральных государственных образовательных стандартах (ФГОС) последнего поколения ключевыми становятся такие категории, как «универсальные компетенции». Среди них особое место занимают способность к самоорганизации и саморазвитию (самостоятельность) и способность к критическому анализу, оценке и выбору информации (критическое мышление).

Одним из наиболее эффективных педагогических инструментов, позволяющих интегрированно развивать эти качества, является проектная деятельность. Она выходит за рамки чисто академических задач, моделируя реальные профессиональные и жизненные ситуации. Данная статья посвящена анализу потенциала проектной деятельности как средства формирования самостоятельности и критического мышления студентов, а также описанию методических условий, при которых этот потенциал раскрывается наиболее полно.

Результаты и обсуждение. Прежде чем рассматривать проектный метод как инструмент развития, необходимо определить, что именно мы развиваем. Понятия «самостоятельность» и «критическое мышление» часто используются в педагогической литературе, но их сущность требует уточнения.

Самостоятельность студента – это интегративное качество личности, выражающееся в способности без внешнего принуждения (но с возможностью консультативной поддержки) ставить цели, планировать деятельность, выбирать средства для достижения результата, осуществлять контроль и коррекцию своих действий, а также отвечает за конечный продукт. «Самостоятельность личности студента проявляется в самоорганизации и саморегуляции деятельности, не требующей помощи со стороны преподавателя, способности принимать самостоятельные, не зависящие от других решения во время работы над учебными и профессиональными задачами, ставить перед собой новые задачи и находить способы их решения» [1, с. 114]. В психолого-педагогическом контексте (работы П.И. Пидкасистого, И.Я. Лернера) самостоятельность рассматривается не как изолированное действие, а как характеристика деятельности, при которой субъект сам управляет этапами работы.

Критическое мышление в современной трактовке (Д. Клустер, Д. Халперн) – это сложный мыслительный процесс, начинающийся с постановки вопроса и заканчивающийся принятием обоснованного решения. Критическое мышление включает в себя способность оценивать достоверность источников информации, умение выявлять логические ошибки и манипуляции, готовность рассматривать проблему с разных точек зрения, способность аргументированно оставить свою позицию.

Важно отметить, что эти два качества находятся в диалектической взаимосвязи. Развитие самостоятельности невозможно без умения критически оценивать промежуточные результаты своей работы, а подлинное критическое мышление не формируется в пассивной позиции «получателя знаний». Проектная деятельность выступает той средой, где эти два процесса синхронизируются.

Термин «проектная деятельность» имеет богатую историю. В российской педагогике метод проектов активно разрабатывался С.Т. Шацким, а в современной высшей школе получил второе рождение в связи с переходом на практико-ориентированные модели обучения. «Проектную деятельность считают одним из наиболее эффективных инструментов, формирующих у студентов конкретные практические навыки и умения и развивающих личностные качества» [2, с. 153].

Сущность проектной деятельности заключается в решении студентами (индивидуально или в команде) практической, исследовательской или социально значимой задачи, требующей интеграции знаний из различных предметных областей, результатом которой является конкретный продукт. «Проектная деятельность – это творческая учебная деятельность, цель которой – это решение практической цели или задачи. Содержание проектной деятельности определяется

обучающимися и осуществляется ими в процессе теоретической проработки и практической реализации при консультации непосредственно педагога» [3].

В структуре проектной деятельности принято выделять следующие этапы, каждый из которых предъявляет определенные требования к самостоятельности и критическому мышлению студента:

1. Проблематизация и целеполагание. Студент должен выявить противоречие (зачем это нужно?) и самостоятельно (или с минимальной консультацией) сформулировать цель проекта. Это требует критического взгляда на реальность и самостоятельности в выборе направления.
2. Планирование. Разработка дорожной карты, то есть распределение времени, ресурсов, определение этапов работы. Здесь развивается способность к стратегическому мышлению и самоорганизации.
3. Поиск информации и её анализ. Сбор данных, работа с источниками. На этом этапе критическое мышление задействовано максимально, студент учится отличать факты от мнений, проверять валидность данных.
4. Реализация (создание продукта). Практическое воплощение замысла. Самостоятельность проявляется в принятии оперативных решений по мере возникновения технических или организационных сложностей.
5. Презентация и защита. Публичное представление результатов. Требует навыков рефлексии и самооценки (критического взгляда на собственный продукт).
6. Рефлексия. Осмысление пройденного пути, выявление ошибок и формулирования выводов на будущее.

Классификация проектов может быть различной: по доминирующей деятельности (исследовательские, прикладные, ролевые, информационные), по продолжительности (мини-проекты, междисциплинарные, долгосрочные), по форме организации (индивидуальные и групповые). Однако независимо от типа, механизмы развития личностных качеств остаются едиными.

Самостоятельность не возникает спонтанно. Её развитие в рамках проектной деятельности обеспечивается через смену типа взаимодействия в системе «преподаватель – студент». Если на лекции студент находится в позиции объекта педагогического воздействия, то в проекте он становится субъектом.

Критическое мышление в проектной деятельности развивается не на специальных тренингах, оно вплетено в ткань решение задач, где информация является ресурсом, а не конечной целью. «Проектное обучение обладает значительным потенциалом для развития критического мышления обучающихся, поскольку создаёт условия для исследования, аргументации, принятия решений и рефлексии» [4].

На этапе сбора информации студент сталкивается с избыточностью и противоречивостью данных. В современном мире, где интернет переполнен недостоверными сведениями, проект требует верификации источников. Здесь студент вынужден задаваться вопросами: Кто автор источника? Какова цель публикации? Не является ли информация устаревшей? Формирование навыка фактчекинга в рамках проектной работы является одним из важнейших результатов обучения.

Проектная деятельность почти всегда включает этап защиты, где студенту приходится отстаивать своё решение перед комиссией или сокурсниками. В ходе дискуссии он сталкивается с возражениями, что требует от него не механического воспроизведения текста доклада, а гибкости мышления, способности быстро перестраивать аргументацию, признавать корректность встречных замечаний и включать их в свою логику [5, с. 260].

Для развития самостоятельности необходима система «своевременной помощи». Вместо того чтобы давать ответ, преподаватель использует технологию «вопросов-скобок»: «Как ты планируешь проверить эту гипотезу?», «Какие альтернативные подходы ты рассматривал?». По мере роста компетентности студента степень поддержки снижается.

Заключительным условием можно назвать организацию взаимного оценивания. Включение механизмов, когда студенты оценивают проекты друг друга по заданным критериям, многократно усиливает развитие критического мышления. Оценивая чужую работу, студент учится видеть сильные и слабые стороны, что позволяет ему экстраполировать этот опыт на собственный проект.

Заключение. Несмотря на очевидные преимущества, внедрение проектной деятельности как системного инструмента развития самостоятельности и критического мышления сталкивается с рядом объективных и субъективных трудностей.

В первую очередь речь идет о проблеме субъектной позиции преподавателя. Как отмечалось выше, многие преподаватели, особенно старшего поколения, привыкли к авторитарной модели. Переход в позицию тьютора, где нужно «держать паузу», позволяя студенту ошибиться, психологически сложен. Преподаватель боится потери контроля и снижения академической успеваемости (в краткосрочной перспективе).

Здесь же можно выявить следующую проблему – ресурсные ограничения. Качественное сопровождение проектной деятельности требует высокой трудоёмкости от преподавателя (индивидуальные консультации, проверка промежуточных этапов). При большой численности учебных групп (25-30 человек) обеспечить глубокую тьюторскую поддержку практически невозможно без использования цифровых инструментов и пересмотра учебной нагрузки преподавателя.

Еще одной проблемой можно обозначить сопротивление студентов. Студенты, воспитанные в системе «заучивание – воспроизведение», часто воспринимают проектную деятельность как лишнюю нагрузку. Непривычка к самостоятельности порождает тревожность. В начале работы студенты могут требовать дать готовый план, и, если преподаватель идёт на поводу, эффект развития теряется.

Сложность объективной оценки также является трудностью внедрения проектной деятельности. Традиционная пятибалльная система плохо приспособлена для оценивания таких сложных конструкторов, как «критическое мышление» или «самостоятельность». Если не использовать детализированные рубрики и портфолио, оценка становится субъективной, что демотивирует студентов.

Подводя итог, можно утверждать, что проектная деятельность является не просто одним из методов обучения, а мощным педагогическим инструментом формирования ключевых компетенций XXI века – самостоятельности и критического мышления.

Список использованной литературы

1. Елагина В. С. Формирование самостоятельности студентов как основа профессионального становления будущего специалиста // Инновационное развитие профессионального образования. – 2025. – №4 (48) – С. 112-119. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-samostoyatelnosti-studentov-kak-osnova-professionalnogo-stanovleniya-buduschego-spetsialista (дата обращения: 25.03.2026).

2. Вылегжанина С.Ю. Опыт реализации проектной деятельности в вузе: проблемы и пути решения // Вестник Марийского государственного университета. – 2019. – №2 (34) – С. 153-160. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-realizatsii-proektnoy-deyatelnosti-v-vuze-problemy-i-puti-resheniya (дата обращения: 23.03.2026).

3. Федосеева Л.А., Жидков А.А., Гордеев К.С., Илюшина Е.С., Ермолаева Е.Л. Проектная деятельность обучающихся: понятие, сущность, виды проектов // Гуманитарные научные исследования. – 2021. – № 1 [Электронный ресурс]. URL: https://human.snauka.ru/2021/01/36070 (дата обращения: 21.03.2026).

4. Корнилова, М.И. Роль проектной деятельности в формировании критического мышления у студентов: анализ эффективности и влияние на развитие аналитических навыков // Молодой ученый. – 2026. – № 9 (612). – С. 81-83. URL: https://moluch.ru/archive/612/133890 (дата обращения: 23.03.2026).

5. Попова Т.А. Проектная деятельность в образовательном пространстве // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Образование и педагогические науки. – 2020. – №3 (836) – С. 252-265. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/proektnaya-deyatelnost-v-obrazovatelnom-prostranstve (дата обращения: 25.03.2026).

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE DIGITAL TRANSFORMATION OF THE ECONOMY

Manizha Kandikova
Tajik National University

Abstract. This paper analyzes the role of artificial intelligence technologies in the digital transformation of the economy. A key feature of the current stage of economic development is that artificial intelligence has become a new driver of economic growth, a means of stimulating investment and innovation. Artificial intelligence technologies, research and development in the field of artificial intelligence equipment and its applications, will likely become the main focus of investment in the near future.

Keywords: artificial intelligence technologies, digital transformation, digital economy, digitalization, automation, innovation, digital technologies.

Introduction. The modern world has entered a new stage of scientific and technological development. One of the key areas of this revolution is digitalization and artificial intelligence, which are significantly changing the economy, education, healthcare, public administration, and, in general, everyday life. In the 21st century, artificial intelligence has become one of the most important areas of scientific and global economic development. We see that countries have achieved significant progress using artificial intelligence in healthcare, education, agriculture, energy, and public administration. In the modern era, artificial intelligence is recognized as the driving force of the global industrial revolution and the engine of digitalization.

A key feature of the current stage of economic development is that artificial intelligence has become a new driver of economic growth, a means of stimulating investment and innovation. Artificial intelligence technologies, research and development of artificial intelligence equipment, and its application will likely become a major investment area in the near future [1]. While the current wave of interest in artificial intelligence is largely constructive, it reflects emerging trends in the global economy, the need to develop the real sector of the economy, and the transformation of systemic links within the core economic system, such as energy supply chains or primary mineral processing products. The risk of a reverse investment cycle associated with the development of artificial intelligence is that investment resources are wasted, with minimal practical benefit [3]. Preventing the collapse of these "investment nodes" will be an important element of the competitiveness of the system associated with the implementation of AI-based technologies—the cost of even a short-term delay could be very high.

Results and Discussion. Effective use of artificial intelligence can open up new opportunities in important socio-economic sectors of any country. Today, the world is witnessing unprecedented progress in artificial intelligence, from large-scale language models to socio-economic intelligence platforms. Artificial intelligence is not just an auxiliary tool; it has permeated all aspects of human life, including decision-making and planning. According to international experts, by 2030, artificial intelligence could make a significant contribution to the growth of global gross domestic product. Countries that lay the political, economic, and human foundations for the development of artificial intelligence today will be at the forefront of global development tomorrow. The Republic of Tajikistan, in accordance with the visionary policy of the Founder of Peace and National Unity – Leader of the Nation, President of the Republic of Tajikistan, the Honorable Emomali Rahmon, attaches paramount importance to sustainable economic, social, and technological development [4]. To digitalize social services, especially in unfavorable market conditions, it is necessary to take into account the following specific features of the social services sector: firstly, social services are essentially intended to meet the social interests of society (literacy, public health, cultural and spiritual values, etc.); secondly, regardless of the form or interests of the subject, social services are regulated by the state; thirdly, to ensure high quality of social services, appropriate norms and standards are developed and implemented; fourthly, social services are provided to an unlimited number of consumers, both individuals and legal entities, in accordance with their rights [2].

In the very near future, we may face a transition of the social system (social services, medicine, education) to post-human algorithms, which could have enormous and not always predictable consequences. More than ten national startups have been created in the Republic of Tajikistan, many of which have found a place in international markets, and ten universities in the country have included artificial intelligence in their curricula. A project to teach artificial intelligence in 100 secondary schools has begun. In Dushanbe, with government support, a free artificial intelligence zone has been established as a dedicated

innovation zone. In June 2025, the Darya.ai artificial intelligence center officially opened in the Darvaz district of Tajikistan. This is not only a technology hub but also the starting point of an innovative ecosystem for the development of artificial intelligence and the digitalization of the country. The opening ceremony was held with official participation and the use of cutting-edge technology. This will create the foundation for the development of local startups, research, and human resources. According to experts from the Council for the Development of Artificial Intelligence under the Ministry of Industry and Technology of the Republic of Tajikistan and international partners, Tajikistan will be able to train approximately 20,000 young specialists in artificial intelligence by 2030. All these steps demonstrate that Tajikistan is placing special emphasis on the use of advanced artificial intelligence technologies and the development of national models of artificial intelligence and modern governance. We plan to attract up to 20,000 young specialists in artificial intelligence to the labor market over the next five years. By 2030, we will achieve the goal of fully digitalizing the public administration system with artificial intelligence components.

It's worth noting that the effectiveness of modern information technologies depends, above all, on the connection between marketing and information services, which allows for the creation of a structure that integrates a bank's external and internal communications.

Banks specializing exclusively in remote customer service are emerging. The main advantages of e-banking include relatively low regulatory costs and the broadest possible customer reach (in fact, every internet user is a potential e-bank client).

Innovative banking products and services, currently implemented using artificial intelligence technologies, are being introduced in various financial market segments, including:

- these services include various types of P2P card-to-card money transfers;
- commercial banking products have been developed, including cloud migration, such as borrower loan settlements;
- innovative deposit and loan management software; - automated sales;
- innovative trading account management software for the Forex market and brokerage companies;
- a seamless multi-channel (omnichannel) approach to service that helps increase customer loyalty, expand audience reach, and enables the collection of essential customer information and financial planning;
- implementation of blockchain technologies using cryptocurrency.

Conclusion. Thus, the emergence of artificial intelligence in the market is driven by the gradual digitalization of the economy and other sectors. Constant competition to attract consumers, as well as managing economic security and other risks, have led to a rapid growth in interest in artificial intelligence. Another important factor is the need to process large volumes of data. Effective use of artificial intelligence can create new opportunities in important socio-economic sectors of any country. The advantages of artificial intelligence demonstrate that by focusing on innovation and local talent, we can build a digital and sustainable future for the country, leveraging national capabilities and modern technologies. In a context of globalization and fierce competition, artificial intelligence technologies can transform Tajikistan into a regional AI hub, for example in environmental protection, job creation, education and research, and economic development.

References

1. Ahmadi Fatima. The influence of artificial intelligence on tourism management / Ahmadi Fatima // Manager vs artificial intelligence: instead of or together? Russian University of Friendship of Peoples (RUDN). -2020. -P.13 17.

2. Makhkamzoda, F. F. Development of tourism business of the Republic of Tajikistan through the use of marketing technologies / F. F. Makhkamzoda, I. O. Hasanova // State management. – 2024. – No. 4-3(71). – P. 178-185. – EDN XXRSFT.

3. Shamsov I.S. Electronic government in the process of developing the information society / I.S. Shamsov // Message of the National University of Tajikistan. Department of Social, Economic and Public Sciences. -Dushanbe, 2016. No. 2/2(197). -P.33-37.

4. Shamsov, I.S. Expansion of tax digitization in the direction of tax administration development / I.S. Shamsov, A.F. Ismatov // Finance and Economics Bulletin of the Tajik State University of Finance and Economics. -Dushanbe, 2022. -№1(30). -P.91-97.

INSON KAPITALIGA KIRITILGAN SARMOYA - KELAJAK IQTISODIYOTINING MUSTAHKAM ASOSI.

Tolmasov Norbek Hasan o'g'li,
O'roqov Quvonchbek Azim o'g'li.
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston mehnat bozori va ta'lim tizimi misolida inson kapitaliga kiritilayotgan sarmoyalarning iqtisodiy rentabelligi tahlil qilingan. Tadqiqotda yoshlardagi kutilmalar inflyatsiyasi va maktablardagi ixtisoslashuv muammolari ochib berilgan. Inson kapitali samaradorligini oshirish maqsadida xususiy maktablarni qo'llab-quvvatlash orqali erta ixtisoslashuvni ta'minlash hamda oliy ta'lim muassalari bitiruvchilari uchun xorijiy til sertifikatini (boshlang'ich darajada) majburiylashtirish taklif etilgan. Bu choralar yoshlarning xalqaro mehnat bozoriga moslashuvini tezlashtirish, ishsizlikni kamaytirish va mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, kutilmalar inflyatsiyasi, sarmoyalar rentabelligi, erta ixtisoslashuv, xususiy maktablar, xorijiy til sertifikati, mehnat eksporti, yalpi ichki mahsulot (YaIM).

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda davlatning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil moddiy resurslar emas, balki inson kapitali hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Bizga quruq diplom emas, balki o'z ishining yetuk mutaxassislari kerak" degan konseptual g'oya mamlakat mehnat bozoridagi mavjud paradigmani tubdan o'zgartirishning huquqiy va amaliy asosi bo'lib xizmat qiladi.[13] Ushbu strategik yondashuv ta'lim muassasalaridan hujjatli kadrlarni emas, balki bevosita iqtisodiy qiymat yaratuvchi, yuqori amaliy kompetensiyaga ega bo'lgan inson kapitalini tayyorlashni qat'iy talab etadi. Biroq, ta'lim tizimiga kiritilayotgan ham davlat, ham o'zbekistonlik ota-onalarning sarmoyalari har doim ham o'zining kutilgan iqtisodiy samarasini bermayotgani kuzatilmoqda.

Ushbu nomutanosiblikning birinchi sababi mehnat bozoridagi "kutilmalar inflyatsiyasi" [14] va yoshlarning moslashuvchanlik darajasi pastligidir. Ota-onalar tomonidan farzandlarining oliy ta'limi uchun katta miqdorda sarmoyalar kiritilayotgan bo'lsa-da, bitiruvchilarda vaqtni to'g'ri boshaqarish ya'ni time managment, moliyaviy savodxonlik va hisob-kitob ko'nikmalarining yetishmasligi va oqibatda kredit tuzoqlariga tushib qolish muammoni chuqurlashtirmoqda. Oliy ta'limni tugatgan yoshlar o'z mutaxassisligi bo'yicha past moshli ishlardan boshlab malaka oshirish orqali o'z kapitalizatsiyasini oshirish o'rniga, darhol yuqori daromad talab qiladi. Bunga erisha olmagach, o'z sohasini tark etib, malaka talab etilmaydigan boshlanishida yuqori daromad taklif etadigan, keyinchalik esa o'z qiymatiga ega bo'lmaydigan tarmoqlarga o'tib ketishmoqda.

Ikkinchi muammo - bu inson kapitalining poydevori hisoblangan maktab ta'limidagi loqayidlilik yondashuvlardir. O'quvchilarning moslashish, ta'lim olish va ijtimoiy shakllanishi asosan 1-5 sinflar oralig'ida yaxshi shakillanadi, bu davrda ularga umumiy bilimlarni berish foydaliroq va ularga singdirish onson. Biroq, undan keyingi bosqichlarda qiziqishga qarab ixtisoslashuvning yo'qligi va o'quvchilarga ko'p sonli fanlarning yuklatilishi ularda ta'limga bo'lgan qiziqishning va imkoniyatlarning pasayishiga olib kelmoqda. Natijada yoshlar orasida amaliy ko'nikmalarning ustuvorligini noto'g'ri talqin qilish hamda mutaxassis emas, balki "malakasiz qora ishchi" bo'lib shakllanish tendensiyasi paydo bo'lmoqda.

Ushbu muammolar fonida maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston misolida inson kapitaliga kiritilayotgan sarmoyalar samaradorligini oshirish, xususiy maktablar tarmog'ini qo'llab-quvvatlash hamda oliy ta'lim muassalari bitiruvchilarining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash orqali davlatning iqtisodiy o'sishiga erishish mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekiston mehnat bozori ko'rsatkichlari, ta'lim tizimiga ota-onalar va davlat tomonidan kiritilayotgan sarmoyalar samaradorligi hamda kadrlarning xalqaro mehnat bozoriga moslashuvi tahlil qilingan. Tahlil jarayonida Jahon Banki va Xalqaro Mehnat Tashkiloti metodologiyasiga muvofiq "Inson kapitali indeksi" va yoshlar ishsizligi statistikasi kabi miqdoriy ma'lumotlardan foydalanildi, shuningdek, qiyosiy-mantiqiy yondashuvlar qo'llanildi.

NATIJALAR VA TAHLIL

[13] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son

[14] "Kutilmalar inflyatsiyasi" (inglizcha: *Inflation of expectations*) - bu o'z maoshi, lavozimi va ish sharoitlari haqidagi xohish-istaklarining reallikdan asossiz ravishda o'ta yuqori bo'lishi

1. Oliy ta'limning asosiy funksiyasi va "kutilmalar inflyatsiyasi" fojiasi Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarining asosiy akademik bilim berish emas, balki bu professional va shaxsiy maqsadlarda foydali aloqalar o‘rnatish, ma’lumot almashish hamda o‘zaro manfaatli munosabatlarni shakllantirish jarayoni(networking) va fikrlash doirasini kengaytirish bilan o'lchanadi. Bir guruhdagi barcha talabalar olim bo'lishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Biroq yoshlarning ta'lim olishining maqsadi faqat "diplom" olishga qaratilgani sababli, mehnat bozorida jiddiy nomutanosiblik yuzaga kelmoqda.

Xalqaro mehnat bozori statistikasi shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limni bitirgan yoshlarning o'rtacha 40-45 % i o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlamaydi. Bunga asosiy sabab - kadrning bozordagi real narxi bilan o'zining xohishlari o'rtasidagi tafovut, ya'ni “kutilmalar inflyatsiyasi”dir [2]. Masalan, menejment sohasini bitirgan 1 yillik tajribaga ega yosh kadrning birdaniga 10 yillik tajribali mutaxassis maoshini talab qilishi va o'z sohasining quyi pog'onasida ishlashni rad etib, malaka talab qilinmaydigan oddiy ishlarga o'tib ketishi kiritilgan barcha ta'lim sohasiga qilinayotgan xarajatni nolga tenglashtiradi. O'zbekistonda yoshlar orasidagi o'qimaydigan, ishlamaydigan va o’z mutahasisligi bo’yicha ishlamasdan boshqa ish bilan shug’illanadigamlar qatlamining yuqori ulushi aynan shu omil bilan izohlanadi [3].

2. Maktab ta'limida xususiy maktablar va intensivlashuv o’quv tizimi muammosi. Inson kapitalini shakllantirishda poydevor hisoblangan maktab tizimidagi nomutanosibliklar iqtisodiyot uchun qimmatga tushmoqda. Yosh avlodning qiziqishlari 1-5 sinflarda shakllanishini hisobga olsak, barcha fanlarni butun ta'lim davomida birdek o'qitish (majburiy universallik) kognitiv resurslarning isrof bo'lishiga olib keladi. Jamiyat va iqtisodiyot barcha fanlarni yuzaki biladigan emas, aniq sohaning yuqori malakali mutaxassislariga muhtojdir.

Bunga yechim sifatida xususiy maktablarga berilishi kerak bo’lgan imtiyozlar va ularning o'rnini ko'rsatish mumkin. Ota-onalar xususiy maktablarga etiborni kiritish orqali farzandida erta ixtisoslashuv va mantiqiy fikrlashni shakllantiradi. Biroq tizimli uzviylik yo'qligi sababli, ixtisoslashtirilgan ta'limdan umumta'lim tizimiga qaytgan yoshlarda qiziqishning so'nishi va jamiyatning (oilaning) bosimi ostida ta'limdan uzoqlashish holatlari uchraydi. Jahon Banki hisobotlariga ko'ra, O'zbekistonning Inson Kapitali Indeksi 0.62 nisbatda tashkil etib, bu bugungi kiritilgan ta'lim sarmoyalari kelajakda o'z iqtisodiy salohiyatining faqat 62 %ni gina ro'yobga chiqarishini, qolgan 38 % esa samarasiz yo'qotilayotganini ko'rsatadi [4].

3. Bitiruvchilarni xalqaro mehnat bozoriga tayyorlash va til masalasi. O'zbekiston demografik jihatdan ishchi kuchi ko'p, ish o'rni cheklangan davrini boshidan kechirayotgani sababli, kadrlarni nafaqat ichki, balki xalqaro bozorlarga eksport qilish iqtisodiy zaruratdir. Biroq oliy ta'lim bitiruvchilariga xorijiy tilni bilish darajasi juda pastligi va unga qo'yilmaga talabni qo’qligi oqibatida, bakalavr bosqichni bitirgan mutaxassislar xorijda o'z sohasi bo'yicha emas, balki eng quyi pag’onadagi ishlarda ishlashga majbur bo'lmoqda.

Oliy ta’lim muassalarini bitirish va diplom olish uchun kamida bir xorijiy tilni suhbatlasha oladigan (B1 yoki A2) darajasida bilishni majburiy qilib belgilash va buni xalqaro sertifikatlar bilan tasdiqlash nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki iqtisodiyotga katta foyda keltiradi. Birinchidan, malakali kadr xorijda aynan o'z sohasi (injiniring, tibbiyot, IT) bo'yicha ishga joylashadi, bu esa xorijga chiqarish va ish topib berish bo’yicha firibgarliklarning oldini oladi. Ikkinchidan, yuqori malakali mehnat eksporti orqali mamlakatga kirib kelayotgan valyuta tushumlari va iqtisodiyotning raqamli o'sishi (YaIM) ta'minlanadi [5].

XULOSA VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat va jamiyat tomonidan inson kapitaliga kiritilayotgan sarmoyalar o'z-o'zidan iqtisodiy drayverga aylanib qolmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, iqtisodiyotga quruq diplomli emas, o'z ishining mutaxassislari kerak.[15] Bunga erishish, shuningdek, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik va "kutilmalar inflyatsiyasi"ni jilovlash maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy choralar taklif etiladi:

1.Maktab ta'limida erta ixtisoslashuv va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash: Inson kapitalini to'g'ri shakllantirish uchun 1-5 sinflarda berilgan umumiy bazadan so'ng, yuqori sinflarda qat'iy ixtisoslashtirilgan (intensiv) ta'limga o'tish zarur. Bu borada xususiy maktablar tajribasi va samaradorligi yuqori ekanligini inobatga olib, ularga davlat tomonidan qo'shimcha imtiyozlar va subsidiyalar ajratish lozim. Ta'lim muassasasi turidan qat'i nazar “xususiy yoki davlat”, o'quvchining ixtisoslashuv uzviyligini ta'minlash yoshlarning ta'limdan uzoqlashishi va "qora mehnat"ga o'tib ketishining oldini oladi.

2.oliy ta’lim muassalarIlarda xorijiy til sertifikatini majburiylashtirish**:** Milliy mehnat bozoridagi cheklangan ish o'rinlari va ortiqcha ishchi kuchi sharoitida, yuqori malakali mehnat eksporti iqtisodiy

[15] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son

qutqaruvchi omil hisoblanadi. Oliy ta’lim muassalarini bitirib, diplom olish uchun xorijiy tilni kamida suhbatlashish darajasida (B2 va A2) bilishni va xalqaro sertifikatni majburiy shart etib belgilash maqsadga muvofiq. Bu bir tomondan kadrlar raqobatbardoshligini oshirib, ularning xorijda ham o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlashiga ya’n imigrant ishchi emas, balki ekspert bo'lishiga yo'l ochadi. Ikkinchi tomondan esa, bu talab ta'limdagi korrupsiya va faqat diplom olish uchun o’qish holatlarini tabiiy ravishda qisqartiradi hamda davlatga soliq va valyuta tushumlari oqimini oshirishni rag’batlantiradi.

Iqtisodiyotining mustahkam asosi - ta'limga ko'r-ko'rona pul tikish bilan emas, balki sarmoyani aniq ixtisoslashuvga, soft skills ya’ni muloqot qila olish, jamoada ishlash, moslashuvchanlik va xalqaro tillarni o'rganishga yo'naltirish orqali yaratiladi. Ota-onalar va yoshlar iqtisodiy kutilmalarni to'g'ri boshqarib, sabr bilan malaka oshirishga e'tibor qaratsagina, kiritilgan sarmoya o'zining yuqori iqtisodiy rentabelligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. Abdurahmonov Q.X. va boshq. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. – 412 b.
3. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO). (2023). Global Employment Trends for Youth 2023: Investing in transforming futures for young people.
4. Jahon Banki (World Bank). (2022). O'zbekistonda inson kapitali indeksi (HCI) tahlili.
5. Becker, G. S. (1993). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education (3rd ed.).
6. www.ilo.org
7. www.worldbank.org

KRIPTOVALYUTA VA UNING KELAJAGI: YANGI IQTISODIY INQILOB SARI

Mahmadaliyev Bilol

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Annotatsiya: “Kriptovalyuta va uning kalajagi: yangi iqtisodiy inqilob sari”

Ushbu maqolada kriptovalyuta texnologiyasining kelib chiqish sabablari, asosiy tamoyillari, hozirgi rivojlanish bosqichlari va kelajak istiqbollari tahlil qilingan. Kriptovalyuta nafaqat moliyaviy tizimlar uchun texnologik innovatsiya sifatida, balki ijtimoiy ehtiyoj va ishonch modelining o‘zgarishi sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif kriptovalyutalarni jamiyatning moliyaviy mustaqillikka bo‘lgan intilishining mahsuli sifatida baholaydi va ularning kelajagi insoniyat ongiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi.

Kalit so’zlar - Kriptovalyuta, Blokcheyn, Bitcoin, Moliyaviy erkinlik, Markazsizlashtirish, Kripto tartibga solish, Ethereum, Raqamli aktivlar, Kripto xavfsizligi, Kriptoaktivlar bozori.

Abstract: “Cryptocurrency and Its Future: Towards a New Economic Revolution”

This article analyzes the origins, fundamental principles, current stages of development, and future prospects of cryptocurrency technology. Cryptocurrency is examined not only as a technological innovation for financial systems but also as a shift in social needs and trust models. The author views cryptocurrencies as a product of society’s aspiration for financial independence and emphasizes that their future depends on the consciousness of humanity.

Keywords – Cryptocurrency, Blockchain, Bitcoin, Financial freedom, Decentralization, Crypto regulation, Ethereum, Digital assets, Crypto security, Crypto asset market.

Аннотация: “Криптовалюта и её будущее: к новой экономической революции”

В данной статье проанализированы причины возникновения, основные принципы, текущие этапы развития и перспективы криптовалютных технологий. Криптовалюта рассматривается не

только как технологическая инновация для финансовых систем, но и как изменение общественных потребностей и модели доверия. Автор оценивает криптовалюты как результат стремления общества к финансовой независимости и подчеркивает, что их будущее зависит от уровня сознания человечества.

Ключевые слова – Криптовалюта, Блокчейн, Биткойн, Финансовая свобода, Децентрализация, Регулирование криптовалют, Эфириум, Цифровые активы, Криптобезопасность, Рынок криптоактивов.

Kirish

So‘nggi yillarda dunyo moliyaviy tizimida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Kriptovalyutalar — Bitcoin, Ethereum va boshqa raqamli aktivlar — moliyaviy mustaqillik va markazsiz boshqaruv g‘oyasini real hayotga olib kirib, butun dunyo iqtisodiyotini o‘zgartirib yubordi. Kriptovalyutaning tug‘ilishi faqat iqtisodiy ehtiyoj natijasi emas edi; u, shuningdek, insoniyat tarixidagi birinchi to‘liq markazlashmagan ishonch tizimini yaratishga urinish edi. Kriptovalyutaning tarixi faqat Satoshi Nakamoto nomi bilan bog‘lanmaydi; aslida, bu tushuncha 1990-yillarda shakllangan "cypherpunk" harakati asoschilarining orzulari natijasidir. Ular shaxsiy erkinlikni, maxfiylikni va davlat nazoratidan mustaqillikni texnologik yo‘l bilan ta’minlashni maqsad qilgan edilar. Kriptovalyuta texnologiyasi dunyoda raqamli moliyaviy inqilobning ramziga aylandi. Bu jarayon oddiy texnologik yangilik emas — insoniyatning moliyaviy tizimlarga bo‘lgan ishonchsizlikka bergan javobi, o‘z-o‘zini boshqarish va erkinlikka bo‘lgan intilishining natijasidir. Satoshi Nakamoto tomonidan taqdim etilgan Bitcoin — insoniyat tarixida moliyaviy mustaqillik g‘oyasining texnologik shakldagi ifodasidir. Bu hodisani anglash uchun kriptovalyutani emas, uni yaratgan zaruriyatni tahlil qilish lozim.

Adabiyotlar sharhi

Internetdagi savdolar bugungi kungacha deyarli to‘liq moliyaviy tashkilotlar orqali amalga oshirilmoqda. Ular ishonchli uchinchi tomon sifatida to‘lovlarni qayta ishlaydi. Bu tizim ko‘p hollarda ishlaydi, lekin ishonchga asoslangan modelning o‘ziga xos zaifliklari bor. Shuning uchun yangi tizim zarur: u faqat ishonch emas, balki kriptografik isbotga tayanadi[16]. Satoshi Nakamoto internetdagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ishonchga asoslangan tizimlarning zaifliklarini ko‘rsatib berdi. Ular ko‘p hollarda muvaffaqiyatli ishlasa-da, markazlashgan tizimlarning xavfsizlik nuqsonlari va ishonchga tayanishi ularni muammolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun Nakamoto yangi, markazlashmagan, va kriptografik isbotga asoslangan tizimni taklif etadi — **Bitcoin**. Bu yangi tizimning o‘ziga xosligi, to‘lovlar va moliyaviy operatsiyalarni ishonchga tayanmasdan, faqat matematik va texnologik isbotlarga asoslanishidir.

Tadqiqot metadologiyasi

Ushbu maqolada kriptovalyutaning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, tendensiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri va kelajak istiqbollari chuqur tahlil qilindi.

Kriptovalyutaning tarixi

Kriptovalyutaning ildizlari ancha ilgari, 1990-yillarga borib taqaladi. Bu davrda raqamli moliya sohasida innovatsion izlanishlar boshlangan edi. Ilk raqamli to‘lov tizimlari — xususan DigiCash (David Chaum tomonidan) — shaxsiylikni saqlovchi va markaziy nazoratsiz elektron pul g‘oyasini ilgari surgan. Ushbu tizim foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini yashirish orqali maxfiylikka erishishni maqsad qilgan. Shu kabi loyihalar, texnik imkoniyatlar hali yetilmagan bo‘lishiga qaramay, bugungi zamonaviy kriptovalyutalarning shakllanishiga zamin yaratgan[17]. 2008-yil 31-oktabr kuni noma’lum shaxs yoki guruh tomonidan Satoshi Nakamoto taxallusi bilan “Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System” nomli maqola (white paper) e’lon qilinadi. Ushbu hujjatda Bitcoin nomli markazsiz, shaffof va blokcheyn texnologiyasiga asoslangan to‘lov tizimi taklif qilinadi.

Tarixiy bosqichlari:

2008 — G'oya va dastlabki hujjat
2009 — Bitcoin tarmog'ining ishga tushishi
2010 — Birinchi tranzaksiya va narx belgilanishi
2011-2012 — Ommaviylikning boshlanishi
2013 — Narxning o'sishi va yangi altkoinlarning paydo bo'lishi
2014-2016 — Bozorning rivojlanishi va xavfsizlik masalalari
2017 — Narxning rekord darajaga ko'tarilishi
2018-2020 — Bozorning pasayishi va texnologik yangilanishlar

[16] **Nakamoto, S. (2008).** Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System.

[17] Andreas M. Antonopoulos – Mastering Bitcoin.

2021-2022 — NFT, DeFi va Metaverse bilan bog'liq loyihalar
2023-2024 — Institutsional sarmoyaning kirib kelishi
2025 — ETF'lar orqali institutsional investorlarning kirib kelishi[18].

Kriptovalyutaning foydalari

"Bitcoinning tarixi va uning iqtisodiy inqilobiga ta'sirini tushunish uchun avvalo moliyaviy tizimlarning qanday ishlashini bilish zarur. Fiat valyutalari markazlashgan bo'lib, ular markaziy banklar tomonidan chiqariladi va ular muntazam ravishda inflyatsiyaga duchor bo'ladi. Bitcoin esa boshqa valyutalarga nisbatan markazlashtirilmagan va inflyatsiyaga qarshi himoya sifatida ishlaydi. Bu kriptovalyutaning ba'zi asosiy afzalliklaridan biridir."

1. **Markazlashmagan tizim**: Bitcoin va boshqa kriptovalyutalar markazlashtirilmagan tizimlarga asoslanadi. Bu, foydalanuvchilarga o'z mol-mulklarini mustaqil tarzda boshqarish imkonini beradi.
2. **Inflyatsiyaga qarshi himoya**: Ammous o'z kitobida Bitcoinni inflyatsiyaga qarshi himoya sifatida tasvirlaydi.
3. **Global miqyosda foydalanish imkoniyati**: Bitcoin va boshqa kriptovalyutalar, global bozorlar uchun qulay va tezkor to'lov tizimini taklif qiladi.
4. **Shaxsiy xavfsizlik**: Bitcoinning texnologiyasi foydalanuvchilarga o'z mablag'lariga to'liq nazorat qilish imkonini beradi.
5. **Yuqori likvidlik:** Bitcoinning keng tarqalganligi va o'zaro savdo qilish imkoniyatlari uni yuqori likvidli aktivga aylantiradi[19].

Kriptovalyutaning kamchiliklari

Kriptovalyutalar zamonaviy iqtisodiy va texnologik inqilob timsoli sifatida qaralgan bo‘lsa-da, ular bilan bog‘liq salbiy jihatlar ham mavjud. Bu kamchiliklar texnologik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va ijtimoiy sohalarda o‘z aksini topmoqda. Quyida kriptovalyutalarning asosiy muammolari chuqur tahlil qilinadi:

1. Noqonuniy faoliyatlarga imkon yaratishi: Kriptovalyutalarning anonimligi ularni noqonuniy faoliyatlar, jumladan, pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishda ishlatilishiga olib kelishi mumkin.
2. Narxning yuqori **o‘**zgaruvchanligi: Kriptovalyutalar bozori juda o‘zgaruvchan bo‘lib, bu ularning investitsiya sifatida xavfini oshiradi.
3. Huquqiy asosning yetishmasligi: Ko‘plab mamlakatlarda, shu jumladan O‘zbekistonda ham, kriptovalyutalar uchun to‘liq huquqiy asoslar mavjud emas, bu esa ularning qonuniy muomalasini murakkablashtiradi.
4. Texnologik xatoliklar va xavfsizlik muammolari: Kriptovalyutalar texnologik xatoliklarga va xavfsizlik muammolariga duchor bo‘lishi mumkin, bu esa foydalanuvchilar uchun xavf tug‘diradi.
5. Energiya sarfining yuqoriligi: Ba'zi kriptovalyutalar, xususan Bitcoin, qazib olish jarayonida katta miqdorda energiya sarflaydi, bu esa ekologik muammolarni keltirib chiqaradi[20].

Mening taklif qilayotgan yechimlarim

Kriptovalyutalar bilan bog‘liq muammolar nafaqat texnologik, balki huquqiy, iqtisodiy va psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni yengish ham ko‘p qirrali strategiyalarni talab etadi. Quyida kriptoaktivlar bilan bog‘liq asosiy kamchiliklarni yumshatish yoki bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi:

1. **Volatillikni kamaytirish: Stablecoin va sug‘urtalash mexanizmlari**. Kriptovalyuta narxlaridagi keskin o‘zgarishlarni yumshatish kerak..
2. **Huquqiy bazani takomillashtirish va xalqaro hamkorlik**. Kriptoaktivlar bozorining barqarorligi uchun aniq va ochiq **regulyativ asos** zarur.

[18]Wikipedia contributors. History of bitcoin. Wikipedia, The Free Encyclopedia. Retrieved from History of bitcoin - Wikipedia

[19] Ammous, Saifedean. "The Bitcoin Standard: The Decentralized Alternative to Central Banking." Wiley, 2018.

[20] Xolboyev Umidjon, Boltaboyev Dilshodbek Xamro o‘g‘li. "Moliyada kriptovalyuta shakllari va rivojlanishi".

3. **Xavfsizlikni ta’minlash: Cold wallet va ikki bosqichli autentifikatsiyani takkomillashtirish kerak**. Foydalanuvchilar va birjalarning kripto xavfsizligini oshirish bo’yicha ishlarni olib boorish zarur.
4. **Firibgarlikni oldini olish: Ma’lumot savodxonligi va skam identifikatori**, skam loyihalar va ponzi sxemalarni bartaraf etish yo’llari ishlab chiqish.
5. **Texnologik murakkablikni kamaytirish: Intuitiv interfeys va avtomatlashtirilgan tizimlar**ni ishlab chiqish shu bilan birga texnik tafsilotlar va murakkab platformalarni soddalashtirish va ularni ommaviy foydalanishga tadbiq etish.
6. **Jinoyatlarda foydalanishni cheklash: Monitoring va tracing texnologiyalarni yaratish**. Anonimlik jinoyatchilar tomonidan suiiste’mol qilinishini cheklash uchun tranzaksiyalarni kuzatib borish va noqonuniy faoliyatlarni aniqlash yo’llarini topish.
7. **Psixologik xavflarni kamaytirish: Kripto salomatlik va mas’uliyatli investitsiya**ni tadbiq etish va bozordagi o‘zgaruvchanlik psixologik bosimni oldini olish uchun yoshlar va talabalar uchun **mas’uliyatli sarmoya qilish bo‘yicha treninglar** o‘tkazilishi tavsiya etilman (masalan, O‘zbekistonda “Finlit” dasturi doirasida).

Xulosa

Bitcoin pul tarixidagi eng muhim ixtirodir. Bu shaxslarni quvvatlaydigan va markazlashtirilgan hokimiyatlarga tayanmasdan qiymatni saqlash va uzatishning yangi yo‘lini taqdim etadigan vositadir[21]. Ammo shu bilan birga kriptovalyuta firibgarlik, anonimlik, foydalanuvchilarning savodsizligiga va tartibga solinmasligi bilan ham xavfli. Bu xavfni bartaraf etish uchun esa xuquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, xalqaro xavfsizlikni yaxshilash va moliyaviy bilimlarni oshirish kerak. Shu bilan birga bitcoin – bu hukumatlar yoki markaziy banklar tomonidan manipulyatsiya qilinmaydigan birinchi haqiqiy pul shaklidir. U pul tizimiga ishonchni qaytarib beradi, chunki u to‘liq markazlashmagan, ochiq manba va global miqyosda mavjud bo‘lgan platformaga aylanadi[22]. Bu esa shuni anglatadiki kriptovalyuta bu kelajak puli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. **Nakamoto, S. (2008).** Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System.
2. Andreas M. Antonopoulos – Mastering Bitcoin.
3. Wikipedia contributors. History of bitcoin. Wikipedia, The Free Encyclopedia. Retrieved from History of bitcoin - Wikipedia
4. Ammous, Saifedean. "The Bitcoin Standard: The Decentralized Alternative to Central Banking." Wiley, 2018.
5. Xolboyev Umidjon, Boltaboyev Dilshodbek Xamro o‘g‘li. "Moliyada kriptovalyuta shakllari va rivojlanishi"

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В МЕДИЦИНСКОЙ ДИАГНОСТИКЕ: ВЛИЯНИЕ НА САМОЛЕЧЕНИЕ.

Автор: Хашимова Дурдона Уткировна, студентка 3 курса
Научный руководитель: преподаватель клинических дисциплин Нишанкулова Эльнура Дильмуратжановна
Учреждение: Ошский Международный Медицинский Университет.

Аннотация

В статье рассматривается влияние искусственного интеллекта на поведение пациентов и проблему самолечения в условиях цифровизации здравоохранения. Анализируются преимущества

[21] Andreas M. Antonopoulos – Mastering Bitcoin.

[22] **Ammous Saifedean** - "The Bitcoin Standard: The Decentralized Alternative to Central Banking".

и ограничения ИИ в диагностике, приводятся данные о его точности и особенностях использования пациентами. Особое внимание уделяется рискам, связанным с отсутствием клинического осмотра и зависимостью от субъективных жалоб. Обосновывается необходимость использования искусственного интеллекта как инструмента медицинского триажа, а также важность его регулирования в соответствии с международными стандартами здравоохранения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, диагностика, самолечение, триаж, безопасность пациента, цифровое здравоохранение

Введение

В последние годы искусственный интеллект активно внедряется в систему здравоохранения и становится доступным инструментом для широкого круга населения. Всё больше пациентов при появлении симптомов обращаются к интернет-ресурсам и цифровым медицинским системам вместо консультации с врачом.

Согласно данным исследований, около 35% пользователей интернета используют онлайн-ресурсы для самодиагностики заболеваний [1]. При этом значительная часть пациентов применяет симптомчекеры не только для получения информации, но и для принятия решений о необходимости обращения за медицинской помощью [1].

С одной стороны, это способствует повышению медицинской грамотности населения, однако с другой — усиливает проблему самолечения, что может негативно влиять на безопасность пациентов.

Преимущества искусственного интеллекта

Искусственный интеллект обладает рядом значимых преимуществ. Он обеспечивает доступность медицинской информации, позволяет быстро анализировать симптомы и помогает пациентам ориентироваться в возможных причинах своего состояния.

По данным исследований, до 70–75% пользователей используют цифровые медицинские сервисы для лучшего понимания своих симптомов [1].

Кроме того, ИИ может применяться в клинической практике для анализа данных, ведения электронных медицинских записей и повышения эффективности работы врачей [5].

Ограничения и риски

Несмотря на преимущества, использование ИИ в медицинской диагностике имеет существенные ограничения.

Во-первых, искусственный интеллект не способен проводить физикальный осмотр пациента, который является важной частью клинической диагностики.

Во-вторых, ИИ полностью зависит от информации, предоставляемой пациентом, которая может быть неполной или субъективной.

Согласно систематическим обзорам, точность постановки диагноза с использованием симптомчекеров составляет в среднем около 34–45%, а в сложных клинических ситуациях может снижаться до 20% и ниже [2].

Кроме того, исследования показывают, что правильный диагноз входит в список первых предполагаемых диагнозов лишь примерно в 30–36% случаев [3].

Проблема самолечения

Распространение искусственного интеллекта усиливает проблему самолечения.

Пациенты всё чаще:

- не обращаются к врачу
- самостоятельно интерпретируют симптомы
- начинают лечение без профессиональной консультации

По данным исследований, значительная часть пользователей принимает решения о лечении на основе информации из цифровых источников, что может приводить к ошибкам и осложнениям [4].

Самолечение повышает риск:

- неправильного выбора лекарственных средств
- развития побочных эффектов
- прогрессирования заболевания

Результаты и обсуждение

С учётом выявленных ограничений становится очевидным, что искусственный интеллект не должен использоваться для постановки окончательного диагноза или назначения лечения.

Наиболее рациональным является использование ИИ в качестве инструмента медицинского триажа, то есть первичной оценки состояния пациента с последующим направлением к соответствующему специалисту.

Например:

- при жалобах на бессонницу и тревожность — к неврологу
- при симптомах со стороны желудочно-кишечного тракта — к гастроэнтерологу

Данный подход соответствует современным принципам безопасности пациента, отражённым в рекомендациях Всемирной организации здравоохранения [6].

Кроме того, необходимы:

- разработка нормативных актов, регулирующих использование ИИ
- контроль качества медицинской информации
- внедрение стандартов цифрового здравоохранения на национальном уровне

Заключение

Искусственный интеллект является перспективным инструментом в медицине, однако его использование должно быть строго ограничено и контролируемо.

ИИ не способен заменить врача, так как не обеспечивает полноценного клинического обследования пациента. Его применение должно быть направлено на повышение информированности пациентов и их правильную маршрутизацию в системе здравоохранения.

Наиболее безопасной моделью является использование искусственного интеллекта как инструмента триажа с обязательным последующим обращением пациента к врачу.

Список литературы

1. Meyer A.N.D., Giardina T.D., Spitzmueller C., Shahid U., Scott T.M., Singh H. Patient perspectives on the use of artificial intelligence–based symptom checkers: cross-sectional survey study // Journal of Medical Internet Research. — 2020. — Vol. 22, № 3. — P. e16678.

2. Semigran H.L., Linder J.A., Gidengil C., Mehrotra A. Evaluation of symptom checkers for self diagnosis and triage // BMJ. — 2015. — Vol. 351. — P. h3480.

3. Hill M.G., Sim M., Mills B., et al. The quality of diagnosis and triage advice provided by free online symptom checkers and apps: systematic review // The Medical Journal of Australia. — 2020. — Vol. 212, № 11. — P. 514–519.

4. Powell J., Clarke A. Internet information-seeking in mental health: population survey // The British Journal of Psychiatry. — 2006. — Vol. 189. — P. 273–277.

5. Topol E. Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again. — New York: Basic Books, 2019.

6. World Health Organization. Ethics and governance of artificial intelligence for health. — Geneva: WHO, 2021.

RAQAMLI TA’LIM VA ILMIY TADQIQOTLARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: ADAPTIV TIZIMLAR VA VIRTUAL LABORATORIYALAR.

Abdulloyeva Anora
Zarmed universiteti Buxoro kampusi, 4-bosqich talabasi

Abstract. This article examines the role of innovative technologies in digital education and scientific research, focusing on adaptive learning systems, AI tutors, and virtual laboratories. The study highlights current challenges in implementing these technologies and proposes scientifically grounded solutions. Special attention is given to remote learning platforms, open science principles, and reproducible research methodologies. The results demonstrate that integrating advanced technologies enhances educational quality and research efficiency.
Keywords: digital education, adaptive learning, AI tutors, virtual laboratories, augmented reality, open science, data management, reproducibility, e-learning, innovation
Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda innovatsion texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Adaptiv o‘quv tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi tutorlar hamda virtual laboratoriyalar imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Natijalar zamonaviy texnologiyalar ta’lim sifati va ilmiy samaradorlikni oshirishini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, adaptiv tizimlar, AI tutorlar, virtual laboratoriyalar, kengaytirilgan haqiqat, ochiq fan, ma’lumotlar boshqaruvi, masofaviy ta’lim, innovatsiya
Аннотация. В статье рассматривается роль инновационных технологий в цифровом образовании и научных исследованиях. Особое внимание уделяется адаптивным обучающим системам, AI-тьюторам и виртуальным лабораториям. Анализируются существующие проблемы и предлагаются научно обоснованные решения. Результаты показывают, что внедрение современных технологий повышает качество образования и эффективность научных исследований.
Ключевые слова: цифровое образование, адаптивные системы, AI-тьюторы, виртуальные лаборатории, дополненная реальность, открытая наука, управление данными, дистанционное обучение

Introduction

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar ta’lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, adaptiv o‘quv tizimlari, sun’iy intellektga asoslangan tutorlar va virtual laboratoriyalar ta’lim jarayonini individuallashtirish va samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni joriy etishda qator muammolar mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyalari pastligi, ma’lumotlarni boshqarishdagi muammolar hamda ilmiy tadqiqotlarda takrorlanuvchanlik (reproducibility) masalalari dolzarb hisoblanadi.
Mazkur maqolaning maqsadi — raqamli ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Results and Discussion

1. Adaptiv o‘quv tizimlari va AI tutorlar
Adaptiv o‘quv tizimlari talabaning bilim darajasi, o‘rganish tezligi va individual xususiyatlariga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etadi. AI tutorlar esa real vaqt rejimida maslahat berish va bilimlarni mustahkamlash imkonini yaratadi.
Muammo:

- algoritmlarning yetarlicha aniqlik darajasiga ega emasligi
- ma’lumotlar bazasining yetishmasligi

Takliflar:

- katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) asosida tizimlarni takomillashtirish
- milliy ta’lim platformalarini yaratish

2. Virtual va kengaytirilgan haqiqat laboratoriyalari
Virtual laboratoriyalar talabalar uchun xavfsiz va interaktiv muhit yaratadi. Bu ayniqsa tibbiyot, kimyo va muhandislik sohalarida muhimdir.
Muammo:

- yuqori texnik xarajatlar
- texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarining yetishmasligi

Takliflar:
- davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish
- o‘qituvchilarni qayta tayyorlash

3. Masofaviy ta’lim platformalari
Masofaviy ta’lim platformalari (LMS) ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.
Muammo:
- internet sifati pastligi
- talabalar motivatsiyasining pasayishi

Takliflar:
- platformalarni optimallashtirish
- interaktiv metodlarni joriy etish

4. Ochiq fan va ma’lumotlarni boshqarish
Ochiq fan tamoyillari ilmiy natijalarni oshkora qilishni ta’minlaydi.
Muammo:
- ma’lumotlarni standartlashtirish yetishmasligi
- tadqiqotlarning takrorlanmasligi

Takliflar:
- yagona ma’lumotlar bazalarini yaratish
- ochiq kirish (open access) siyosatini rivojlantirish

5. Takrorlanuvchan tadqiqot metodologiyalari
Ilmiy tadqiqotlarning ishonchliligi ularning qayta tekshirilishi bilan belgilanadi.
Muammo:
- metodologik xatolar
- ma’lumotlarning yopiq bo‘lishi

Takliflar:
- ochiq kodli dasturlardan foydalanish
- ilmiy standartlarni joriy etish

References

1. Anderson T. *The Theory and Practice of Online Learning*. — Athabasca: AU Press, 2008. — 485 p.
2. Bates T. *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. — Vancouver: BCcampus, 2015. — 528 p.
3. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*. — 2005. — Vol. 2, No. 1. — P. 3–10.
4. Luckin R. *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century*. — London: UCL IOE Press, 2018. — 256 p.

5. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. — Paris: OECD Publishing, 2019. — 240 p.

6. OECD. *OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots*. — Paris: OECD Publishing, 2021. — 330 p.

7. UNESCO. *ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications*. — Paris: UNESCO, 2020. — 150 p.

8. Open Science Collaboration. Estimating the reproducibility of psychological science // *Science*. — 2015. — Vol. 349, No. 6251. — P. 1–8.

9. Wiley D. The Access Compromise and the 5th R // *Open Content*. — 2014. — Vol. 7, No. 2. — P. 15–20.

10. Mayer R. *Multimedia Learning*. — 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009. — 304 p.

11. Johnson L., Adams Becker S. *NMC Horizon Report: 2019 Higher Education Edition*. — Austin: The New Media Consortium, 2019. — 64 p.

12. Siemens G., Baker R. Learning Analytics and Educational Data Mining // *Proceedings of the 2nd International Conference on Learning Analytics*. — 2012. — P. 252–254.

13. Koller D., Ng A. The Online Revolution: Education for Everyone // *Communications of the ACM*. — 2013. — Vol. 56, No. 10. — P. 26–28.

14. VanLehn K. The Relative Effectiveness of Human Tutoring, Intelligent Tutoring Systems // *Educational Psychologist*. — 2011. — Vol. 46, No. 4. — P. 197–221.

15. Dede C. Immersive Interfaces for Engagement and Learning // *Science*. — 2009. — Vol. 323, No. 5910. — P. 66–69.

IQTISODIY QAROR QABUL QILISHDA PSIXOLOGIK OMILLARNING RO‘LI

Daminov Kamol Ruziboy o‘g‘li, G’aybullayeva Oynura Abdurashid qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonida Psixologik omillarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, insonlarning irratsional xatti-harakatlari, kognitiv xatoliklar, emotsiyalar va motivatsiya kabi omillarning iqtisodiy tanlovlarga ta’siri o‘rganiladi. Maqolada zamonaviy xulq-atvor iqtisodiyoti nazariyalari asosida misollar keltirilib, qaror qabul qilish samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy qaror, psixologik omillar, xulq-atvor iqtisodiyoti, kognitiv xatolik, motivatsiya, irratsionallik.

Аннотация: В данной статье анализируется роль психологических факторов в процессе принятия экономических решений. Рассматриваются такие аспекты, как иррациональное поведение, когнитивные ошибки, эмоции и мотивация, влияющие на экономический выбор человека. На основе теорий поведенческой экономики приводятся примеры и предлагаются пути повышения эффективности принятия решений.

Ключевые слова: экономическое решение, психологические факторы, поведенческая экономика, когнитивные ошибки, мотивация.

Annatation: This article examines the role of psychological factors in economic decision-making. It explores how irrational behavior, cognitive biases, emotions, and motivation influence individual economic choices. Based on behavioral economics theories, examples are provided and recommendations for improving decision-making efficiency are proposed.

Keywords: economic decision-making, psychological factors, behavioral economics, cognitive bias, motivation.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qaror qabul qilish jarayoni nafaqat mantiqiy va hisob-kitoblarga asoslanadi, balki inson psixologiyasi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Klassik iqtisodiy nazariyalarda inson “ratsional subyekt” sifatida qaralgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlar bu qarashni to‘liq inkor etadi. Chunki real hayotda insonlar ko‘pincha hissiyotlarga, stereotiplarga va noto‘g‘ri tasavvurlarga asoslanib qaror qabul qiladi. Shu sababli iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonini chuqur tushunish uchun psixologik omillarni o‘rganish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, xulq-atvor iqtisodiyoti (behavioral economics) ushbu yo‘nalishda muhim ilmiy asos yaratib berdi.

Psixologik omillar – bu insonning ichki ruhiy holati, hissiyotlari, tajribasi va ong osti jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan omillardir. Iqtisodiy qarorlar qabul qilishda quyidagi psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi: Hissiyotlar (qo‘rquv, ishonch, hayajon); Motivatsiya; Stereotiplar; Kognitiv xatoliklar; Ijtimoiy ta’sir: Masalan, inson investitsiya qilishda faqat foyda haqida emas, balki yo‘qotishdan qo‘rqish hissi bilan ham harakat qiladi.

1.Kognitiv xatoliklar va ularning iqtisodiy qarorlarga ta’siri. Kognitiv xatoliklar – bu insonning noto‘g‘ri fikrlashiga olib keladigan ongiy cheklovlardir. Eng keng tarqalganlari: Anchoring (bog‘lanish effekti) – inson birinchi ko‘rgan ma’lumotga ortiqcha tayanadi; Availability heuristic – eng oson esga tushadigan ma’lumotga asoslanadi; Overconfidence – o‘ziga ortiqcha ishonch: Masalan, bozorda mahsulot narxi dastlab juda yuqori ko‘rsatilsa, keyinchalik arzonlashtirilgan narx ham foydali ko‘rinadi, garchi u real qiymatdan yuqori bo‘lsa ham.

2. Emotsiyalarning roli: Emotsiyalar iqtisodiy qaror qabul qilishda katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa: Stress holatida noto‘g‘ri qarorlar ko‘payadi; Qo‘rquv investitsiyani kamaytiradi; Haddan tashqari ishonch riskni oshiradi: Masalan, moliyaviy inqiroz davrida odamlar vahima bilan aktivlarini sotib yuboradi, bu esa bozorda narxlarning keskin tushishiga olib keladi.

3.Motivatsiya va ehtiyojlar ta’siri: Insonning ehtiyojlari va maqsadlari uning iqtisodiy qarorlariga bevosita ta’sir qiladi. Masalan: Daromadni oshirish istagi – riskli qarorlarni kuchaytiradi; Xavfsizlikka intilish – konservativ strategiyani tanlashga olib keladi; Motivatsiya ichki (qoniqish, rivojlanish) va tashqi (pul, mukofot) bo‘lishi mumkin.

4. Ijtimoiy omillar va guruh ta’siri: Insonlar ko‘pincha mustaqil emas, balki jamiyat ta’siri ostida qaror qabul qiladi. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Boshqalarga taqlid qilish. Reklama va marketing ta’siri. Masalan, aksiyalar bozorida odamlar ko‘pchilik sotib olayotgan aktivni ular ham sotib olishga moyil bo‘ladi.

5. Xulq-atvor iqtisodiyoti yondashuvi. Xulq-atvor iqtisodiyoti insonning irratsional xatti-harakatlarini o‘rganadi. Bu yo‘nalishda quyidagi tushunchalar muhim: Prospect theory – yo‘qotishlar foydaga qaraganda kuchliroq ta’sir qiladi; “Nudge” nazariyasi – insonni to‘g‘ri qarorga yo‘naltirish : Bu yondashuv davlat siyosati, marketing va moliyaviy boshqaruvda keng qo‘llaniladi.

Xulosa.

Iqtisodiy qaror qabul qilish jarayoni murakkab bo‘lib, u nafaqat mantiqiy hisob-kitoblarga, balki psixologik omillarga ham bog‘liqdir. Kognitiv xatoliklar, emotsiyalar, motivatsiya va ijtimoiy ta’sir insonning iqtisodiy xatti-harakatini sezilarli darajada shakllantiradi. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyotda psixologik yondashuvlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yanada samarali va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Iqtisodiy qaror qabul qilish samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: Aholining moliyaviy va iqtisodiy savodxonligini oshirish; Qaror qabul qilishda tahliliy yondashuvni rivojlantirish; Emotsional nazorat va stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish; Xulq-atvor iqtisodiyoti yondashuvlarini amaliyotga keng joriy etish. Xulosa qilib aytganda, psixologik omillarni chuqur o‘rganish va ularni iqtisodiy jarayonlarda hisobga olish nafaqat individual darajada, balki butun iqtisodiy tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy iqtisodiyotda aynan inson omilini to‘g‘ri tushunish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kahneman D. Thinking, Fast and Slow. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011. – 45–78-betlar.

2. Qosimov Sirojiddin Mikroiqtisodiyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 98–120-betlar.
3. Ariely D. Predictably Irrational. – New York: HarperCollins, 2008. – 56–89-betlar.
4. Simon H. Administrative Behavior. – New York: Free Press, 1997. – 23–47-betlar.
5. Mullainathan S., Shafir E. Scarcity. – New York: Times Books, 2013. – 67–102-betlar.
6. Camerer C. Behavioral Game Theory. – Princeton: Princeton University Press, 2003. – 91–120-betlar.
7. Abdullaev Yo‘ldosh Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 134–156-betlar.
8. Qosimov Sirojiddin Mikroiqtisodiyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 98–120-betlar.

TELEGRAM BOT ORQALI UNIVERSAL MATN TARJIMA BOTINI YARATISH (PYTHON DASTURLASH TILI ASOSIDA)

Turayeva Muqaddas Turabekovna
Zarmed universiteti

Annotation. This article presents the development of an English – Uzbek dictionary bot based on the Telegram platform. The bot is written in the Python programming language using the following libraries:

1. Telebot – for managing interaction with the Telegram bot
2. gTTS – for converting words into speech
3. random and time – for selecting words randomly for the user and managing delays

The bot offers users exercises for translating new words and also provides ability to listen to words in audio format using the */say* command. Words are selected randomly for each user, and answers are checked automatically. This bot makes the language learning process more interactive and effective. The results of the study show that Telegram bots are an effective tool for accelerating language learning and encouraging independent study.

Keywords: Telegram bot, Python, dictionary, language learning, English language

Аннотация.В данной статье разработан словарный бот (English - Uzbek dictionary) на основе платформы Telegram. Бот написан на языке программирования Python с использованием следующих библиотек:

1. telebot - для улучшения взаимодействия с ботом в Telegram;
2. gTTS - для голосового вывода слов;
3. random и time - для случайного выбора слов для пользователя и управления задержками

Бот предлагает пользователю упражнения для перевода новых слов, а также предоставляет возможность прослушивания слов в аудиоформате с помощью команды */say*. Для каждого пользователя слова выбираются случайном образом, а ответы проверяются автоматически. Данный бот делает процесс изучения языка более интерактивным и эффективным инструментом для ускорения процесса изучения языка и стимулирования самостоятельного обучения.

Ключевые слова: бот Telegram, Python, словарь, изучение языка, английский язык

Annotatsiya. Ushbu ish Python dasturlash tili va *aiogram* kutubxonasi yordamida Telegram messenjeri uchun universal matn va so‘z tarjima qiluvchi bot yaratishga bag‘ishlangan. Bot foydalanuvchidan olingan matn yoki so‘zni foydalanuvchi tanlangan tilga (ENGLISH→UZBEK yoki UZBEK→ENGLISH) tarjima qiladi. Tarjima jarayoni *deep_translator* kutubxonasi orqali amalga oshiriladi. Foydalanuvchi interfeysi inline tugmalar yordamida til tanlash imkoniyatini beradi va xatolik yuz berganda matn yoki so‘z asl holatida saqlanadi.

Kalit so‘zlar: Python, aiogram, deep_translator, dispatcher, Google translator API

Kirish. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va avtomatik tarjima tizimlari zamonaviy dasturiy xizmatlarda foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi [1]. Telegram messenjeri interaktiv xizmatlar yaratish uchun keng imkoniyatlar beradi [2]. Shu kontekstda ishlab chiqilgan bot foydalanuvchidan olingan matn yoki so‘zni foydalanuvchi tanlagan tilga tezkor va aniq tarzda tarjima qiladi . Botning universal xususiyati shundan iboratki, u ham oddiy so‘zlarni, ham butun matnlarni tarjima qila oladi, bu esa foydalanuvchi uchun bir nechta vositalarni birlashtirgan yagona tizimni ta’minlaydi.

METOD

Bot Python 3.11+ va aiogram kutubxonasi yordamida yaratilgan . Tarjima jarayoni deep_translator (GoogleTranslator API) orqali amalga oshiriladi . Foydalanuvchi interfeysi inline tugmalar orqali til tanlash imkoniyatini beradi . Dasturiy arxitektura modul va asinxron ishlashga moslashtirilgan bo‘lib, foydalanuvchi tajribasi silliq va tezkor bo‘lishi ta’minlangan . Botning funksiyalari quyidagicha:

• Dispatcher foydalanuvchi xabarlarini qabul qiladi va callback query orqali tilni belgilaydi .

• Inline tugmalar foydalanuvchi uchun EN→UZ va UZ→EN tilini tez tanlash imkoniyatini beradi [3].

• /start komandasi botni ishga tushiradi va foydalanuvchini til tanlashga yo‘naltiradi [3].



1-rasm. @practise2_translateBot dan olingan tasvir

• /help komandasi foydalanuvchiga botning ishlash tartibi haqida ma’lumot beradi.

• Tarjima jarayoni GoogleTranslator yordamida amalga oshiriladi va foydalanuvchiga natija tezkor tarzda yuboriladi. (2-rasm)

2-rasm. @practise2_translateBot dan olingan tasvir

Bot universal bo‘lishi uchun u so‘zlarni alohida tekshirish va tarjima qilish imkoniyatiga ega, bu esa foydalanuvchiga lug‘at yoki tezkor tarjima sifatida qulaylik yaratadi.

Tahlil va natijalar

Bot foydalanuvchi tanlagan tilga avtomatik tarjima qiladigan tizim sifatida sinovdan o‘tkazildi . Inline tugmalar yordamida til tezkor o‘zgartirildi va foydalanuvchi tajribasi silliq bo‘ldi. Kod xatoliksiz ishladi va foydalanuvchilar qulay interfeysdan foydalana oldi. Tarjima natijalari aniq va tezkor bo‘lib, matn yoki so‘z xatoligi yuz berganda bot asl holatni saqlaydi . Bot universal arxitektura tufayli so‘zlar va matnlar uchun yagona interfeysni ta’minlaydi, bu esa foydalanuvchi uchun maksimal qulaylik yaratadi. (1-rasm)

Bozor va Telegramda mavjud tarjima botlarning ko‘pchiligi faqat matn kiritish va natija olish imkoniyatini beradi [2], so‘zlarni alohida tarjima qilish funksiyasi cheklangan yoki yo‘q. Ko‘pgina botlarda xatolik yuz berganda foydalanuvchi matnning asl holatini tiklash imkoniyatiga ega emas.

Yaratilgan botning afzalliklari:

- Universal ishlash: Matn va so‘zlarni alohida tarjima qilish imkoniyati mavjud.
- Intuitiv interfeys: Inline tugmalar yordamida til tanlash qulay va tezkor.
- Asinxron ishlash: Bir vaqtning o‘zida ko‘p foydalanuvchilar bilan samarali ishlash.
- Xatoliklarni boshqarish: Tarjima jarayonida xatolik yuz berganda foydalanuvchiga matnni asl holatda saqlash imkoniyati.
- Kengaytirilgan arxitektura: Python va modular kod tuzilishi yangi tillar va qo‘shimcha funksiyalarni oson integratsiya qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, bu bot mavjud botlardan interaktivligi, universal ishlash xususiyati va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash imkoniyati bilan ajralib turadi.

Xulosa.

Telegram bot orqali universal matn va so‘z tarjima tizimi yaratildi . Bot foydalanuvchi interfeysi qulay, samarali va xatosiz ishlaydi. Loyihani yangi tillar va NLP integratsiyasi orqali kengaytirish mumkin [5]. Ushbu tizim dasturchilarga universal va samarali bot yaratish tajribasini oshiradi. Kelajakda bu botga audio funksiyasi va bir necha tillar ham qo‘shiladi (masalan fransuz, kareys, rus va xitoy tillari).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1]. Vaswani, A. et. al. (2017). *Attention is All You Need.* NIPS 30.

[2]. Google. (2023). *Google Translate API Documentation.* https://cloud.google.com/translate/docs

[3] . Aiogram Documentation. (2023). https://docs.aiogram.dev/en/latest/

[4] . Deep Translator Documentation. (2023). https://pypi.org/project/deep-translator/

[5]. Klein, G. et al. (2021). Modern Neural Machine Translation with

[6] .Transformers. – Zamonaviy neyron tarjima modellarining nazariy va amaliy tushuntirishlari.

[7] .Cho, K. et al. (2014). Learning Phrase Representations using RNN Encoder-decoder for Statistical Machine Translation.

[8]. Chollet, F. (2018). Deep Learning with Python. Manning Publications.